O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

RAXMATOV ADXAM ITOLMASOVICH

TURIZM SOHASIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH: MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

(Monografiya)

SAMARQAND – 2023

UO‘K: 379.85
KBK: 65.433

Raxmatov Adxam Itolmasovich.
Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash: muammolari va yechimlari [Matn]: monografiya / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 162 bet.

Muallif tomonidan tayorlangan ushbu monografiya mamlakatda raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash: muammolari va yechimlari masalalariga bag‘ishlangan.

Monografiyada O‘zbekistonda turizm sohasidagi oliy ta’lim muassasalarining reytingi va raqotbardoshligini oshirishga, turizm industriyasining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash - turizm sohasida ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim jarayoniga investitsiyalar, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Ushbu monografiyada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni muammolari va yechimlari, oliy ta’lim mauassasalari bilan mehnat bozorida kadrlar iste’molchilari bo‘lgan tur-firmalar, turizm industriyasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va muvofiqlashtirish vazifasini amalga oshiruvchi iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tuzilmalarining institutsional mazmuni takomillashtirilgan.

Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis institute Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashr uchun tavsiya etilgan (2023 йил 31-oktabrdagi 3-son majlis qarori)

Taqrizchilar: Bektemirov A. –SamISI “Investisiya va innavatsiyalar” kafedrasi mudiri, professor, i.f.d.
Ergashev R.X. – QMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.

ISBN: 978-9910-752-43-8

© Raxmatov Adxam Itolmasovich. SamISI. 2023 y.
©“STEP-SEL” MChJ. Nashryoti. 2023 y.

MUNDARIJA

KIRISh 5

I BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI 10

1.1. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning obyektiv zarurligi va nazariy asoslari 10
1.2. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari ... 19
1.3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda global talablardan kelib chiqish zarurati 31

II BOB. TURIZM INDUSTRIYSI UCHUN YUQORI MALAKALI RAQOBAT BARDOSH KADRLAR TAYYORLASHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI 45

2.1. O‘zbekistonda turizm industriyasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holati 45
2.2. Respublikada turizm industriyasidagi yuqori malakali kadrlar faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar holatining ekonometrik tahlili 59
2.3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo‘llari 70

III BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM INDUSTRIYASI UCHUN YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 81

3.1. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni hududiy klasterini rivojlantirish modelini o‘zaro bog‘liqligining tahlili 81
3.2. O‘zbekistonda turizm sohasini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish 98
3.3. Turizm sohasida gid ekskursiya yetakchisi yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish va yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va prognoz parametrlari .. 112

IV BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 126

4.1. O‘zbekistonda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda xorij davlatlarining zamonaviy ta’limlardagi tajribalarini, modellarini va texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari.....127
4.2. O‘zbekistonda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda investisiya va innovatsiyalardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari.....141
4.3. Inson omilini rivojlantirishda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashda investisiyalarni ahamiyati 146
XULOSA.....151
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....153

KIRISh

Jahonda turizm xizmatlari sifati va ko‘lamini oshirish turizm tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mijozlarning turistik mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu esa turistik xizmatlar hajmini oshirish orqali turizm industriya faoliyatining barqarorligini ta’minlash jihatidan muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Pandemiya davriga qadar, ya’ni “2019-yilda jahon yalpi ichki mahsulotini 5,5 %i, tovar va xizmatlar eksporti hajmini 7,0 %i, xizmatlar eksporti hajmini 30 %i, umumiy bandlik ko‘rsatkichining 10,2 %i ushbu soha hissasiga to‘g‘ri kelgan. COVID-19 va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davom etayotgan cheklovlar natijasida sayyohlik va turizm sektori 4,5 trln. AQSh dollari miqdorida zarar ko‘rgan”[1]. Turizm xizmatlari va ko‘lamini yanada kengaytirish hamda turistik mahsulotlarning daromadliligini ta’minlash va investitsion resurslar jalb qilish, pirovard natijada, turizm tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishga, sohada yuqori malakali kadrlarni jalb qilishga xizmat qilmoqda.

Jahonda pandemiya tufayli yuzaga kelgan inqirozdan chiqish uchun turizm sektori doirasidagi faoliyatni tahlil qilish, tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda turizm industriyasi xizmatlari daromadliligini ta’minlash, turistik mahsulot paketlarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish, turizm jarayonlari raqamlashtirish bo‘yicha fundamental ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, turizm bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi va innovatsion taraqqiyot turistik mahsulotlar asosiy omiliga aylanganligi yuqori malakali kadrlarni jahon standartlari asosida tayyorlash turistik tashkilotlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyatga egadir. Yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan turizmning zamonaviy sharoitlar uchun maqbul bo‘lgan strategik boshqaruv shakllari va usullarini amalga oshirish imkoniyatlarini, soha taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarni va o‘ziga xos xususiyatlarini

[1] http://www.unwto.org; Travel & Tourism Economic Impact 2021 World, p.

aniqlash, turizm sohasi uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turizm sohasida hududiy turistik klasterni tashkil etish, hududlarda turizmni rivojlantirish orqali aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash, sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda turizm sohasidagi oliy ta’lim muassasalarining reytingi va raqotbardoshligini oshirishga, turizm industriyasining zamonaviy talablariga muvofiq yetuk kadrlar tayyorlash shuningdek, ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim jarayoniga investitsiyalar, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “2026-yilga turizm sohasida band bo‘lgan aholi soni 2 baravarga oshirib, 520 ming nafarga yetkazish”[2] vazifasi belgilangan. Bu borada YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan davlat turistik obyektlaridan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda keng foydalanish, sohaga investitsion mablag‘larni jalb qilishning “sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalarini qo‘llash, turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko‘p bosqichli ta’lim tizimini yaratish, turizm sohasidagi gid-tarjimon, ekskursiya yetakchisi va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarning kasbiy malakasini sertifikatlashtirishni ham ko‘zda tutuvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sinergetik samara beruvchi tizimini yaratish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishini taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘bekistonnig taraqqiyot strategiyasi to‘g`risida”gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022-y.

2017-yil 27-iyundagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 30-oktyabrdagi PQ-5270-son “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-son “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-iyuldagi 407-son “Turizm sohasi subyektlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash munosabatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari bo‘yicha A.Asher, R.Barro, D.Duglas, E.C.Andrade, E.Xanushek, B.R.Kozma, A.Maddison, Dj.Filipp, L.Pritchett va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan[3].

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan Y.O.Akvazba, Y.V.Balaskiy, N.N.Bedenko, K.N.Gojenko, A.X.Jankaziyev, A.P.Kolyadin, L.Polishuk, A.K.Savina, V.I.Suxochevlar[4] turizm

[3] Ашер А., Савино М. Глобальные рейтинги и рейтинговые таблицы // Вопросы образования. – 2007. – 4. – С. 201–216; Barro, R., 1999. “Human Capital and Growth in Cross Country Regressions”, Swedish Economic Policy Review, Vol.6, pp.237–77; Дуглас Д. Новый мировой порядок в высшем образовании: как и почему правительства создают структурированные рынки возможностей // Вопросы образования. – 2011. – 1. – С.73–98.; E.C.Andrade, Laurini, M., 2010. “New evidence on the role of cognitive skills in Economic Development”, Economics Letters, Vol.117 (1), pp.123–26; Hanushek, E., Kimko, D., 2000. “Schooling, Laborforce quality, and the growth of nations”, American Economic Review, Vol.90(5), pp.1184–208; Hanushek, E., Woessmann L., 2008. “The role of cognitive skills in economic development”, Journal of Economic Literature, Vol.46(3), pp.607–68; Kozma, B, R, 2008. “ICT, education reform, and economic growth: A conceptual framework”, Retrieved from http://download.intel.com/education/HP/Kozma_WP1.pdf> [Accessed 20 January, 2012]; Maddison A. Growth and slowdown in advanced capital economies: techniques of quantitative assesarmemt // Journal of Economic Literature. 1987. Vol. 25. p. 675. www.jstor.org; Philip G. Altbach, Liz Reisberg, Laura E. Rumbley (2009). Trends in Global Higher Education: Trasking an Academic Revolution. A report prepared for the UNESCO 2009. World Conference on Higher Education. – p. 10; Pritchett, L., 1996. “Where Has All the Education Gone?”,World Bank Policy Research Paper, No.1581 [online] Available from: <http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/unpan/unpan 002390. pdf ю

[4] Аквазба Е.О., Ухабина Т.Е., Черемисина Е.В. Качество образования в современной образовательной организатсия: проблемы и перспективы // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – 5.; Балацкий Е.В., Екимова Н.А. Международные рейтинги университетов: практика составления и

sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflar keltirib o‘tilgan.

O‘zbekistondagi iqtisodchi olimlardan N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, B.Navruzzoda, M.Q.Pardayev, M.M.Muhammedov, M.T.Aliyeva, N.S.Ibragimov, O.S.Qahharov, D.X.Aslanova, M.T.Alimova, A.T.Mirzayev, A.Eshtayev, B.Safarov, A.O.Ochilov, Z.T. Abdulhakimov, Z.T.Bakayev, M.A.Quymuratova, A.P.Maxmudova kabi[5] olimlar tomonidan sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu olimlarning ishlarida turizm sohasini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yishning

использования // Экономика образования. – 2012. – 2. – С. 67–80.; Беденко Н.Н. Управление системой оценки качества услуг высшего образования на мезо- и микроуровнях. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2012. – 404 с.; Гоженко К.Н. Экономика знания – императивная основа инновационной трансформацси сферы образовательных услуг. Автореф. дисс. … д-ра эконом. наук. – Кисловодск, 2012. – 38 с.; Жанказиев А.Х. Императивы и организационно-экономические инструменты адаптацси системы высшего образования к вызовам экономики знаний. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Нальчик, 2012. – 382 с.; Колядин А.П. Фиктивный компонент человеческого капитала как системный феномен экономики знаний. Автореф. дисс. … д-ра эконом. наук. – Саратов, 2012. – 30 с.; Полищук Л., Ливни Э. Качество высшего образования в России: роль конкуренции и рынка труда // Вопросы образования. – 2005. – 1. – С. 70–86.; Савина А.К. Ученые степени и звания в зарубежных странах: общее и особенное // Проблемы современного образования. – 2015. – 3. – С. 10-23.; Сухочев В.И. Методология формирования организационно-экономического механизма оценки доступности и качества высшего образования. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Уфа, 2011. – 404 с.

[5] Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. - Т.: Гос.науч.изд-во “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. - 424 с.; Тухлиев И.С.,Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт .(Учинчи нашри) Дарслик.-Т.: “Фан ва технологилар нашриёти – матбуат уйи” 2021.424 б., Навруз-зода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б.Туристик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. – Бухоро:“Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2017 - 156 б.; Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари. (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д.(DSc) дисс. автореф. –Самарқанд, 2019. –81 б., Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. – Самарқанд: СамИСИ, 2006. - 137 б; А.А.Эштаев. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ., 2019. – 246-б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – С.: СамИСИ, 2016. - 254 б.; Очилов А.О. Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш: и.ф.д. диссертацияси автореферати. –Тошкент., 2018. –89 б., Қаҳҳоров О.С. Олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг бошқарув механизмини такомиллаштириш (Бухоро ва Навойи вилоятлари мисолида): и.ф.д. докторлик диссертацияси автореферати. – СамИСИ., 2021. – 79 б., Ибрагимов Н.С. Туристик ҳудуд барқарор рақобатбардошлигига эришишнинг илмий асослари: и.ф.д. диссертацияси автореферати.– СамИСИ., 2020.- 89 б., Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш: и.ф.д. диссертация автореферати.-Тошкент, 2021.-76 б., Абдулхакимов З.Т. Минтақада рекреациядан фойдаланишнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш (Наманган вилояти мисолида): и.ф.ф.д.(PhD) диссертацияси автореферати.- Самарқанд, 2020.-56 б., Бакаев З.Т. Ички ва кирувчи туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш: и.ф.ф.д.(PhD) диссертация автореферати. -Тошкент, 2021. –59 б., Қуймуратова М.А. Туризмни ривожлантириш ва диверсификация қилишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш: и.ф.ф.д.(PhD) диссертация автореферати.- Наманган, 2021.-64.б., Махмудова А.П. Маркетинг тадқиқотларидан фойдаланиш асосида экотуризм самарадорлигини ошириш: и.ф.ф.д. (PhD) диссертация автореферати. -Тошкент, 2021.- 67 б.

umumiy jihatlari o‘rganilgan. Biroq mazkur tadqiqot ishlarida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammolari, turizm sohasidagi gid-tarjimon, ekskursiya yetakchisi va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarning kasbiy malakasini sertifikatlashtirishni ham ko‘zda tutuvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sinergetik samara beruvchi tizimini yaratish, turistik obyektlaridan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda keng foydalanish va sohaga investitsion mablag‘larini jalb qilishning “sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalarini qo‘llash masalalari yetarlicha o‘rganilmaganligi va bu borada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

I BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning obyektiv zarurligi va nazariy asoslari

Mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyot sur’atlarini jadallashtirishda turizm sohasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai-nazardan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “soha uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalar ham diqqat markazimizda bo‘ladi”[6] deb belgilanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ifodasi ekanligidan dalolat beradi. Jahon turizm industriyasining tajribalari turizm sohasida kadrlar bilan bog‘liq muammolarning bartaraf etilishi ko‘lamli miqdor va sifat o‘zgarishlar yuz berayotganligini namoyon qilmoqda .

Tadqiqotlarimizning natijalari shuni ko‘rsatdiki, uchinchi ming yillikda kam vaqt davomida eng ko‘p qoniqishni ta’minlovchi sayyohlik mahsulotlariga talab yuqori bo‘ladi. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun qadimiy tarixiy me’morchilik yodgorliklari, xalq og‘zaki ijodiyoti yodgorliklari, qo‘riqxonalar, tog‘, suv turizmi va boshqa resurslar yetarlidir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti sezilarli darajada o‘sdi. Xalq moddiy faravonligi oshib, hayot sifati yaxshilandi. Natijada mamlakat aholisi nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari iste’moliga, balki dam olishga, uning sifatiga ham ko‘proq e’tibor berishni boshladilar. Aholi turmush darajasini oshirshining muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil”[7] dasturining amalga oshirilishi mamlakatda sayyohlik madaniyatiniing rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Yurtimizda ichki sayyohlarning umumiy soni 2016-yildagi 8,8 milliondan 2019-yilda 14,7 millionga 2021-yilda esa 15 milliondan

[6] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.-Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021.- 172 б.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-son qarori.

oshgan. So‘nggi 4 yil ichida mamlakatimizda 833 ta yangi mehmonhonalar yirik, o‘rta va kichik mehmonxonalar foydalanishga topshirildi. Joylashtirish fondlarining umumiy soni 1442 taga yetgan. Bunda xonalarning soni -33,4 ming xonani tashkil etayotgan bo‘lsa undagi o‘rinlari -71,2 taga yetdi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yuzlab yangi mehmonxona loyihalari borpo etilmoqda, ular yaqin kelajakda sayyohlar uchun foydalanishga topshirilishi rejalashtirildi. 2022-yil mart oyida O‘zbekistonning barcha toifadagi mehmonlar va xostellarni o‘rtacha bandlik holati bo`yicha ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi. 2017-yilda mehmonxonalarning bandlik darajasi 39,3 %i , 2019-yilda-51,1 %i , pandemiya davrida -22,1 %i, o‘tgan yili bandlik ko‘rsatkichi 36,3 foizni tashkil etdi.

Tadqiqotlarimizning natijalari 2019-2022-yillar davomida mamlakatimizda sayyohlar soni dinamikasini tiklanilayotganligini ko‘rsatmoqda. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 15 %ga ortayotgan bo‘lsada, mehmonxonalar soni 2019-yilga nisbatan 21,7 foiz oshib, 26147 o‘rindan 33411 taga ko‘paydi[8]. Ko‘rish mumkin (1.1-rasmda).



1.1-rasm. O‘zbekistonga keluvchi turistlar soni va uning dinamikasi, (ming

[8] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Kun.uz xabarlarining ma’lumotlari.// kun uz/

kishi)[9]

1.1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasidagi institutsional o‘zgarishlarning evolyutsiyasi katta o‘zgarishlar vujudga kelishiga turtki bergan. Pandemiya davrini hisobga olmaganda qisqa davr ichida O‘zbekistonga tashrif buyuradigan sayyohlar soni 3-4 barobarga ortishiga erishildi. Bu esa jahon turizmi rivojlaniishida katta ko‘rsatkich hisoblanadi. 2019-yildagi qariyb 7 mln. nafarga yetadigan turistlarning kelishi olib borilgan turizm islohotlarining samarali va to‘g‘ri yo‘lda ekanligini ko‘rsatadi.

Turizm sohasidagi islohotlarning boshlanishi o‘z navbatida soha vakillarining sohadagi o‘zgarishlarni yaxlit va tarkibiy jihatdan tahlilini olib borishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan o‘tkazilgan tahlillardan birida mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarning tarkibi alohida o‘rganildi. Maqsadlar tasnifi bo‘yicha tashriflar va ularning umumiy holati esa quyida keltirilgan jadvalda o‘z aksini topgan (1.1-jadval).

1.1- jadval

O‘zbekistonga kelgan turistlarning maqsadlar bo‘yicha taqsimoti[10]

№	Ko‘rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
	Jami: Shundan, kelish maqsadlari bo‘yicha: (*kishida*)	2 027 035	2 690 074	5 346 219	6 748 512	1504126	1881345
1.	Dam olish va ko‘ngil ochish	175 534	230 513	458 119	1 043 929	129333	155068
2.	Savdo-sotiq	17 175	25 635	50 946	53 874	16289	13644
3.	Ishbilarmonlik uchrashuvlari	149 708	28 437	56 515	53 117	17380	60704
4.	Davolanish va sog‘lomlashtirish	27 149	26 430	52 527	55 490	15042	32404
5.	Ta’lim	6 261	7 363	14 633	21 383	4728	6416
6.	Qarindosh va do‘stlarni ko‘rish	1 651 208	2 371 696	4 713 479	5 520 719	1613109	1321354

[9] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
[10] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qumitasi ma’lumotlari bo‘yicha tayyorlandi.

Natijalar turistlarning qanday maqsadlarda kelayotganligini ko‘rsatib, bu ko‘rsatkich orqali kelajakda mamlakatda turizmning qaysi turlariga infratuzilmani kengaytirish va rivojlantirish kerakligini aks ettirgan.

Mazkur jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatga kelgan turistlarning asosiy qismi qarindosh va do‘stlarni ko‘rish uchun bo‘lib, mamlakatmizda turizmning qolgan yo‘nalishlarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratish va eng ko‘p kelgan turistik yo‘nalishlar bo‘yicha infratuzilmani yaxshilash xulosalarini olishni taqozo etadi.

Ko‘rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan 2016-2021-yillarda O‘zbekistonga kelgan turistlarning maqsadlar bo‘yicha 2027035 kishidan 1881345 kishiga kamaygan yoki 8 %ga qisqarganini ko‘rishimiz mumkin.

Shuning uchun ham turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar salohiyatini har tomonlama oshirish, bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirish, madaniyatini yuksaltirish zarur. Ko‘p hollarda turistlarning xohish va istaklarini inobatga olib, ular uchun yangi turistik yo‘laklar topish, sifatli xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash, yuqori malakali kadrlar bilan bog‘liq mavjud muammolarni hal etish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, kadrlar ta’minoti masalasi jihatidan turizmni strategik rejalashtirish bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ammo bunday dolzarb vazifani hal etish bir nechta omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Bunday omillardan biri turistik resurslar markazidan joy olgan “ishchi kuchi”, “turistik xodim”, “turoperator”, “gid” pirovardida “kadrlar” deb ataladi.

Masalan, “turizm sohasida yuqori malakali kadrlar” tushunchasining tub mohiyatini to‘la tushunib yetmasdan, unga atroflicha va to‘liq ta’rif bermasdan turib, “turoperator” yoki “gid” turistik xizmatlar sifatini baholab bo‘lmaydi. Shuningdek, uning tayyorlanish holatini o’rganish, uning tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarini rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish “turizm sohasida yuqori malakali kadrlar” tushunchasining to‘g‘ri talqin etilishiga bog‘liq. Turizm sohasida

yuqori malakali kadrlarning turizm iqtisodiyotida tutgan o‘rni, turistik xodimlarning bandligi, daromadlari va boshqa muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash “yuqori malakali kadrlar” to‘g‘risida aniq tasavvur va nazariy bilimlarning bo‘lishini taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm sohasida “yuqori malakali kadrlar” tushunchasining mohiyatini ochishga alohida e’tibor qaratdik. Nazariy izlanishlar bugungi kunda “turizm sohasida yuqori malakali kadrlar” tushunchasining mohiyatini ochib berishga, unga mazmundor ta’rif berishga, turizmni turli belgilar asosida turlarga tasniflashga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar borligini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqotlar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Turizm nazariyasiga salmoqli hissa qo‘shgan xorijiy olimlar sirasiga A.Asher, R.Barro, D.Duglas, E.C.Andrade, E.Xanushek, B.R.Kozma, A.Maddison, DJ.Filipp, L.Pritchettlarni nomini alohida keltirib o‘tish joiz [11].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, malakali kadrlarni tayyorlash jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Amalda ular foydani ko‘paytirish orqali iqtisodiy samarani oshirishning quroli, vositasi hisoblanadi. Turizm bozorida mavjud keskin raqobat muhitida faoliyat olib boruvchi turistik korxona (turoperator va turagentlik) yuqori malakali kadrlarni band qilishi natijasida yangi turistik yo‘nalish ishlab chiqish, tannarxni pasaytirish, vaqt birligida turmahsulot hajmini ko‘paytirish, sayyohlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish va boshqa tadbirlar orqaligina bozordagi o‘z mavqeini saqlab qolishga va uni mustahkamlashga

[11] Ашер А., Савино М. Глобалные рейтинги и рейтинговые таблицы // Вопросы образования. – 2007. – 4. – С. 201–216; Barro, R., 1999. “Human Capital and Growth in Cross Country Regressions”, Swedish Economic Policy Review, Vol.6, pp.237–77; Дуглас Д. Новый мировой порядок в высшем образовании: как и почему правителства создают структурированные рынки возможностей // Вопросы образования. – 2011. – 1.–С.73–98.; E.C.Andrade, Laurini, M., 2010. “New evidence on the role of cognitive skills in Economic Development”, Economics Letters, Vol.117 (1), pp.123–26; Hanushek, E., Kimko, D., 2000. “Schooling, Laborforce quality, and the growth of nations”, American Economic Review, Vol.90(5), pp.1184–208; Hanushek, E., Woessmann L., 2008. “The role of cognitive skills in economic development”, Journal of Economic Literature, Vol.46(3), pp.607–68; Kozma, B, R, 2008. “ICT, education reform, and economic growth: A conceptual framework”, Retrieved from http://download.intel.com/education/HP/Kozma_WP1.pdf> [Accessed 20 January, 2012]; Maddison A. Growth and slowdown in advanced capital economies: techniques of quantitative assesarmemt // Journal of Economic Literature. 1987. Vol. 25. p. 675. www.jstor.org; Philip G. Altbach, Liz Reisberg, Laura E. Rumbley (2009). Trends in Global Higher Education: Trasking an Academic Revolution. A report prepared for the UNESCO 2009. World Conference on Higher Education. – p. 10; Pritchett, L., 1996. “Where Has All the Education Gone”, World Bank Policy Research Paper, No.1581 [online] Availablefrom: 002390.pdf

erishadi. Bu esa, pirovard natijada tarmoqda yuqori daromadlilikni ta’minlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda hozirga qadar turizm sohasida “yuqori malakali kadrlar” atamasi tushunchasiga aniq ta’rif berilmagan. Tadqiqotlarimiz natijasi juda ko‘p holatlarda odatda, “yuqori malakali kadrlar” tushunchasidan foydalanilishini ko‘rsatmoqda.

Ammo shuni ta’kidlash lozimki, xorijlik olimlar tomonidan sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalariga qaratilgan tadqiqotlar keng amalga oshirilgan bo‘lib, Masalan yuqori malakali kadrlarni shakllantirish borasida Jahon Turizm Tashkiloti[12] va Jahon turizm va sayohat qo‘mitasi[13] tomonidan talablar ishlab chiqilgan. Ushbu tashkilotlar talablaridan kelib chiqib, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash mavzusida xalqaro konferensiyalar o‘tkaziladi, maqolalar chop etiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi. Hozirgi kunda Yevropaning ta’lim bo‘yicha turizm va dam olish “ATLAS” nomli assotsiatsiyasi jahonning bir nechta mamlakatlariga turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash mavzusida amaliy yordam, maslahatlar va ko‘mak berish tashabbuskori hisoblanadi.

Oliy ta’lim ta’lim sifatini oshirishni boshqarish modelini va o‘quv jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash takliflarini bildirgan. Bunda DTS talablari asosida bitiruvchilarga yangi namunadagi diplomlar berish zaruratini asoslash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Yuqori malakali kadrlar ta’lim sifatining iqtisodiy o‘sishga ta’sirining matematik modellari asosida kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslash, oliy ta’lim muassasalarini boshqarish samaradorligi, reytingi va raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar, pedagog xodimlarning sifat modeli taklif qilinib, oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini boshqarishning integratsiya natijalarini prognozlash va samaradorligini oshirish hamda marketing tamoyillaridan foydalanishni

[12] https://www.unwto.org/ru - sayti ma’lumoti asosida tayyorlangan.
[13] https://wttc.org/ - sayti ma’lumoti asosida tayyorlangan.

takomillashtirish borasida tavsiyalar berilgan[14]. Ammo olim tadqiqotlarida turizm sohasida mavjud yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosiga munosabatini bildirmagan.

I.S.Tuxliyevning ilmiy tadqiqot ishlarida turizmning zamonaviy kadrlar tayyorlash bo‘yicha tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqligini asoslab bergan[15].

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda uning ta’lim sifati bilan bog‘liq jihatlari, unga ta’sir etayotgan omillarni baholash masalalariga M.M.Muhammedov “Ta’lim-taraqqiyot tayanchi” nomli maqolasida qimmatli ilmiy tavsiya va takliflarini izohlab bergan[16]. Olimning ta’kidlashicha, ta’lim sifatini tubdan yaxshilashning yakkayu-yagona yo‘li-mamlakatda shaffof, sifatli bilimni rag‘barlantirshga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirishdan iborat[17] degan yondoshuvni bildirgan.

Olima D.X.Aslanovaning tadqiqotlarida turizm sohasini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlari, aniqrog‘i, globallashuv jarayonlari va ularning turistik xizmatlar bozoriga ta’sirini, Samarqand viloyati misolida turizm sohasining rivojlanish omillarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimaning tadqiqotlaridan olingan natijalarga muvofiq, jahonda globallashuv jarayonining chuqurlashuvi va ilmni ko‘p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustun rivojlanishi sharoitida milliy iqtisodiyot o‘sishi va aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishning zaruriy sharti yuqori malakali kadrlarni tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Bu borada xalqaro turizm xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, jumladan, sohadagi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash darajasiga alohida e’tibor qaratilayotgani ahamiyatga molikdir.[18] Iqtisodchi olima turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda turistik klasterlar modeli

[14] Очилов А.О. Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш. и.ф.д. диссертатцияси автореферати.-Тошкент., 2018. – 89 б.

[15] Тухлиев И.С.,Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт.(Учинчи нашри) Дарслик.-Т.: “Фан ва технологиялар нашриёти – матбуат уйи” 2021.424 б.

[16] Муҳаммедов М.М., “Таълим- тараққиёт таянчи” “Зарафшон” газетаси 2018,-17-феврал, 20(22.980)-сон

[17] Муҳаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография.- Сам.: Зарафшон,- 2017.- Б.181-200.

[18] Муҳаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография.- Сам.: Зарафшон, - 2017.-Б.181-200.

samarali natijalarga olib kelishi xususida ilmiy-nazariy tavsiyalarini taklif etgan.

B.Sh.Safarovni tadqiqotlarida milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga urg‘u berilgan bo‘lib, yuqori malakali kadrlarni roli xususidagi masalalariga ham alohida e’tibor qaratgan[19].

O.S.Qahhorov oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirishda yuqori malakali kadrlar milliy iqtisodiyotimizda mavjud muammolarni hal etishda muhim omil ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan. Iqtisodchi olim oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash boshqaruv mexanizmining nazariy-uslubiy asoslarini, ularning sifati, samaradorligini oshirish yo‘nalishlari, OTMlari faoliyatini baholash uslubini takomillashtirish borasida tadqiqot ishlari olib borib pragmatik ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan[20].

Iqtisodchi olimlarimizdan N.S.Ibragimov yuqori malakali kadr turizm hududi raqobatbardoshligining umumiy konseptual andozasi hamda turizm hududlarning ierarxik tipologiyasi nazariyasi asosida raqobatbardoshlikning mono, mini, mikro, meta, mezo, makro, mega ko‘lami va darajasi, shuningdek, 7M konseptual modeli ishlab chiqishda o‘z o‘rniga ega ekanligini isbotlab bergan[21].

Yuqoridagi turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashga bo‘lgan zaruriyatini asoslab berish o‘z navbatida turizm sohasida “yuqori malakali kadr” tushunchasining xususiyatlarini tushuntirib berish vazifasini keltirib chiqardi. Shu o‘rinda turizm sohasida “yuqori malakali kadr” tushunchasini xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, aniqrog‘i yuqori malakali turistik xodimning xususiyatlari deganda, turizm bilan muayyan bog‘liq vazifalarni hal etish, qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan

[19] Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. диссертатцияси автореферати. - СамИСИ., 2017.-78 б.

[20] Қаҳҳоров О.С. Олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг бошқарув механизмини такомиллаштириш (Бухоро ва Навоий вилоятлари мисолида) Докторлик диссертатцияси автореферати. – СамИСИ., 2021. – 79 б.,

[21]Ибрагимов Н.С. Туристик ҳудуд барқарор рақобатбардошлигига эришишнинг илмий асослари. и.ф.д. диссертатсияси автореферати.- СамИСИ., 2020. - 89 б.

imkoniyatlar, manbalar, vositalar va hokazolarning jamlanmasi, alohida shaxs, jamiyat, umuman davlatning imkoniyatidir. Uni biz shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarga ajratdik (1.2-rasm).

Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan olimlarning bildirgan munosabatlari, yondashuvlari mavjudligidan kelib chiqib tadqiqotimizda turizm sohasida yuqori malakali kadr iboralarini qanday tushunamiz? Uning asosi, mazmun-mohiyati haqida to`liqroq yo`ndoshuvga hamda savollarga kengroq javob topishga harakat qildik.

Fikrimizcha, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar deyilganda, intellektual salohiyati, malakalari va kasbiy mahorati, ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni oldindan ko‘ra bilishi, xolis baholash qobiliyati, turistik jarayonlarni boshqarishda tizimli yondashish uquvlariga ega hamda turizm sohasining zamonaviy talablari me’yorlari doirasida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodim tushuniladi[22]. Ta’rifda-biz turistik sohada xodimning kasbiy-ijodiy qobiliyati va uquvlarining takomillashtirilganligini nazariy olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi, kasbiy layoqatini tasdiqlovchi sertifikatlar, xorijiy mamlakatlarda orttirgan tajribasi, siklli iqtisodiy rivojlanish davrlarida optimal qarorlar qabul qiladigan, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy omillar ta’sirida vujudga keladigan o‘zgarishlarda tavakkalchilikni real baholaydigan, berilgan topshiriqlarga nisbatan ijodiy yondoshadigan, kommunabellik, innovatsiyalar va qonunchilikka moyil bo‘lgan xususiyatlaridan kelib chiqdik.

[22] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1.2-rasm. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning xususiyatlari[23]

Ta’rif nazariy jihatdan turizm sohasida yuqori malakali kadrga bo‘lgan talablar va uning kompetensyasi bilan bog‘liq juda ko‘p munozarali yondoshuvlarga barham beradi va tizim nuqtai nazaridan takomillashib borishi mumkin.

1.2. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, tashkiliy-huquqiy shakllari, bozor mexanizmi, bozor

[23] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

talabini rag‘barlantirish va motivlashtirish tizimi, turizm oliy ta’lim muassasalari tuzilmasi kabi elementlarning yaxlitligidan va bir butunligidan iborat. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mazkur jarayonning yaxlitligi va bir butunligini ta’minlab turadi. Ushbu mexanizmga xos bo‘lgan xususiyatlarini anglash uchun, avvalombor “mexanizm” tushunchasining nazariy talqinini izohlab bermoqchimiz. Iqtisodiy mexanizmning shakllanishi hamda ularning ishlashini takomillashtirish nazariy masalalari ilmiy tadqiqotlarning obyekti sifatida o‘tgan asrning 50-yillaridan keyin o‘rganilib kelinmoqda.

“Mexanizm” tushunchasini keng ma’noda (yunon.mechane - mashina) biror bir asbob, apparat, mashinkani harakatga keltiruvchi ichki qurilmasi ma’nosini anglatadi.[24] Iqtisodiy fanda “mexanizm” tushunchasi majoziy ma’noda ishlatilib, uning mohiyati” biror-bir harakat sifatida namoyon bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ketligi, shuningdek biror xil faoliyat tartibini aniqlovchi tuzilma, tizim”[25] sifatida talqin etiladi. Bunda ba’zi bir iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra iqtisodiyotda “mexanizm” tushunchasining qo`llanilishida “ushbu faoliyatning aniq natijaga erishishini ta’minlash maqsadida muntazam boshqaruvni ta’minlovchi (iqtisodiy, xo‘jalik, tashkiliy) tizimning shakllanishi nazarda tutiladi[26]. Shuningdek, “mexanizm” - iqtisodiy hodisalarning aniq ketma-ketligi yoki majmuidir”[27].

Ilmiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilayotgan muammoning yechimi o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy yondoshuvlar asosida izlanilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tarixiy rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqqan holda “mexanizm” tushunchasiga keltirilgan ta’riflarda uning mohiyatini talqin etishda turili xil yo‘ndashuvlarni kuzatish mumkin. Masalan L.P. Pavlov, O.V. Kozlova, V.P.Maskalenko, S.A.Voevodin kabi olimlar

[24] Яндекс Словари. Толковый словар иноязичных слов. Электронный ресурс.http:// slavari.yandex.ru

[25] Ожегов С.И.Толковый словарь русского языка. Электронный ресурс / М.: Аз, 1992. - Режим доступа: http://www.ozhegov_shedova. ru.

[26] Страхова О.П. Ометодах организаци управления. // Менежмент в России изарубежом №5, 1998. http: // www.mevriz.ru/articles/1998.773. Html.

[27] Кулман А.А.Экономические механизмы // Пер.с.франц.А.А.Кулман; Под ред Н.И.Хрусталевой, М.: Прогресс-Унирс, 1993.-189 с.

tomonidan “iqtisodiy-mexanizm” bir butunlikdagi faoliyatni ta’minlovchi tizim osti elementlaridan majmuidan iborat tizim sifatida talqin etilgan.



1.3-rasm. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy-me’yoriy mexanizmlari[28]

[28] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

M.A.Kuymuratova turizmni rivojlantirish va diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan[29]. Shunday qilib, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi OTM bilan mehnat bozorida kadrlarga bo‘lgan talabni shakllantiruvchi turistik korxonalar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va muvofiqlashtirish vazifasini o‘zaro yaxlitlikda tizimli amalga oshiruvchi xos unsurlar, shakllar va vositalar majmui hisoblanadi (1.3- rasm).

O‘rganilgan tadqiqot ishlaridan kelib chiqib, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini taklif etamiz. 1.3- rasmda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini quyidagi asosiy uchta yo‘nalishga ajratdik: tashkiliy, huquqiy-me’yoriy va iqtisodiy yo‘nalishlarni qamrab oladi.

tashkiliy mexanizmi-hududiy turistik klaster tashkiliy tuzilmani shakllantirish, investitsion resurslarning optimal tizimini tashkil etish, kadrlar tayyorlashda zamonaviy tashkiliy standartlaridan foydalanish, turizmni tezkor axborot-konsalting ma’lumotlar bazasini yaratish, yunesko kafedrasini xalqaro tajribaga asoslangan tashkiliy munosabatlarini shakllantirish;

huquqiy-me’yoriy turindustriyaga mos kadrlar tayyorlashning xuquqiy-me’yorlar va normativ hujjatlarini shakllantirish, turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib OTMlarda kadrlar tayyorlashning huquqiy kafolatlari, xorijiy OTMlar bilan huquqiy-iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish, turizmda xizmat ko‘rsatishda zamonaviy huquqiy madaniyatni shakllantirish;

iqtisodiy mexanizmi - raqamli iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiy (kripto valyuta, smart kontrakt, data mayning va boshqa) dastaklardan foydalanish, OTMda xorijiy investitsiyalar va imtiyozli xalqaro kreditlash tizimidan foydalanish, innovatsiyalardan foydalanish, blok franchayzingni shakllantirish, sohada davlat xususiy-sheriklikni

[29] Куймуратова М.А. Туризмни ривожлантириш ва диверсификатция қилишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатацияси автореферати. - Наманган, 2021. - 64 б.

rivojlantirish, sug‘urtalash tizimini joriy etish, innovatsiyalardan foydalanish, blok franchayzingni shakllantirish.

Tadqiqotimiz davomida mamlakatimizda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy me’yoriy-huquqiy asosini tizimli tarzda quyidagicha aks ettirdik.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini tartibga solishda me’yoriy-huquqiy institutlar tizimi tuzilmasining milliy darajasiga oid qonunlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat:

- **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.** Xususan, ushbu me’yoriy hujjatda har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklari belgilab berilgan bo‘lib, jumladan, unda respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish barcha fuqarolar dam olishi (IX-bob, 38-modda), har bir inson malakali (O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi VII-bob, 28-modda), tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42-modda) [30];

- **O‘zbekiston Respublikasining qonunlari.** Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (1996-y.), “Turizm to‘g‘risida”gi (2019-y.), “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi (1993-y), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida”gi (1999-y.), “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to‘g‘risida”gi (2000-y.) qonunlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

- Turizm va madaniy me’ros vazirligining buyruqlari va farmoyishlari;

- Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda turizm sohasining huquqiy ta’minotini takomillashtirish borasida bir qator masalalar o‘z

[30] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30-aprel 2023-y Toshkent.

yechimlarini kutmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuniga zamonaviy turistik munosabatlar nuqtai nazaridan zaruriy qo‘shimchalar va o‘zgartirish lozim.

Turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 18-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi[31]. Ushbu qonun 45 ta moddadan tashkil topib, mazkur qonunning 6-moddasida turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorga muvofiq turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim va asosiy huquqiy-me’yoriy hujjat hisoblanadi degan xulosaga keldik. Chunki bugungi kunda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni, aynan oliy ta’lim tizimida turizm sohasida kadrlar tayyorlashda ishtirok etayotgan pedagog kadrlarning kasb mahorati saviyasini uzluksiz oshirib borish, turizm yo‘nalishlari bo‘yicha xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkasini tashkil etish, bitiruvchilarni magistratura va oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari o‘quv jarayonlariga yuqori malakali xorijiy olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarni jalb etishni kengaytirish kabi muammolarni hal qilish ehtiyojiga zaruriyat sezayotganligi namoyon bo‘ldi (1.4-rasm).

Ushbu 1.4-rasmda turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning institutsional me’yoriy tizimi keltirilgan. Yuqoridagi qaror talablaridan kelib chiqib, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida yuqori malakali xorijiy olim, o‘qituvchi va mutaxassislarni xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik mexanizmi va shakllarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini inobatga olgan holda, turizm sohasiga tegishli Oliy ta’lim muassasalari va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazlari o‘quv jarayoniga keng jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlar ishlab chiqildi. Mazkur qaror bilan oliy ta’lim darajasini sifat

[31] O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni 2019-yil, 18-iyul

jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha Oliy ta’lim tizimini 2017-2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi[32].



1.4-rasm. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning institutsional me’yoriy tizimi[33]

Oliy ta’lim dasturlarining o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga hamohangligini ta’minlash uchun ish beruvchilar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmayotganligi alohida ko‘rsatib o‘tildi.

[32]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2909-sonli qarori.
[33] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oliy ta’lim ilm-fan ishlab chiqarish o‘rtasida uzilishlar mavjudligi, integratsiya ta’minlanmaganligi, ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmaganligi, hamda, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilishi yoki oliy malakali ilmiy va ilmiy salohiyatli pedagog kadrlarni muntazam tizimli tayyorlanmasligi pirovardida oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelishi mumkin degan xulosaga kelindi.

Xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini yaxshilashda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta’lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3151-sonli qarori qabul qilindi[34].

2018-yil 3-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” qabul qilingan 5326-sonli farmonda respublikaning turizm salohiyatini, birinchi navbatda investitsiyalarni faol jalb qilish, sohaga innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish hisobiga rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari ishlab chiqildi[35].

[34] 2017- yil 18- iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 515-sonli qarori.
[35] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil, 3-fevraldagi 4861-sonli Farmoni.

Yurtimizga kelmoqchi bo‘lgan sayyohlar juda ko‘p, ularni qiziqtiradigan joylar haqida ma‘lumot kam, turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar yetishmaydi.

Uzoq xorijliklar uchun O‘zbekistonning darvozasi bu - aeroport. So‘nggi yillarda 5 ta yangi xususiy aviakompaniyalar tashkil etildi, Aviatsiya parkimiz 44 taga yetdi. O‘tgan yili Samarqand aeroporti “beshinchi osmon” jadvalida ishlashga o‘tgani hisobiga, haftalik aviaqatnovlar soni 46 tadan 78 taga, yo‘lovchi oqimi esa 6,5 mingdan 10 mingtaga ko‘paydi[36]. Shularni hisobga olib turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turizm sohasi rolining yanada oshib borishi, soha uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlanishi mamlakatda huquqiy-me’yoriy tizimning rivojlanish darajasi mexanizmi muammosining hal etilishiga bog‘liqdir. Chunki yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularga qo‘yiladigan talablarni nazorat qilish, boshqarish va tartibga solish, ushbu soha tashkiliy mexanizmini takomillashish imkoniyatlarini shakllanishiga olib keladi. Milliy va xorijiy ekspertlar fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda turizmni mavjud bo‘lgan tabiiy, iqtisodiy va tarixiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Samarqand, Buxoro va Xorazm turistik mintaqalarini tarixiy va madaniy turizm markazlari sifatida rivojlantirishni davom ettirish lozim. Navoiy, Kattaqo‘rg‘on, G‘ijduvon, Vobkent, Nukus, Xo‘jayli va Beruniy kabi shaharlarda turizmning moddiy-texnik bazasini yaratish loyihalari taklif qilinmoqda.

Birinchi yo‘nalishi bu respublika turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyati hisoblanadi.

Ikkinchi yo‘nalish - tarixiy arxeologik turizmning markazi bo‘lgan Samarqand, Qarshi va Termiz shaharlarida munosib bazani shakllantirish. Bu shaharlarda kurort va sog‘lomlashtirish turizmini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq. Chunki respublikaga kelayotgan

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Kun uz xabarlarining ma’lumotlari// kun uz//

turistlarning kamida 5-10 %i ushbu mintaqalarga borish istagini bildirishadi.

Uchinchi yo‘nalish - Jizzax va Farg‘ona vodiysi turistik mintaqalarini sport-sog‘lomlashtirish markazlari sifatida rivojlantirish. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, respublikaga kelgan turistlarni 15-20 %i ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha turistik sayohatlarda bo‘lishni hohlashadi. Buning uchun Farg‘ona, Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon, Jizzax va Zomin shaharlarida turizm tarmoqlari bo‘yicha infratuzilmani rivojlantirish zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish – Toshkent mintaqasining turistik salohiyatidan ishbilarmon, tijorat va ko‘ngil ochish markazi sifatida faol foydalanishdan iborat bo‘ladi. Bu yerga turistlarning 10,15 %i tashrif buyurishi kutilmoqda. Shu nuqtai-nazardan tadqiqotimiz jarayonida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mintaqa va hududiy jihatlarni hisobga olish, yuqori malakali kadrlarning yangi avlodini tayyorlash va turxizmat ko‘rsatish faoliyat tavsnifi va tipi borasida to‘xtaldik va uni tizimga keltirilgan tasvirini ishlab chiqdik.

Subyektiga ko‘ra turoperatorlar (turistik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar), turagentlar (turistik mahsulotlarni sotish vositachilari), turoperator, turagent kontragentlariga (turistik xizmat ijrochilari, mehmonxona, restoranlar, tashuvchilar va h.k.) bo‘linadi. Subyektiga ko‘ra turoperatorlar turistik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, turagentlar turistik mahsulotlarni sotish vositachilari, turoperator, turagent kontragentlariga turistik xizmat ijrochilari, mehmonxona, restoranlar, tashuvchilariga bo‘linadi.

Obyektiga ko‘ra-xalqaro turizmda faoliyat yurituvchi xodim, milliy turizmda faoliyat yurituvchi xodim, tashqi turizmda faoliyat yurituvchi xodim ichki turizmda faoliyat yurituvchi xodimlarga ajratiladi.



1.5-rasm.Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tasnifi va turlari[37]

Geografik joylashuviga ko‘ra - mahalliy (lokal) doirada faoliyat yurituvchi xodim, mintaqaviy jabhada faoliyat yurituvchi xodim, milliy turistik bozorda faoliyat yurituvchi xodim, xalqaro toifada faoliyat yurituvchi xodimlarni tarkibidan iborat bo‘ladi.

Kompetentlik darajasiga ko‘ra - turxizmat ko‘rsatish sifati zaif, turxizmat ko‘rsatish sifati o‘rta, turxizmat ko‘rsatish sifati yuqori toifalarga ajratiladi.

Raqobatning chegaralanganligiga ko‘ra - erkin turistik faoliyat yurituvchi xodim, monopol turistik faoliyat yurituvchi xodim, oligopolistik - aralash turistik faoliyat yurituvchi xodim sifatida xarakterlanadi.

Mavjud qonunlar doirasida faoliyat olib borish me’yorlaridan kelib chiqib legal-qonuniy turistik faoliyat yurituvchi xodim, qora

[37] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

iqtisodiyotda turistik faoliyat yurituvchi xodim haqida bahs yuritishimiz mumkin.

Turistik mahsulotni taklif etish ko‘lami doirasida turoperator shakllantirgan mahsulotlarini taklifi bilan shug‘ullanuvchi xodim, turli turoperatorlar yaratgan innovatsion turmahsulotlar taklifi bilan shug‘ullanuvchi xodim, keng assortimentga ega bo‘lgan taklifi bilan shug‘ullanuvchi xodim, aralash bozor taklifi bilan shug‘ullanuvchi xodim kabi tiplarga ajratish mumkin.

Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda uning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim bo‘ladi. Bu quyidagilardan iborat (1.6-rasm).



1.6-rasm. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning bilishi lozim bo‘lgan jihatlari

Ushbu 1.6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun sohaning o‘ziga xos xususiyatlariga va bilimlarga javob beradigan bo‘lishligi lozim hisoblanadi. Bulardan turli tillarni bilishni, turli millatlar bilan muomala qilishni, turistlarning ruhiy holatini inobatga oladigan bilimlarga va tajribalarga ega bo‘lishligi lozim.

Muxtasar aytganda, turizm industriyasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining o‘ziga xos

xususiyatlarini va yuqori malakali kadrlar tavsifini tadqiq etish milliy turizmda zamonaviy bilimli kadrlar tayyorlash uchun strategik ahamiyatga ega mezon hisoblanadi.

Shu jihatdan, milliy turizm sohamiz uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni va qayta tayyorlashni zaruriyatini tadqiqotimizning keyingi bandlarda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1.3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda global talablardan kelib chiqish zarurati

Jahonda yuz berayotgan globallashuv va tezkor axborot almashinuvi jarayonlarining kuchayishi mamlakatlar, kompaniyalar va korporatsiyalar o‘rtasidagi keskin raqobat muhiti sharoitida yuqori malakali kadrlarning favqulodda shu holatlarga tayyor bo‘lishlarini talab etmoqda. Vaholanki, Oliy ta’lim jahonda barqaror iqtisodiy o‘sishning yetakchi omiliga aylanmoqda. Shu tufayli keyingi yillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sur’ati jahonda saqlanib, 2030-yilga borib, oliy o‘quv yurtlari talabalarining prognoz soni 414 million kishiga yetadi[38]. Demak, zamonaviy mutaxassislarning umri davomida egallayotgan bilimlari poydevori oliy ta’lim muassasalarida yaratilayotganligi nuqtai nazaridan oliy ta’lim sifatini oshirish masalasi kompleks hal qilinishi zarur bo‘lgan muammo hisoblanadi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatimizning turistik salohiyatini yanada yuksaltirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 milliondan oshirish, xorijiy turistlar sonini esa 9 million nafarga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, turizm sohasi xizmatlar sohasi o‘sishi va aholi bandligini ta’minlashda muhim yo‘nalish ekanligi inobatga olinib, 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, bunda Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm

[38] Manba: www.unesco.org – BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari.

xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirib, turizm sohasida 40 mingta yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsad qilingan[39].

Globallashuv davrida raqobatning tobora o‘sib borayotgan muammolarini inobotga olgan holda, iqtisodiyotning maqsadga muvofiqligi va boyligi uchun innovatsiya juda muhimdir. Bu borada rivojlangan davlatlarda innovatsiya mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustunidir va uni hukumat siyosatining eng muhim masalalaridan bir sifatida qarab kelmoqda. Global innovatsion indeks (GII) davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirishning ambitsiyalarini real baholash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion rivojlanib kelayotgan davlatlarda uning poydevorida diqqat-e’tibor talab qiladigan innovatsion kamchiliklar hamda bu boradagi iqtisodiyotning eng zaif tomonlarini yaqqol ko‘rsatib berishad. Bu borada o‘tgan besh yil davomida davlatimiz rahbari boshchiligida milliy iqtisodiyotimizni jahon miqyosida raqobatdoshligini oshirish, davlat manfaatlaridan kelib chiqib, milliy imidjini xalqaro hamjamiyat oldida oshirish, mamlakatimizning o‘zaro ochiq tashqi siyosat yuritishi, mamlakatimiz obro‘sini mustahkamlashga xizmat qilishi borasida, barcha sohalarga amalga oshirilgan islohotlar singari innovatsiya va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashda iqtisodiyot tarmoq va sohalari, shuningdek, iqtisodiy subyektlar reytinglar bilan ishlash borasida normativ huquqiy bazani takomillashtirilib, bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.

O‘tgan ikki yil davomida O‘zbekistonning GIIdagi reytingining eng muhim qismi bo‘lgan ta’lim va ilm-fan yo‘nalishlari darajasini yanada oshirish bo‘yicha ham innovatsiya sohasida me’yoriy-huquqiy baza ham takomillashtirildi bunga birgina misol O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun (2019-yil O‘RQ-576-son), “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun (2020-yil O‘RQ-630son), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” (2019-yil PF-5847-son) hamda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni

[39] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-noyabrdagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 60-sonli Farmoni.

(2020-yil PF-6097-son) qabul qilinganligini ta’kidlashimiz joizdir. Xususan, O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. O‘zbekston 2021-yil holatiga ko‘ra Global innovatsiya indeksida (GII) (Global Innovation Index) 93-o‘rinni 131 ta davlatlar orasida, Biznes yuritish (Doing business) indeksida 69-o‘rinni 190 ta davlatlar orasida egalladi. Ayniqsa, mamlakatning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini va innovatsion faolligini belgilash inson kapitalini rivojlantirish bosh maqsad etib belgilandi, unda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib GII reytingi bo‘yicha jahonning 50 ta ilg‘or mamlakat qatoriga kirishiga erishishni asosiy vazifasi etib belgiladi. Umuman olganda, davlatimizni GII reytingida jahonning 50 ta ilg‘or mamlakat qatoriga kirishi quyidagilarga imkon berdi:

- yirik xorijiy kompaniyalarning investitsiyalari oqimini yanada ortishi;
- xalqaro maydonda mamlakat imidjini yuksaltirish, qonun ustuvorligi va tadbirkorlar huquqlarining to‘liq himoyasini ta’minlash;
- inson kapitalini yanada rivojlantirish, ilm-fanga e’tiborning kuchayishi;
- innovatsion ekotizimni rivojlantirish;

Mamlakatimizni strategiyasi doirasida GII reytingiga kiritilishi bilan bog‘liq vazifani sifatli amalga oshirish maqsadida o‘tgan yillarda innovatsion indeksga kiritilishi bo‘yicha zaruriy talablari, shartlar o‘rganildi to‘siq bo‘lib turgan muammolar o‘rganilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi (1.2-jadval).

Joriy yilda mamlakatimiz GII indeksining 4 ta yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z ko‘rsatkichlarni yaxshilagan bo‘lsa, 3 ta ko‘rsatkichlar bo‘yicha pasaygan, birgina inson kapitali va ilmiy tadqiqotlar faoliyati indikatorida pozitsiyasini oshirish borasida o‘tgan yillar davomida davlatimizda samarali ishlar amalga oshirildi. Davlatimizda ilm-fan sohasiga davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larni bosqichma-bosqich 2030-yilga yalpi ichki mahsulotning 2 % miqdorigacha, shu jumladan 2022-yilgacha yalpi ichki mahsulotning 0,8 % miqdorigacha

oshirish rejashatirilmoqda[40]. Bu ko‘rsatkich ayrim xorijiy davlatlardagi holat: Misrda 0,7 %, Rossiya Federatsiyasida 1,0 %, Braziliyada 1,3 %, AQShda 2,7 %, Germaniyada 2,9 %, Shvesiya va Yaponiyada 3,3 %, Janubiy Koreyada 4,8 % ni tashkil etmoqda[41].

1.2-jadval

Davlatlarning GIIdagi yillar doirasida o‘zgarishlar jadvali

Davlatlar	2021-yil (131 ta davlat)	2016-yil (141 ta davlat)	O‘sish
Shveysariya	1	1	0
Angliya	4	2	-2
Singapur	8	7	-1
Janubiy Koreya	10	14	+4
Xitoy	14	29	+15
Yaponiya	16	19	+3
Rossiya	47	48	+1
Qozog‘istan	77	82	+5
O‘zbekiston	93	122	+29
Qirg‘iziston	94	109	+15
Misr	96	100	+4
Tojikiston	109	114	+5

Davlatlarning GIIdagi 2021-2016-yillar doirasida o‘zgarishlar solishtirganda o‘tgan 6 yilda Osiyo qitasidagi Xitoy, O‘zbekiston hamda Qirg‘iziston davlatlarida yuqori o‘sish kuzatilgani, bu borada yaqin qo‘shni davlatlar misolida taqqoslansa, Rossiya Federatsiyasi 48-o‘rin, Gruziya 63-o‘rin, Belorussiya 65-o‘rin, Qozog‘iston 77-o‘rin, Qirg‘iziston 94-o‘rin, Tojikiston 109-o‘rinni egallaydi.[42]

1.3-jadval

O‘zbekistonda innovatsion-investitsion faoliyatni baholash indikatorlar[43]

[40] http://uza.uz/uz/posts/ilm-fanni
[41] Расходы на НИОКР, вык ВВП в 2018. https://knoema.ru/atlas/topics
[42] Who will finance innovation, reports GII 2020, https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2020.pdf
[43] BMT ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

№	Indikatorlar	Chegaraviy qiymat
	Jami sanoatda qayta ishlaydigan sanoatning	>70
	Mashina (uskuna) ishlab chiqarishning sanoatdagi ulushi, %	>20,0
	aholi sonida mehantga layoqatli yoshdagi shaxslar ulushi, %	>25,0
	AIMga nisbatan ilmiy tadqiqotlarga xarajatlar	>2,0
	Mashina (uskuna) ishlab chiqarishda yangi mahsulotlarning ulushi, %	>6,0
	Sanoat potensialidagi import tovarlarining	
	Innovatsiyalarni joriy etuvchi korxonalarning	>15,0
	Innovatsion mahsulotlarning sanoat mahsulotidagi ulushi, %	>25,0
	10000 aholiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, birlikda	>600 nafar
	10000 aholiga to‘g‘ri keluvchi tadqiqotchilar soni, birlikda	>120 nafar

Umuman olganda GII vakillarining tahlili bo‘yicha Osiyo qit’asida Xitoy, Hindiston, Filippin va Vetnam davlatlarida innovatsiyani rivojlantirishga qaratilgan qatiy say-xarakatlar, amalga oshirilgan islohotlar va innovatsiya geografiyasida yangi o‘zgarishlarni namoyish etmoqda hamda GII reytingida yuqori darajada har yil ko‘tarilishi orqali samarasini berayotgan eng yaxshi 50 ta mamlakatlar qatoriga kirdi[44].

Shu bilan bir qatorda mamlakatning quyidagi 13 ta indikatorlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarining past ekanligi kuzatilib, ular normativ sifat, qonun ustuvorligi, QS reyting bo‘yicha universitetlarning top uch ligi uchun o‘rtacha baho, AKT xizmatlari importi, AKT xizmatlari eksporti, xorijda moliyalashtiriladigan tadqiqot va ishlanmalarning yalpi

[44] Who will finance innovation, reports GII 2020, https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2020.pdf

xarajatlari singari ko‘rsatgichlar ham o‘z navbatida, O‘zbekistonning GIIda o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lib, ular yuzasidan mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan tegishli chora- tadbirlar amalga oshirilishi, GII talablaridan kelib chiqib, ma’lumotlar taqdim etish talab etilmoqda. Indeks tuzuvchilari tomonidan O‘zbekistonning o‘rni o‘tgan yillarga nisbatan ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan quyidagilar keltirilgan kuchli ko‘rsatgichlari ham aks ettirilgan. Bularga biznes yaratishning oddiyligi, ilm-fan va texnika sohasida bitiruvchilar, kapitalni yalpi ta’rizda to‘plash hamda har bir odam hisobiga YaIMning o‘sish sur’atlari ko‘rsatgichlarida davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va uning natijasini aks etishidir. Ushbu 1.3-jadval ma’lumotlarini tahlil etganimizda ikkita muammoga duch kelishimiz mumkun.

O‘zbekistonda innovatsion-investitsion faoliyatni baholash indikatori, ya’ni BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) talabiga ko‘ra chegaraviy qiymat 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, birlikda > 600 nafarni tashkil qilish kerak. Bizning tahlillarimizga ko‘ra hozirgi kunda O‘zbekistonda chegaraviy qiymat 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, birlikda > 300 nafarni tashkil qiladi ya’ni belgilangan chegaraviy qiymatdan 2 barobar kam; turizm sohasida esa boryo‘g‘i 3 nafarni tashkil qiladi; Shuningdek, 2022-2023 o‘quv yilida turizm sohasi uchun respublikaning 28 ta oliy o‘quv yurtlarida sohaga tegishli bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlarida, jami 10410 nafar talaba ta’lim olmoqda. (10410 : 808400) x 100 = 1,3 foizdan iborat O‘zbekistonda umumiy talabalar sonini 1,3 % ini turizm sohasida ta’lim olayotgan talabalar tashkil qiladi[45].

Yuqorida ta’kid etilgan tadqiqot natijalari turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozimligidan dalolat beradi:

1. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni turindustriya talablaridan kelib chiqib tashkil etish;

2. Global innovatsion indeks;

[45]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 15-июндаги ПҚ-279-сонли “Давлат олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш жараёнларини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори маълумотлари асосида тайёрланди.

3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mehnat bozori va turizm tarmog‘i korxonalarini boshqarishni takomillashtirish, ularda innovatsion ishlanmalarni joriy qilish, xizmatlar sifatini va samaradorlikni oshirish uchun hududiy klaster modulini qo‘llash strategiyasini ishlab chiqish. Bunday model yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlangan firmalarning raqobatbardoshligini oshirish va xizmatlarni diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratadi.

Jahon amaliyotida ta’lim xizmatlari bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan oliy ta’lim muassasalarining mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishini samarali boshqarishda ko‘plab muammolarning ilmiy hal etilishini ta’minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etilgan.

O‘zbekistonda turizm yo‘nalishi uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim tizimini boshqarishni jadal rivojlantirishga yuqori darajada e’tibor qaratib kelinmoqda.

Yuqoridagi paragrafda ta’kidlab o‘tganimizdek, xususan, Taraqqiyot strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish”[46] bo‘yicha zaruriy vazifalar hal etish qayd etilgan. Hozirgi kunda turizm ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyotini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim sohalardan biriga aylandi. Turizmning asosiy afzalligi daromadlarni ko‘paytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda katta samara beradi. Ko‘pgina mintaqalar va mamlakatlar uchun bu eng muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sohani jadal rivojlantirishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi.

[46]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами. 2017-йил. 6-сон.

O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasida albatta sayohat qilish lozim bo‘lgan 20 ta davlatdan birinchi o‘rinni egallagan, jozibadorligi tufayli mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar soni yildan-yilga oshib borayotgan bir davrda ularga xizmat ko‘rsatuvchi yuqori malakali kadrlar va sohaning kichik mutaxassislari oliy va o‘rta-maxsus ma’lumotga ega bo‘libgina qolmasdan, bilimli, mehnatsevar, tashabbuskor, ma’naviyatli, xushmuomala, mas’uliyatli, bir so‘z bilan aytganda, raqobatbardosh yuqori malakali kadr bo‘lishi lozim.

Biz tadqiqotimiz davomida asosiy e’tiborni turizm sohasini rivojlantirishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ahamiyati va zaruriyatini mantiqiy dalillar asosida isbotlab berishga qaratdik. Bular quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi;

Birinchidan, jahon amaliyoti shundan dalolat beradiki, hozirgi zamonda mehnat resurslarining sifati, “inson kapitali”ning salohiyati milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi. Mamalakat milliy iqtisodiyotining asosiy qismi ishchi kuchi resurslari ulushiga to‘g‘ri keladi.

Demak, ishchi kuchiga investitsiyalarni ustun darajada yo‘naltirish milliy iqtisodiyotni o‘stirish, barqaror rivojlanishning asosiy sharti bo‘lib xizmat qiladi. Past sifatli bilim, yuqori malakali xodimlar kasbiy tayyorgarligining zamonaviy yuqori texnologiya talablari darajasida bo‘lmasligi, barqaror taraqqiyot yo‘lida asosiy to‘siq bo‘lishi muqarrar. O‘zbekistonning mehnat salohiyati ulkan. Aholi soni bo‘yicha u dunyo mamlakatlari o‘rtasida 43-chi o‘rinni,[47] MDH davlatlari o‘rtasida esa 3-chi o‘rinni egallaydi[48]. Ulkan mehnat salohiyati mavjud bo‘lgan O‘zbekiston uchun aynan inson kapitali barqaror iqtisodiy o‘sishi alohida aholi hayot farovonligini yuksaltirishning bosh omili hisoblanadi. Shuni ta’kidlalash joizki, bugungi kunda raqobat kuchli bo‘lgan sharoitda, iqtisodiyotimizning barcha sohalarini, jumladan, turizm sohasini ham yuqori malakali kadrlarsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Biroq, ko‘pgina korxonalar amalda yuqori malakali kadrlarni muammosini birdan bir tekis hal etishga

[47] https://nonews.co/directory/lists/countries/population
[48] https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/people.htm

tayyor emas. Chunki, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun xarajatlari yuqori darajada risk bilan bog‘liq. Ammo korxonalar o‘z faoliyatini olib borish jarayonida riskni batamom yo‘qota olmaydi, lekin yaxshi malakaga ega bo‘lgan, tajribali rahbar risk darajasini pasaytirish imkonini topadi.

Ikkinchidan, turizm sohasiga katta miqdordagi iqtisodiy resurslar jalb etilgan va ulardan asosan samarali foydalanish, sohani tez sur’atlar va barqaror rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. 1992-yilda Rio-de-Janeyro Konferensiyasida qabul qilingan taklifga muvofiq, tabiat resurslarning batamom tugatilib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, kelgusi avlodlar uchun ham imkoniyat qoldirgan holda erishilgan rivojlanish barqaror rivojlanish deb aytiladi.

Demak, barqaror rivojlanishning asosiy g‘oyasi qimmat baho, nodir va noyob resurslardan unumli, ya’ni o‘ta tejamkorlik bilan foydalanishga erishishdan iborat. Chunki iqtisodiy resurslarning ayrim turlari qayta tiklanmaydi va ulardan asrab-avvaylab foydalanish o‘tkir zaruratga aylanadi. Bizning nazarimizda, barqaror rivojlanish g‘oyasining negizida iqtisodiyotning bosh muammosi yotibdi. Yer kurrasi aholisining tobora o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish resurslar tanqisligiga duch kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, barqaror rivojlanish konsepsiyasining turizm sohasiga tadbiq etish lozimligiga e’tibor qaratdik. Turizm xizmatlariga talabning tez sur’atlar bilan o‘sib borishi sohaga jalb etiladigan iqtisodiy resurslarning ham mos ravishda o‘sib borishini taqozo etadi. Bu esa tarmoqqa jalb etilgan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va uning qamrovi muammosining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Uchinchidan, globallashuv jarayonlari jadallashuvining bevosita ta’siri ostida turizm bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi va innovatsion taraqqiyotlarni turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanganligi. Turizm sohasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - uning yuqori daromadligidir. O‘ylaymizki, aynan uning yuqori daromadliligi va yuqori ijtimoiy samara berish qobiliyati barcha

mamlakatlarni uni jadal rivojlantirishga, sohada mujassamlashgan ijobiy jihatlaridan foydalanishga qiziqishini kuchaytirmoqda. Natijada yangi turistik obyektlar ishga tushirilmoqda (masalan, Toshkent siti, Samarqand siti), yangi turistik mahsulotlar yaratilmoqda. Yangi korxona va tashkilotlar tashkil etilmoqda. Yuqori malakali kadrlar jalb etilmoqda. Raqobat kurashida o‘z mavqeini mustahkamlashning boshqa innovatsion vositalari yaratilmoqda. Yuqori malakali kadrlarning tayyorlanishni, amaliyotga kirib borishi turistik xizmatlar bozorida turoperatorlar va turagentlar mavqeini mustahkamlashning va raqobatbardoshligini oshirishning birinchi darajali vositasi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda turizmni taraqqiyotning innovatsion yo‘liga o‘tkazish zarurati mamlakatning ushbu tarmog‘ida rivojlanish sur’atlarining sustligi, turistik salohiyatdan foydalanish ko‘rsatkichlarining pastligi, jahon turistik bozoridagi mavqeining zaifligi, xalqaro taqqoslama va tenglashtirishlarda bardosh bera olmayotganligi bilan izohlanadi. Yurtimizda turizm sohasida bunday holatning yuzaga kelishining sabablari quyidagilardan iborat: soliq va budjet siyosatining beqarorligi, turizm sohasini tartibga solishdagi huquqiy-me’yoriy bazaning nomukammalligi, turistik xizmatlar sifatining talabga javob bermayotganligi, narx siyosatining samarasizligi, turistik infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi, investitsion resurslarning tanqisligi, yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanmaganligi va boshqalar.

Beshinchidan, yuqori malakali kadrlarni jahon standartlari asosida tayyorlash turistik korxona va tashkilotlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Alohida olingan turistik korxonada tashkiliy muammolar (masalan, mehnatni ilmiy tashkil qilish, innovatsion menejment) jismoniy mehnatni yengillashtirishga, ishchi-xodimlar mehnat sharoitini yaxshilashga, qo‘l mehnatining jami mehnat sarflaridagi ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Turistik korxona yoki tashkilotda yuqori malakali kadrlarni amaliyotga kirib kelishi ishchi va kadrlar malakasini oshirish, mehnat unumdorligini o‘stirish, ish haqi daromadlarini ko‘paytirish, resurslarni tejash asosida korxona yalpi daromadlari va foydasini ko‘paytirish imkonini beradi.

Oltinchidan, Turistlar uchun ichki reyslar taqchilligi Nukus, Urganch, Samarqand, Buxoro va Termizga qatnaydigan temiryo‘l qatnoviga vogonlar yetishmasligi. Qoraqalpog`iston, Jizzax, Namangan va Surxondaryoda sayyohlarga avtobus yetishmasligi sayyohlarga noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu muommolarni hal qilishda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarning roli muhim hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, turizimda muhim omillardan biri yuqori malakali kadr, mehmonxonalar va undagi o‘rinlar hisoblanadi. Bu borada keng imkoniyat yaratilganligi hisobiga mehmonxona o‘rinlarini ikki baravar oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqoza qiladi. Tadqiqotlarimiz davomida ko‘p imkoniyatlardan yaxshi, unumli foydalanilmayotganligining sabablaridan biri turizm sohasida yuqori malakali kadr yetishmasligi.

Yittinchidan, Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1990-yilda yoshlar turizmni, umumiy turizm bozorining 15 % ini, 2010-yilda 20 % ini va 2016-yilda 23 % ini tashkil etganligi o‘z navbatida yoshlarning turizmda katta kuch ekanliklaridan dalolat beradi. Shuningdek, Butunjahon Turizm Tashkilotining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil boshiga kelib xorijiy turistlar tarkibida yoshlar sonining 350 million kishidan ortganini ko‘rishimiz mumkin va shunga mos ravishda turizm sohasiga va sayyohatga qiziqish yurtimizda ham yoshlar sonining ortganini tadqiqotimizni keying bandlarida ko‘risimiz mumkin.



1.7-rasm. Jahon xalqaro yoshlar turizmining rivojlanish tendensiyasi [49]

1.7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning dunyo bo‘ylab qilayotgan sayohatlari soni yildan-yilga yuksalib bormoqda. Bu esa yoshlarning dunyoni o‘rganishga, yangidan-yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarining ortib borayotganligidan dalolat beradi.

I Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha va ularning nazariy masalalarini tadqiq qilib bir qancha ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Turizm sohasida dolzarb vazifalarni hal etish bir nechta omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Tadqiqotlarimiz davomida olib borgan nazariy izlanishlarimiz omillardan biri turistik resurslar markazidan joy

[49] Global Report on The Power of Youth Travel. Affiliate members report. Volume thirteen. Page 10., 2021y.

olgan “ishchi kuchi”, “turistik xodim”, “turoperator”, “gid” pirovardida “yuqori malakali kadrlar” ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun “turizm sohasida yuqori malakali kadrlar” tushunchasining tub mohiyatini aks ettirish maqsadida unga atroflicha ta’rif berish, “turoperator” yoki “gid”ning turistik xizmatlar sifatini baholash zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu esa turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning turizm iqtisodiyotida tutgan o‘rni, turistik xodimlarning bandligi, daromadlari va boshqa muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholashda “yuqori malakali kadrlar” to‘g‘risida nazariy bilimlarning mavjudligini taqozo etadi.

2. Jahon amaliyoti shundan dalolat beradiki, bugungi kunda jahon turizm bozorida raqobat kuchli sharoitda, iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, turizm sohasini ham yuqori malakali kadrlarsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. O‘zbekiston sharoitida ko‘pgina turistik korxonalar amalda yuqori malakali kadrlarni muammosini birdan bir-tekis hal etishga tayyor emasligi haqida tahlillar dalolat bermoqda. Chunki, yuqori malakali kadrlar tayyorlash xarajatlari yuqori darajadaga tavakkalchilik bilan bog‘liq. Ammo korxonalar o‘z faoliyatini olib borish jarayonida tavakkalchilikni batamom yo‘qota olmaydi, lekin yaxshi malakaga ega bo‘lgan, tajribali menejer tavakkalchilik darajasini pasaytirish imkonini topishi mumkin degan xulosani beradi.

3. Milliy turizm sohamizda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning me’yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi shakllantirilgan. Ammo mavjud huquqiy institutsional tizim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jihatidan zamonaviy turindustriya talablari darajasiga javob bermaydi. Shu nuqtai-nazardan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasiga ko‘ra 2030-yilga borib mamlakatimizda turizm sohasini yanada jadal rivojlantirish zaruriyatidan kelib chiqib, samarali ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyatiga erishish maqsadida xususan, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosini hal etishga qaratilgan huquqiy-me’yoriy tamoyillar ishlab chiqilishi lozim.

4. Tadqiqotlar turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini hal etishda ta’lim asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanib, turizmni kadrlar bilan bog‘liq muhim muammolarini hal etishda u asosiy omil ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur omil orqali respublika hududlarida turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda OTMlar, fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi tafovutni qisqartirish, ta’limdan keng ommaning foydalanishini qulaylashtirish, natijada raqobatlashish doirasini kengaytirish imkoniyatlari oshirish hamda, mamlakatimizda turizm tarmog‘i uchun kadrlarni tayyorlashdagi ijobiy siljishlarga qaramay, ushbu sohada yuqori malakali kadrlarga nisbatan kuzatilayotgan yetishmovchilikni bartaraf etish mexanizmlari shakllanadi.

II BOB. TURIZM INDUSTRIYSI UCHUN YUQORI MALAKALI RAQOBAT BARDOSH KADRLAR TAYYORLASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI

2.1. O‘zbekistonda turizm industriyasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holati

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'kid etilganidek "Turizm iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga yetkazishdan iborat"[50]. Xorij tajribasi borasida tadqiqotlarimizning natijalari iqtisodiy o‘sishda turizmning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda YaIMda turizmning ulushi 3,4 % atrofida.

Yirik turistik sektoriga ega bo‘lgan rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10 % gacha, orol davlatlari va unchalik rivojlanmagan mamlakatlarda ushbu ulush 30 dan 50 % gachani tashkil etadi. Jahonda tovar va xizmatlar eksporti hajmining 8 % ni turizm hissasiga to‘g‘ri keladi.[51] Shu tufayli u avtomobil, kimyo mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kompyuterlar va yoqilg‘i eksportlaridan oldinda turib, yirik eksport tarmog‘iga aylandi. Jahon Sayyohlik Tashkilotiga a'zo 83 ta mamlakatlarda turizm yetakchi eksport sohalarining beshtaligiga kiradi, 38 foiz mamlakatlarda esa u chet el valyutasi tushumlarining asosiy manbai hisoblanadi[52]. Buning ustiga turizm daromadning muhim qismi hisoblanuvchi mamlakatlarda u aholini ish bilan ta'minlash va bandligining asosiy sohasiga aylangan. Masalan, Seyshel orollarida turbiznesda aholining 66,7 % band, Grenadada 52,2 %, Bogamada 48,2 %, Islandiyada 33,3 foiz, Kiprda 22 %, Tailandda 15 % ni tashkil etadi[53].

[50] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti,2021.- 174 b.

[51]Xalqaro savdo tashkiloti ma'lumotlari. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/statis_e.htm.

[52] Xalqaro savdo tashkiloti ma'lumotlari. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/statis_e.htm.

[53]https://knoema.ru/atlas/topics.

Jahon Sayyohlik Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, uchinchi ming yillikda kam vaqt davomida eng ko‘p qoniqishni ta’minlovchi sayyohlik mahsulotlariga talab yuqori bo‘ladi. Aynan mamlakatimizda ham qadimiy tarixiy me’morchilik yodgorliklari, xalq og‘zaki ijodiyoti yodgorliklari, qo‘riqxonalar, tog‘ va suv turizmi va boshqalardan iborat bo‘lgan turizmni rivojlantirish uchun barcha zaruriy resurslar mavjuddir.

Butun dunyoda turistik industriyasi uchun kadrlarni tayyorlash masalasiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Xalqaro Turizm Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 90-yillarda Yevropada 105 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari, 139 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti hisobga olingan, AQShda tegishli ravishda 6 va 17 ta, Osiyo va Tinch okean hududlarida 13 va 35 ta. Rossiyada, masalan, bugungi kunda 70 dan ortiq yirik davlat va xususiy ta’lim muassasalari iqtisodiyotning turizm yo‘nalishi uchun malakali kadrlar tayyorlab kelmoqda[54].

O‘zbekiston Respublikasida hozirda, 2023-yilning boshida 209 ta oliy ta’lim muassasi bo‘lsa, ularda bir miliondan ortiq talabalar tehsil olayaydi. Ilgari bor yo‘g‘i 250 ming talaba bo‘lgan bo‘lsa 2022-yilning o‘zida 35 ta oliy ta’lim muassasiga moliyaviy mustaqillik berildi. 2017-yilda respublikamizda 77 ta oliy ta’lim muassasi bo‘lgan va bular orasida deyarli nodavlat oliy ta’lim muassasi bo‘lmagan. 209 ta oliy ta’lim muassasidan 114 tasi davlat oliy ta’lim muassalari bo‘lsa, 65 tasi nodavlat va qolgan 30 tasi xorijiy oliy ta’lim muassalar filiallarini tashkil etadi[55].

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilganimizda, 2017-yilga nisbatan, 2023-yilda 132 ta oliy ta’lim muassasi ko‘payganini yoki 2,7 % ga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatli o‘rnini anglagan holda, ushbu tarmoqni yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor berildi.

[54]XTTning internet saytidagi materiallar asosida tayyorlandi.
[55]XTTning internet saytidagi materiallar asosida tayyorlandi.

Turizm sohasidagi katta o‘zgarishlar va islohotlar, o‘z navbatida, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan ahamiyatlidir. Mamlakatimizda bu borada ham islohotlar olib borilmoqda. Hozirda turizm sohasi uchun respublikaning 2022-2023 o‘quv yilida, 28 ta oliy o‘quv yurtlarida turizm sohaga tegishli bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlarida, jami 10410 nafar talaba ta’lim olmoqda[56].

2.1-jadval

O‘zbekistonda turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning asosiy ko‘rsatkichlari[57]

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	2018/ 2019	2019 /2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	O‘zgarish (+:-)
1	OTMlar soni	11	15	26	27	28	+17
2	Talabalar soni	1628	2799	6007	10324	10410	+8782
3	10000 Aholiga to‘g‘ri keladigan turizm sohasidagi talabalar soni	0,24	0,41	0,73	0,9	1	+0,76

2.1-jadval ma’lumotlarining tahlili O‘zbekistonda turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida OTM lar soni ko‘payganligi, talabalar soni keyingi besh yillikda 8782 nafarga oshganligini ko‘rsatdi. Ammo 10000 aholiga turizm sohasida to‘g‘ri keluvchi talabalar soni jihatidan ko‘rsatkich sezilarli darajada oshayotganligini dalolat berdi. Ushbu holat hali O‘zbekistonda turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash talab darajasida emas ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bir qator yangi turizm

[56] O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
[57] O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

yo‘nalishlari borasida o‘zining salbiy jihatlarni namoyon qilmoda ya’ni yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashda “kadrlar defitsitini” keltirib chiqaradi.

Tadqiqotimiz davomida O‘zbekistonda turizmni bir qator yangi yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadarlar tayyorlash zaruriyati mavjud degan xulosaga keldik.

Turizm sohasidagi katta o‘zgarishlar va islohotlar, o‘z navbatida, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan ahamiyatlidir. Mamlakatimizda bu borada ham islohotlar olib borilmoqda. 2022-2023 o‘quv yillarida turizm sohasi uchun respublikaning 28 ta, oliy o‘quv yurtlarida sohaga tegishli bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlarida jami 10410 nafar talaba ta’lim olmoqda, yoki 2018-2019 o‘quv yillariga nisbatan 8782 nafarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tasarrufiga o‘tkazilgan Toshkent, Samarqand hududlaridagi 10 ta kollej va 3 ta texnikumga 2020-2021 o‘quv yilida davlat granti asosida 3340 nafar o‘quvchilar qabul qilindi.

Samarqand shahridagi “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti binosi to‘liq ta’mirlanib, 2020-yil 16-oktabr kuni universitetning yangilangan binosining ochilish marosimi o‘tkazildi. “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universitetida ta’lim to‘liq ingliz tilida darslarni olib borish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu universitetda “Menejment: mehmonxonalarni boshqarish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Xitoyning Guilin turizm universiteti (Guilin Tourism University, China), Menejment: turizm biznesini dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Xalqaro darajadagi “Uzbekistan Travel” turizm ilmiy jurnali chop etila boshlandi.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash modul tizimining bozor islohotlari talablariga va demokratik yangilanishlarga endigina moslashayotganligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi to‘ldirilayotganligi, OTMlarda yuksak ilmiy salohiyatli professor-o‘qituvchilarning va o‘quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallardan foydalanish, OTMlar va zamonaviy kadrlarga ehtiyoji bo‘lgan korxonalar o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish, korxona va tashkilotlarning oliy ta’lim muassasalari qabul rejasini

shakllantirish uchun bergan buyurtmalarining bitiruvchilarga bo‘lgan ehtiyojlariga muvofiqligi, oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni maqsadli tayyorlash, kadrlar bilimi va ular tayyorgarligini sifatli nazorat qilish, ular mehnatidan unumli foydalanishga e’tiborni susaytirib yubormaslik.

Turizm sohasida ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida turizm sohasiga kadrlar tayyorlashning doktorantura bo‘yicha qabul jarayonlari amalga oshirildi. Har qanday iqtisodiy islohotlarning zamirida ta’lim va aynan kadrlar tayyorlash tizmiining o‘rni kattadir.

Tadqiqotimiz davomida yuqori malakali ta’lim xizmatlari bozorini undagi talab va taklifni o‘sishi ko‘proq oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilarning tarkibi va ilmiy darajasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar soni va salohiyati ulishiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan biz turizm sohasida yuqori malakali kadirlar tayorlashda, 2020-2021 yillarda turizm yunalishida ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor o‘qituvchilar sonini quyidagicha aks ettirdik (2.1-rasm).



2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarida 2020-2021 o‘quv yilida turizm sohasiga oid fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari olib boruvchi professor-o‘qituvchilar to‘g‘risida ma’lumot[58]

Xususan, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash jarayonlari ham mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi sifatida amalga oshirilib kelinmoqda.

Yuqorida aytilganidek, hozirgi kunda 28 ta oliy ta’lim muassasalarida turizm sohasi uchun bakalavr va magistratura bosqichlarida kadrlar tayyorlanib kelinmoqda. Bu holatlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki (2.1-rasm), turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlanayotgan oliy ta’lim muassasalarida hozirgi kunda 187 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Shundan, 11 nafar (6%) fan doktorlari,13 nafari (7%) PhD va 33 nafar fan nomzodlaridir. Bularning 22 nafari xorijiy oliy ta’lim muassasalarini bitirgan professor-o‘qituvchilar va 57 nafari (30.5%) ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilardir. Ayni vaqtda, ularning 15 nafari (8%) soha bo‘yicha ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilardir.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan oliy o‘quv yurtlari mamlakatimizda turizm sohasi rivojlanishining ilmiy asosini yaratdi.

Mamlakatimizda turizm tarmog‘i uchun kadrlarni tayyorlashdagi ijobiy siljishlarga qaramay, ushbu sohada yuqori malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda, mutaxassislarning baholashlaricha, turistik tashkilotlarning ko‘pgina xodimlari turizmga oid tayanch ma’lumotga ega emas. O‘tkazilgan tadqiqotlarimizga asosan, turistik tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlarning 70-80 % gumanitar yo‘nalishdagi ixtisoslikka ega.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish borasidagi navbatdagi muhim vazifalardan biri-turizm

[58] O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi 2020-2021 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

sohasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi.

Turizm sohasini samarali rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sohaning har bir ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiq etishni nazarda tutadi. Bugungi kunda turistik faoliyatda Internet va boshqa zamonaviy interfaol multmediya plotformalarining ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli milliy turizm bozorida faoliyat yurituvchi har bir turistik tashkilot samarali rivojlanishining ushbu dastaklaridan foydalanishi turistlar uchun o‘sib borayotgan jozibadorlik zarurati hisoblanadi.

Zamonaviy turistik ofisda samarali biznes yuritishninng asosiy talabi - global tarmoqqa chiqish hamda dasturiy tarmoqlar resurslaridan va apparatlarning turli xillaridan keng foydalanish imkoniyatlariga ega lokal yoki korporativ tizimga ulangan zamonaviy kompyuterlarning bo‘lishidir. Bugungi kunda mavjud axborotlarning online texnologiyalari turistik tashkilotlarga tezlikda axborot yig‘ish, qayta ishlash, tahrir qilish va tahlil qilish orqali o‘z vaqtida to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish imkonini yaratib, uning raqobatbardoshligini oshiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, Internet boshqa turistik mahsulot iste’molchilarini on-line rejimida harakat qilishga o‘rgatdi hamda ularga o‘zlarining qiziqtirgan har qanday axborotlarini tezlik bilan olish imkoniyatlarini yaratdi. Axborotlar asrida iste’molchilarni endi axborot so‘rab, uni olishni kutib o‘tirish tizimi qoniqtirmaydi. Ular zudlik bilan javob olish va internet bunga imkon berishiga ko‘nikib oldilar. Bu esa milliy turizm bozorida online rejimida turistik xizmatlari tijoratini tashkil etish borasidagi tizimli yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Monografiya ishimizda turizmda yuqori malakali kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talab bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish kabi masalaning muhim jihatiga e’tibor qaratdik. Shu maqsaddan kelib chiqib respublikamizni 28 ta oliy ta’lim muassasalaridan, 5 ta OTMlar ma’lumotlari asosida 2017-2021 o‘quv yillari kesimida turizm sohasiga

oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari kesimida talabalar sonini hamda boshqa ko‘rsatkichini tahlil qildik.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan kelib chiqqan holda, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida 2017-2021-o‘quv yillari kesimida turizm sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari kesimida tahsil olgan talabalar soni ko‘rsatkichini tahlilidan kelib chiqadigan bo‘lsak, masalan, Samarqand iqtisodiyot va servis institutida 2017-2021 yillar davomida bakalavr ko‘rsatkichining soni yildan-yilga kamayib borish tendensiyasiga egaligni ko‘rishimiz mumkin.

2.2-jadval

O‘zbekistonni OTMlarida 2017-2021yillarda turizm sohasi mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorlangan kadrlar soni ko‘rsatkichlari[59]

№	Turizm sohasida yuqori malakali kadr tayyorlovchi OTMlar	O‘quv yillari						2021-yilda 2017-yilga nisbatan talabalar sonining o‘zgarishi	
		Daraja toifasi	2017	2018	2019	2020	2021	O‘zgarishi (+;-)	O‘sishi %
1	SamISI	bakalavr	160	119	147	138	139	-21	86
		magistr	14	15	18	16	13	-1	93
2	Ipak Yo‘li	bakalavr	-	-	-	137	149	+12	108
		magistr	-	-	-	-	108	X	X
3	TDIU	bakalavr	196	190	90	287	442	155	255
		magistr	7	37	28	14	19	5	271
4	QarDU	bakalavr	20	20	40	40	60	+40	300
		magistr	-	-	-	3	7	+4	233
5	BuxDU	bakalavr	245	332	394	485	586	+241	239
		magistr	9	7	6	7	12	+3	133

[59] O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Magistraturada esa 2017-yildan 2019-yilga qadar o‘sib borish tendensiyasini namoyon qilgan bo‘lsa, 2020-2021 yillar oralig‘ida kamayib borish ko‘rsatkichi bilan yakunlanmoqda. Uch yil davomida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Samarqand “Ipak yo‘li” TXUda 2019 - o‘quv yilida bakalavriat 137 nafar dan iborat bo‘lsa, 2020-o‘quv yiliga kelib esa bu ko‘rsatkich 439 nafarni tashkil etgan yoki 3,2 baravarga ortgan.

2.3-jadval

BuxDU turizm sohasida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida yuqori malakali kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichlari[60]

№	Turizm sohasida yuqori malakali kadr tayyorlovchi yo‘nalishlar	O‘quv yillari						2021-yilda 2017- yilga nisbatan talabalar sonining o‘zgarishi (+;-)
		Daraja toifasi	2017	2018	2019	2020	2021	
1	Turizm (ichki va xalqaro turizm);	bakalavr	78	81	145	198	223	+145
2	Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish	bakalavr	152	176	201	245	296	+144
3	Xizmatlar sohasi (faoliyat turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha)	bakalavr	102	137	139	143	155	+53
4	Jami talabalar soni	bakalavr	332	394	485	586	674	+342

[60] BuxDU ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Magistratura bo‘limida ham 2019-2021-o‘quv yillarida, atigi uch yil davomida talabalar soni ko‘rsatkichi 41 nafarni tashkil etgan. QarDU misolida esa bakalavr talabalar soni 2018-yilda 20 nafarni, 2019-yilda 40 nafarni, 2021-yilga kelib esa 60 nafarni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. QarDUda yildan-yilga biz tahlil etayotgan ko‘rsatkichlar o‘sib borganini ko‘rishimiz mumkun. Magistratura bo‘limida ham so‘nggi ikki yil davomida jiddiy o‘zgarish ro‘y bergan, ya’ni 2020-yilda 3 nafar magistr tahsil olgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib magistrlar soni 7 nafarni tashkil etgan. BuxDUda tahsil olgan bakalavr talabalar soni 2017-yilda 45 nafarni, 2018-yilda 332 nafarni, 2019-yilda 394 nafarni, 2020-yilda 485 nafarni, 2021-yilda 586 nafarni tashkil etgan ya’ni o‘sib borgan. 2017-2021 yillar oralig‘ida 2,3 baravarga ortgan. Magistratura bo‘limida tahsil olgan talabalar soni keyingi besh yil davomida 33% ga ko‘paygan.

Tadqiqotimiz davomida amalga oshirgan tahlillarimiz BuxDUda tahsil olgan bakalavr va magistr talabalar soni respublikamizning boshqa oliy ta’lim muassasalariga nisbatan ko‘p va salmoqli degan xulosani berdi. Shu boisdan tadqiqotimiz obyektlaridan biri BuxDU oliy ta’lim muassasalarida turizm sohasida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida kadrlar tayyorlanishi ko‘rsatkichlarini o‘rgandik.

BuxDUida turizm sohasida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida kadrlar tayyorlanishning ma’lumotlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, 2017-yilda turizm (ichki va xalqaro turizm) yo‘nalishi bo‘yicha 78 nafar bakalavr tahsil olgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yildan-yilga o‘sib borib 2021-yilda 223 nafarga yetgan ya’ni 145 nafarga ko‘payib, 2,8 marotaba ortgan yoki BuxDU bo‘yicha barcha talabalar sonini 33,1% ni tashkil etgan. Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida esa ushbu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib 296 nafar bakalavr talabani tashkil etib, BuxDU bo‘yicha barcha talabalar sonini 43,9 % dan iborat bo‘lgan. Xizmatlar sohasi (faoliyat

turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha) yo‘nalishida 2021-yilda 155 nafar bakalavr tahsil olgan. Magistratura turizm faoliyat turlari bo‘yicha (2.4-jadval) da ko‘rishimiz mumkin.

2.4-jadval

BuxDU turizm sohasida magistratura mutaxasisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichlari[61]

№	Turizm sohasida yuqori malakali kadr tayyorlovchi yo‘nalishlar	O‘quv yillari						2021 yilda 2017 yilga nisbatan talabalar sonini o‘zgarishi (foizda)
		Daraja toifasi	2017	2018	2019	2020	2021	
1	Turizm (ichki va xalqaro turizm);	magistr	7	6	7	12	33	471
2	Jami talabalar soni	magistr	7	6	7	12	33	471

Magistratura turizm (faoliyat turlari bo‘yicha) 2017-yildan, 2021-yilga qadar 33 nafar magistr talaba sonini tashkil etgan bo‘lib bu ko‘rsatkich 26 nafarga ko‘paygan. Yuqorida keltirgan ma’lumotlar tahlil dalili birgina BuxDU misolida turizm sohasida yuqori malakali kadr bo‘lib yetishishga bo‘lgan talab yildan-yilga o‘sib borganligini ko‘rsatadi. Muammoga yosh jihatdan yondoshsak bunday holat yoshlarimiz o‘rtasida faolligi ko‘zga tashlanadi 2018-2019 o‘quv yilida Xalqaro turizm fakultetiga 24 nafar qo‘shimcha shartnoma talaba qabul qilingan bo‘lsa, 2020-2021 o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 182 tani tashkil etib, jami 12,3 mlrd. so‘m mablag‘ universitet g‘aznasiga tushirilgan (2.5-jadval).

Yuqoridagi 2.5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga hujjat topshirgan abiturientlar ko‘proq

[61] BuxDU ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Xalkaro turizmni tanlashgan, ularga ushbu yo‘nalish imiji jozibador ko‘ringan. Bu esa, o‘z navbatida, fakultet brendini shakllantirishga xizmat qiladi va aynan shu ko‘rsatkichlarni brend samaradorligi sifatida qarash mumkin.

2.5-jadval

2019-2021 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga qo‘shimcha shartnoma asosida qabul qilingan talabalar soni va shartnoma so‘mmasi to‘g‘risida ma’lumot[62]

№	Fakultet-lar	2019-yil		2020-yil		2021-yil		Uch yil davomi-da umu-miy so‘mma, mln so‘m.
		Qo‘shim-cha shartno ma asosida qabul qilingan talabala r soni, nafar	Qo‘shim-cha shartno-ma asosida amalga oshirilgan to‘lov so‘mmasi, mln so‘m.	Qo‘shim-cha shartno ma asosida qabul qilingan talabala r soni, nafar	Qo‘shim-cha shartnom a asosida amalga oshirilgan to‘lov so‘mmasi mln so‘m.	Qo‘shim cha shartno-ma asosida qabul qilingan talabalar soni, nafar	Qo‘shim-cha shartnom a asosida amalga oshirilgan to‘lov so‘mmasi, mln so‘m.	
1	Iqtisodiy ot	9	127,1	20	962,9	70	8610,3	10844,9
2	Xalqaro turizm	24	3385,0	27	1389,7	182	12336,4	15966,4
3	Korporati v boshqaru v	8	187,1	25	2242,9	72	8146,7	10576,7
4	Moliya va buxgalter iya hisobi	0	0	8	339,5	62	5864,5	6204,0
5	Raqamli iqtisodiyo t	16	1247,3	77	6316,3	38	2498,7	10062,6
6	Sirtqi bo‘lim	0	0	69	1500,2	3	799,9	2300
	Jami	57	4946,5	226	12751,7	427	38256,5	55954,8

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqobat muhitini rivojlantirishning moddiy-texnik asoslari so‘nggi 5-8 yil ichida yetarli

[62] TDIU ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

darajada kengaytirildi. Masalan, Internetdan foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Rossiya va Ukrainadan keyin MDHda uchinchi o‘rinda turadi, mobil telefon vositalaridan foydalanish bo‘yicha esa ikkinchi o‘ringa chiqdi. Bu ta’limni masofali tashkil etish imkoniyatlari ham kengayayotganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar amaliyotida keng qo‘llaniladigan “Yevro-MBA”, “European Master Management” kabi ta’lim dasturlaridan foydalanishni targ‘ib etish mumkin.

2.6 - jadval

Turizm sohasiga yo‘naltirilgan hudular kesimidagi biz tadiqot olib borgan beshta oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituchilar soni va sifat ko‘rsatkichi[63]

OTMlar	Ko‘rsatkichlar	O‘quv yillari					2020/2021 yilda 2016/2017 yilga nisbatan o‘zgarishi (+,-)
		2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	
	Professor o‘qituvchilar:	17	20	19	21	20	+3
	Ilmiy darajalilar	6	6	7	8	8	+2
SamISI	Fan doktorlari	11	12	13	13	12	+1
	Fan nomzodi, (PhD)	55	52	60	71	69	+14
	Professor o‘qituvchilar:	29	28	32	34	39	+10
	Ilmiy darajalilar	7	7	9	13	17	+10
BuxDU	Fan doktorlari	2	2	3	3	3	+1
	Fan nomzodi, (PhD)	5	5	6	10	14	+9
	Professor o‘qituvchilar:	15	15	17	20	16	+1
	Ilmiy darajalilar	5	5	6	9	7	+2
QarDU	Fan doktorlari	-	-	-	2	2	x
	Fan nomzodi, (PhD)	4	5	5	5	5	+1

[63] O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, yo‘naltirilgan oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar soni va sifat ko‘rsatkichini 2.6 - jadval tahlili fan doktorlari, fan nomzodlari va PhD tarkibida ahamiyatga molik o‘sish mavjudligidan dalolat beradi. Respublikamiz bo‘yicha 2020-2021 o‘quv yillarida 2016-2017-o‘quv yillariga nisbatan professor-o‘qituvchilar soni 3 nafarga, ilmiy darajalilar soni 2 nafarga ortgan. SamISIda fan doktorlari 1 nafarga, fan nomzodi (PhD) 14 nafarga, BuxDUda fan doktorlari 1 nafarga, fan nomzodi (PhD) 9 nafarga, QarDUda fan doktorlari o‘zgarishsiz holatda, fan nomzodi (PhD) 1 nafarga ortgan.

Biz tadqiqotimiz davomida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bu - oliy ta’lim muassalarini adabiyotlar bilan taminlanganligi, Ipak yo‘li XTU, QarDU, BuxDU, SamISI oliygohlari holatni tahlil qilib chiqdik va quyidagicha tasvirlashimiz mumkin (2.2- rasim).



2.2-rasm. Turizm sohasida oliy ta’lim muassasalari adabiyotlar bilan ta’minlanganlik holati[64]

2.2-rasm holatini tahlilidan kelib chiqadigan bo‘lsak, 2012-2021-yillar davomida darslik, o‘quv qo‘llanma va darsliklar bilan ta’minoti optimal ko‘rsatkichlarni namoyon qilgan. Masalan, SamISIda 2012-2021-yillar davomida darslik, o‘quv qo‘llanma va darsliklar bilan ta’minoti o‘sib boruvchi natijani ko‘rsatadi ya’ni, 2012-yilda bor yo‘g`i 5-10 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 28-32 % ni qamrab olgan. BuxDU va QarDUda tahlil etilayotgan yillar kesimida ta’minot hukumatimizning ijtimoiy sohalarni yanada qo‘llab quvvatlash maqsadida moliyalashtirish xarajatlarini ko‘paytirib borishi natijasida 25 % dan 87 % gacha o‘sishi kuzatilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarni jahon industriyasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, mamlakatimizda turizm sohasi yo‘naltirilgan oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituchilar soni va sifat holati va dinamikasi juda sekin o‘zgariyotgan tendensiyalari mavjudligiga duch kelamiz. O‘ylaymizki, bunday holat GIIni (global innovatsion indeks) past darajada ekanligidan dalolat beradi hamda, istiqbolda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yuqori malakali kadrlar bilan to‘liq ta’minlashga qaratilgan strategiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

2.2. Respublikada turizm industriyasidagi yuqori malakali kadrlar faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar holatining ekonometrik tahlili

Mamlakatimizda ta’lim tizimida yangi innovatsion xizmat turlarini keng joriy qilish, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi o‘ta muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda ta’lim tizimida ko‘rsatilayotgan xizmatlarga sarflanayotgan mablag‘lar, nafaqat, xarajatlarni qoplashga yetishi, balki, bir necha baravar bo‘lib ta’lim tizimiga, Davlat budjetiga qaytishi, jamiyatga foyda berishi ham muhim hisoblanadi. Bu soha oldida turgan vazifalarni hal qilishni taqozo qiladi (2.3-rasm).

[64] O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu rasmdan ma’lum bo‘ldiki, Samarqand viloyati budjet xarajatlarini dinamikasini tahlil qilganimizda quyidagilar kuzatildi: oradagi farq 2009-yilda 300,0 mln., 2015-yilda 1000,0 mln., 2020-yilda 1700,0 mln., 2021-yilda 2700,0 mln. so‘mni tashkil etgan. Shuni ta’kidlash joizki, tahlillarimiz natijasida jami xarajat va daromadlar bo‘yicha 2009-2021-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega. Tadqiqotimizda Samarqand viloyati bo‘yicha ijtimoiy soha bilan bog‘liq xarajatlarni ham tahlil qilganimizda uning miqdor ko‘rsatkichlari 2010-2021-yillar oralig‘ida ortib borganligini guvohi bo‘lamiz. 2010-yilda bu ko‘rsatkich 500,0 mln so‘mni, 2021-yilga kelib 3300,0 mln so‘mga yetgan.



2.3-rasm. Samarqand viloyatining 2009-2021-yillar davomida budjet xarajatlari dinamikasi[65]

Monografiyada turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning faoliyat olib boradigan xodimlarning asosiy vazifalaridan kelib chiqib, Samarqand shahri turistik mahsulotlari bozorida - firma va mehmonxonalar obyektlarida ularning o‘rnini ko‘rsatib berishni

[65] Samarqand viloyati Statistika boshqarmasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

maqsadga muvofiq. Buning uchun ular faoliyat olib boradigan asosiy obyektlardan biri turistik-mehmonxona bozorini tahlil qilish lozim bo‘ldi (2.4- rasm). Bugungi kunda Samarqand viloyatida jami 195 ta turizm faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan turistik sub’ektlari, ya’ni 90 ta (shundan, 71 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda) turistik kompaniyalar va firmalar hamda 4600 nafardan ziyod mehmon (shundan, amalda foydalanish mumkin bo‘lgan o‘rinlar soni 3907 ta) joylashish imkoniyatiga ega 105 ta mehmonxonalar mavjud. Mavjud mehmonxonalardan 98 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, qolgan 7 ta mehmonxonalar ta’mirtalab yoki ta’mirlash ishlari olib borilayotgani sababli faoliyat ko‘rsatmayapti (yirik mehmonxonalar: Afrosiyob Palas, Samarqand) Mazkur 98 ta mehmonxonalarining tarkibi va quvvati bo‘yicha tasnif qilsak quyidagi holatni ko‘rishimiz mumkin.



2.4-rasm. Samarqand viloyatida 2010-2021-yillarda ijtimoiy soha uchun xarajatlar holati[66]

Shu bilan birgalikda raqobatchilar qatoriga quvvati past nomerlar va o‘rinlar soni kam bo‘lgan mehmonxonalarni kiritish to‘g‘risida xulosa qilish mumkinligi aniqlandi. Ma’lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda xalqaro turizmning jahon andozalariga mos keladigan

[66] Samarqand viloyatida 2010-2021 yillarda ijtimoiy soha uchun xarajatlar holati muallif tomonidan ishlab chiqildi.

jihatlari endigina rivojlanayotganligi bois turistlarga turistik xizmatlarni ko‘rsatish borasida talaygina qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Bular bevosita yana yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosining asoratlaridan biri ya’ni, turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes sub‘ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning yaxshi o‘rnatilmaganligiga borib taqaladi.

2020-yil boshiga qadar respublikamizga tashrif buyurgan, chet el fuqarolari bo‘lgan turistlar jami 6318 ming nafardan ortiqroqni tashkil etib, ularning maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha bo‘lgan: xizmat yuzasidan - 0,9 %, o‘qish uchun - 0,2 %, turizm - 9,2 %, qarindoshlarga tashrif - 74,6 %, davolanish uchun - 0,8 %, tijorat maqsadida - 0,8 %, boshqa maqsadlarda - 15,4 % ni tashkil qilgan. Xorijiy turistlar asosan, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Buyuk Britaniya, Qozog‘iston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tojikiston, Fransiya va Germaniya fuqarolaridan iborat bo‘lgan. Jumladan, 2017-yilda respublikamizga Qozog‘istondan 1783,8 ming, Tojikistondan 261,9 ming, Rossiyadan 143,9 ming, Turkiyadan 55,2 ming, Turkmanistondan 62,5 ming, Janubiy Koreyadan 37,4 ming, Afg‘onistondan 32,1 ming, Xitoydan 19,7 ming, Hindistondan esa 15,8 ming turist tashrif buyurgan[67]. 2018-yilda respublikamizga Qozog‘istondan 2456,9 ming, Tojikistondan 1700,7 ming, Rossiyadan 460,2 ming, Turkiyadan 74,8 ming, Turkmanistondan 245,8 ming, Janubiy Koreyadan 32,7 ming, Afg‘onistondan 71,0 ming, Xitoydan 37,1 ming, Hindistondan esa 22,2 ming turist tashrif buyurgan[68].

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yilga qadar respublikamizdan boshqa o‘lkalarga borgan turistlar 6432,9 ming kishini tashkil etgan. Ularning turizm maqsadlarida borganlari ulushi 6,96 % ni tashkil etgan. Mahalliy turistlar oqimining 92,2 %i MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, uzoq xorijiy davlatlarga borgan turistlar esa, 7,8 %ni tashkil qilgan. O‘zbekiston fuqarolarining asosiy

[67] O‘zbekiston turizmi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘plami, -T.: O‘ZRDSQ-2018 y.
[68] O‘zbekiston turizmi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘plami, -T.: O‘ZRDSQ-2018 y.

qismi MDH mamlakatlari bilan birga Turkiya, Xitoy, BAA, Janubiy Koreya, AQSh va Hindistonga tashrif buyurishgan. 2021-yilga qadar yilda o‘zbekistonlik turistlarning 42,9 %ni Qozog‘istonga, 3,5 %i Rossiya Federatsiyasi, 1,6 %ni Turkiyaga, 0,6 %ni Janubiy Koreyaga, 0,4 %i Xitoyga, 0,4 %i BAAga, 0,2 foizni Hindiston, 0,2 %ni AQShga to‘g‘ri kelgan.

Tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyati Sharqiy Osiyo davlatlari va Yevropadan kelishmoqda. Shuni ham inobatga olish lozimki, BTT tasnifiga ko‘ra, sobiq Ittifoq davlatlarining ko‘pchiligi Yevropa mintaqasiga kiradi. Shu tasnifga asosan O‘zbekistonga qo‘shni davlatlardan kelayotgan turistlar ham Yevropadan kelayotgan turistlar hisoblanadi. Mahalliy turizm bozorining ishtirokchilari ko‘pincha turizm xizmati va turistik mahsulotga bo‘lgan talabning aniq xususiyatlarini, turistlar ehtiyojini qondirish uchun qanday xizmatlar taklif etish lozimligini bilishmaydi. Xizmat turini taklif etayotgan tashkilot xaridorni va uning talabi va ehtiyojini aniq bilgan taqdirdagina talabga ta’sir eta olishi mumkin.

O‘zbekistonda chet ellik turistlar haqida to‘la ma’lumot beruvchi tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, ular kamchilikni tashkil qiladi. Turistik tashkilotlarning har biri o‘z mijozlarini o‘rganishi natijasida ular haqida ma’lum darajada ma’lumot to‘plashga harakat qilishadi, xolos. Ammo mamlakatimizga kimlar va nima maqsadda kelayotgani, ular turistik xizmatning qaysi ko‘rinishlarini ko‘proq talab qilayotganliklari haqidagi ma’lumotlar yetarli emas.

Turistlarga taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlarning sifati asosan ularni ishlab chiqaruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga bog‘liq. Biroq, xizmat sifatiga ta’sir qiladigan, hamda markaziy va mahalliy hokimiyat organlariga bog‘liq bo‘lgan bir qator boshqa omillar ham mavjud. Bularga infratuzilma va turistik resurlardan foydalanish imkoniyatlarini kiritish mumkin.

Mamlakatimizda turmahsulotlar va turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston taklif etayotgan uchta asosiy turistik mahsulotni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu turistik mahsulotlar asosan madaniy, tarixiy va

me’moriy obyektlardan iborat. Madaniy-ma’rifiy, muayyan yo‘nalishdagi ixtisoslashgan turizmni, ziyorat turizmi va ekoturizmni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda turizmning ushbu ko‘rinishlari alohida tavsiflab berildi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda turizm sohasi raqobatbardosh bo‘lishi uchun uning ishtirokchilari mazkur soha bozoridagi mavjud talablarni qondira olishi lozim. Mamlakatimizga kelayotgan ko‘pchilik turistlar G‘arbiy Yevropadan ekanligini hisobga olgan holda muvaffaqiyatga erishish uchun malakali kadrlar tayyorlashda xalqaro andozalar talablaridan kelib chiqish kerak. Yangi turistlarni jalb etish uchun ularni kutib olishdan boshlab, kuzatgunga qadar bo‘lgan barcha darajalarda malakali kadrlarga ega bo‘lish taqozo qilinadi. Aynan shunday bo‘lgandagina turistlar yana qaytib kelishi mumkin. Natijada mamlakatimizga keladigan turistlar soni yildan-yilga ko‘payib boradi.

Bugungi kunda respublikamizda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida turizmning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Tahliliy ma’lumotlarga e’tibor qaratsak, respublikada davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida turistlar oqimi 2016-yil boshida 1,9 mln. kishini tashkil etgan holda, bu ko‘rsakich 2019-yilda 6,7 mln. kishiga oshgan. Shuningdek, 2016 yil boshiga joylashtirish vositalari soni 661 tani, 2019-yilda esa 1188 tani tashkil etgan, ya’ni bu ko‘rsatkich 79,7 % dan ortiqga oshgan . Ammo pandemiya tufayli bu ko‘rsatkich 2020-2021-yillarda to‘rt baravarga qisqarib ketgan.

Oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash sohasida dasturiy yondashuv amalga oshirilmoqda, bunda fan, ishlab chiqarish va texnologiya bo‘yicha yangi g‘oyalarning yaratilishi asosida milliy iqtisodiyot va jamiyatnining turmush darajasini o‘zgartirish ro‘yobga chiqmoqda. Bilimga asoslangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish madaniyatining shakllanishida ta’lim muhim o‘rin tutadi, chunki

zamonaviy murakkab ishlab chiqarishda, ishchi qanchalik malakali bo‘lsa, uning umumiy madaniyati va sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion salohiyatining oshishiga hissa qo‘shmoqda. Bu sohada amalga oshirilayotgan milliy loyiha va dasturlarning maqsadi mahalliy korxonalarni ilg‘or mehnat uslublariga o‘rgatish, ishlab chiqarish, fan va ta’lim o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi.

Zamonaviy integratsiya jarayonlari tadqiqot, ta’lim va ishlab chiqarish muammolarini hal qila oladigan, shuningdek, ish beruvchilarning yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladigan ma’lum tashkiliy shakllarda (texnoparklar, tadqiqot universitetlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, konsalting firmalari) rivojlanmoqda.

Integratsion rivojlanishning asosiy shartlari siyosiy, tartibga soluvchi, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlardan kelib chiqadi. Siyosiy shartlar davlat darajasida amalga oshiriladi, mavjud va barqaror saqlanib qolgan ijtimoiy amaliyotni o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday ehtiyoj dunyodagi ijtimoiy o‘zgarishlarga javoban paydo bo‘ladi: ilmiy va amaliy taraqqiyotning tezlashishi, axborotlashtirish jarayonlarining kuchayishi kuzatiladi. Biroq, ta’lim sifatini oshirish maqsadli shartlarni talab qiladi, birinchi navbatda davlat tomonidan chuqur islohotlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

O‘zbekistonda oliy ta’limning qiymati oshib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarning katta qismi oliy o‘quv yurtlariga kirishni xohlamoqda. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston yoshlari chet tillarini, asosan ingliz tilini o‘rganishga va texnik sohada, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha o‘z bilimlarini oshirishga intilishadi.

Shu bilan birga, integratsiya jarayonida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha tizimli ish olib borish va bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Ta’limni isloh qilish sharoitida, bugungi kunda oliy ta’limda talabalar sonini mehnat bozori talabiga

mos holda rejalashtirish, ularga jahon talablari darajasida shart-sharoit yaratib berish, o‘z ustida ishlashini rag‘batlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizda biz turizm sohasida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura talabalari soni o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omilllar sifatida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni, mehmonxonalar soni, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar soni va yalpi ichki mahsulotda turizm ulushi kabi omillarni tanladik.

$$Y = \alpha + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \varepsilon$$

$Y -$ Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar/magistrlar soni;

X_1 –muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni, gektar;

X_2 – mehmonxonalar soni;

X_3 – oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar soni;

X_4 – turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda;

ε –xatolik.

Yuqoridagi ekonometrik model erksiz o‘zgaruvchi (Y) ga to‘rtta o‘zgaruvchi (X)lar ta’sirini statistik baholashga xizmat qiladi. Ushbu model asosida quyidagi gipotezani tekshirish mumkin:

$H_0 - \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ lardan kamida bittasi noldan farqli;

$H_1 - \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ larning barchasi nolga teng;

Bunda H_0 gipoteza omillarning kamida bittasi erksiz o‘zgaruvchiga ta’siri statistik ahamiyatga ega ekanligini, unga qarama qarshi H_1 gipoteza esa hech bir omilning ta’siri statistik ahamiyatga ega emasligini anglatadi.

2.7-jadval

Erksiz o‘zgaruvchiga ta’sir qiluvchi omillar dinamikasi[69]

[69] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yillar	Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni, gektar	Mehmonxonalar soni	OTMlarda o‘qituvchilar soni	Turizmning YAIMdagi ulushi %	Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni	Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan magistrlar soni
2011	823,2	500	23021	0,32	236	4
2012	885,4	483	22394	0,41	297	17
2013	885,4	541	22769	0,43	331	17
2014	885,5	613	23148	0,86	488	22
2015	885,5	661	23532	0,84	425	23
2016	885,5	750	24909	0,71	471	22
2017	874,5	816	23961	1,4	581	24
2018	1545,7	916	25107	2,6	800	26
2019	1545,9	1051	26664	2,9	1224	73
2020	1545,9	1209	30559	3,0	2045	153
2021	1545,9	1210	30625	3,4	2086	157

Tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezident administratsiyasi huzuridagi statistika agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlaridan foydalandik. Ushbu jadval ma’lumotlari asosida biz turizm sohasida tahsil olayotgan bakalavrlar va magistrlar soniga ta’sir etuvchi omillarning statistik ta’sirini baholash uchun MSEXCEL hamda EVIEWS 10 dasturlaridan foydalandik. Bunda har bir omilning vaqt qatori bo‘yicha o‘zgarishi va keskin o‘zgaruvchi qiymatlar qabul qilmasligi tekshirildi.

Biz avvalambor omillar o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanish darajasini tekshirish maqsadga muvofiq deb hisobladik (2.7 -jadval).

2.7 - jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha omillar o‘rtasida korrelyatsiya 0,8% dan yuqori natijani ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida multiplikativlik muammosi mavjudligidan dalolat beradi.

2.8-jadval

Korrelyatsiya matritsasi[70]

[70] Jahon banki ma’lumotlari data.worldbank.org.

	Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, gektar	**Mehmonxo-nalar soni**	**OTMlarda o‘qituvchilar soni**	**Turizmning YaIMdagi ulushi**	**Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni**
Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, gektar	1,00				
Mehmonxonalar soni	0,82	1,00			
OTMlarda o‘qituvchilar soni	0,80	0,95	1,00		
Turizmning YaIMdagi ulushi	0,94	0,94	0,87	1,00	
Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni	0,88	0,94	0,92	0,96	1,00

Ya’ni har bir omil boshqa omilni yaxshi aks ettirishi sababli, bu yerda ko‘p omilli regressiya tenglamasini tuzish, chiziqli regressiya asosida yotuvchi har bir erkli o‘zgaruvchi boshqa erkli o‘zgaruvchiga ta’sir etmaydi degan gipotezaga zid keladi. Shundan kelib chiqqan holda, biz har bir omilni alohida erksiz o‘zgaruvchiga ta’sirini baholadik.

Tahlil jarayonida biz turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining o‘zgarishi turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavr talabalari soniga ta’siri statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqladik. Ushbu tahlil natijalari quyidagi 2.9-jadvalda keltirilgan.

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, turizmning YaIMdagi ulushi turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni o‘zgarishining 91 % ini tushuntirib beradi. Shu bilan birga, turizmning YaIMdagi ulushi erksiz o‘zgaruvchiga ta’siri ishonchlilik darajasi 99 % bo‘lganda ham statistik ahamiyatga ega ekanligidan p ning past qiymatidan ko‘rish mumkin. Umuman olganda, yuqoridagi jadval asosida quyidagi regressiya tenglamasini tuzish mumkin:

2.9-jadval

Birlamchi ekonometrik tahlil natijalari

O‘zgaruvchilar	R kvadrat	Koeffitsientlar	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat
Ozod had	0,92	180,63	51,67	3,48	0,01
Turizmning YaIMdagi ulushi		305,66	35,75	8,55	0,00

$$Y_{bakalavr} = 183{,}63 + 306X_4$$

Bunda yalpi ichki mahsulotda turizmning ulushi o‘sishi, ushbu sohada malakali kadrlarga talabning ortishiga va shu orqali bakalavrlar soni ko‘payadi deb izohlanadi. Xuddi shu kabi biz magistrlar soniga ham yuqorida keltirilgan omillarning ta’sirini baholadik. Tahlil jarayonida assimptotik aproksimatsiya usuli qo‘llanilib, bunda eksponensial trend chizig‘i orqali prognoz qilish maqsadga muvofiq deb topildi. Tahlil natijasida quyidagi 2.10-jadval ma’lumotlari shakllantirildi.

2.10-jadval

Ikkilamchi ekonometrik tahlil natijalari

O‘zgaruvchilar	R kvadrat	Koeffitsientlar	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat
Ozod had	0,68	-248,94	70,39	-3,5	0,009
OTMlarda o‘qituvchilar soni		0,011	0,002	3,9	0,006

2.10-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar soni turizm sohasida tahsil olayotgan magistrlar soni o‘zgarishining 68 % ini tushuntirib beradi. Yuqoridagi javdal ma’lumotlari asosida quyidagi regressiya tenglamasini tuzish mumkin:

$$Y_{magistr} = 0{,}01X_3 - 248{,}94$$

Ya’ni umuman olganda jamiyatda o‘qituvchilarga talabning ortishi magistrlar sonining ham o‘sishiga turtki bo‘ladi degan mantiqiy xulosaga kelish mumkin. Magistratura yo‘nalishiga topshiruvchi

talabalarning asosiy maqsadi kelajakda pedagogik faoliyat olib borish ekanligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, tadqiqot natijalari mantiqan to‘g‘ri ekanligini ta’kidlash mumkin. Omilli tahlil natijasida yuqorida keltirib o‘tilgan H_0 gipotezani qabul qilish mumkin.

2.3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo‘llari

Tadqiqot natijasida turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlashda turistik korxonalar bilan davlat, ta’lim tashkilotlari, mehnat bozori, innovatsion markazlar, jamoat tashkilotlari o‘zaro hududiy integratsiyasi asosida “yuqori malakali kadrlar” modeli ishlab chiqilgan. Bunga ob’ektiv zaruriyat paydo bo‘lgan edi. Chunki turizm sohasi iqtisodiyotning drayveri sifatida pandemiya paytida to‘xtab qolgan holatdan keyin jadal rivojlanishini ta’minlash lozim bo‘lib qoldi.

Hozirgi kunda kadrlarning darajasi barcha sohalardagi singari turizm sohasida ham o‘rta maxsus, oliy ma’lumotli kadrlar, deb baholanadi. Ammo biz ishimizni bevosita “yuqori malakali kadrlar” tayyorlashga bag‘ishladik. Savol tug‘ulishi mumkin, bunday kadrlar oliy ma’lumotli kadrlardan nimasi bilan farq qiladi? Agar e’tibor qilinsa barcha oliy ma’lumotli kadrlarning ham malakasi bir xil emas. Ularni past, o‘rtacha va yuqori, deb baholash mumkin.

Bugungi Yangi O‘zbekistonni shakllantirish uchun yuqori malakali kadrlar bazasini yaratmay turib, birorta sohada, shu jumladan turizm sohasida ham barqaror taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Albatta e’tirof etish joiz, sohada yuqori malakali kadrlar ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Ammo ular shu darajaga yetguncha oliy o‘quv yurtini bitirgandan keyin o‘n-o‘n besh yillab amaliy tajriba orttirish natijasida erishadi. Endi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun shuncha vaqt kutishga fursat yo‘q. Shu tufayli imkon qadar oliy o‘quv yurtidayoq bunday

kadrlarni tayyorlashimiz lozim. Ularni tayyorlashni oliy o‘quv yurtida amalga oshirish uchun quyidagi holatni tavsiya qilamiz (2.4-rasm).

Buning uchun o‘quv jarayonini tubdan yaxshilash, turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini yo‘lga qo‘yish, fan ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq[71].

An’anaviy ta’lim		**Ta’limni takomillashtirish bo‘yicha tavsiya**
Nazariya - 4 yil		Nazariya va amaliyot birgalikda - 4 yil
Oliy ma’lumotli kadr		Oliy ma’lumotli yuqori malakali kadr
Ish bajaruvchi. Amaliyotdagi tajriba 10-15 yillab		Ish boshqaruvchi, ish beruvchi, yangilik yaratuvchi - innovator

2.4-rasm. Raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlash modeli[72]

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, raqobatbardosh “yuqori malakali kadrlar”ni tayyorlash modeli odatdagi ta’limga nisbatan farq qiladi. Odatdagi ta’limda 4 yil oliy ta’limda nazariy bilimlarni egallab o‘qiydi, amaliyotdan kamroq xabardor bo‘ladi. Xullas shu yo‘l bilan oliy ma’lumotga ega bo‘lib, diplom bilan oliy o‘quv yurtidan chiqadi. Hozir

[71] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrda “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5270- sonli qarori.

[72] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ularni ishga kutib turgan joy yo‘q. Ular endi o‘zining kasbiga yaqinroq ishni izlab topadi va asosan ish bajaruvchi bo‘lib ishga kiradi. Bir qancha yillar tajriba orttirib 10-15 yillardan keyin yuqori malakali kadr bo‘lib yetishadi. Ammo bugungi shaddat bilan o‘zgarayotgan zamonda bunday holat turizmni innovatsion tarzda barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yarata olmaydi. Shu tufayli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek birdaniga yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish lozim.

Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, raqobatbardosh “yuqori malakali kadrlar”ni tayyorlash modeli taklif qilinadi. Modelda turizm yo‘nalishida kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan oliy o‘quv muassasalari talabalar nazariy ta’limni amaliyot bilan jonli tarzda o‘rganib borishini tashkil qilinadi. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida “Turistik firmalar” tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Haftaning har 4 kunini nazariyaga va 2 kunini amaliyotda o‘rganishga qaratmoq lozim bo‘ladi. Dam olish kunida talabalar o‘zlari tanlab kelishgan turistik firmalarda ishlashlari mumkin. Shu tariqa talaba bir vaqtning o‘zida ham nazariyani va ham amaliyotni o‘rganib chiqadi. Dars berish jarayonida ham amaliyotdan jonli misollar keltirilib, munozara tarzida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga bir qancha omillar ta’sir qilar ekan. Bularga quyidagi omillarni kiritish mumkin:

1. Bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni (X_1);

2. Bir mingta xorijiy turistlarga to‘g‘ri keladigan mahalliy turistlarning soni (X_2);

3. Xorijiy tillarni biladigan xodimlarga to‘g‘ri keladigan turistlar ulushi (X_3);

4. Xorijiy tillarni biladigan xodimlarning umumiy xodimlardagi hissasi (X_4).

Ushbu omillarning ta’sirini aniqlash uchun natijaning ushbu omillar bilan o‘zaro bog‘liqligining multiplikativ modelini aniqlab olamiz. Bu quyidagi formulada o‘z aksini topgan:

$$U = X_1 * X_2 * X_3 * X_4 = \prod_{i=1}^{n} X_i;$$

Ko‘rinib turibdiki, natija ko‘rsatkichiga to‘rtta omil ta’sir qiladi. Iqtisodiy tahlilning zanjirli almashtirish va indeks usullari bilan ushbu omillarning natija o‘zgarishiga ta’sirini aniqlash mumkin. Buning uchun birinchi galda ularning farqi aniqlanadi:

$$\Delta U = (X_{1h} * X_{2h} * X_{3h} * X_{4h}) - (X_{1r} * X_{2r} * X_{3r} * X_{4r});$$

Ushbu natijaviy ko‘rsatkichga omillar ta’sirini indeks usul bilan aniqlash uchun natija ko‘rsatkichining indeksi aniqlanadi. Buning uchun haqiqiy miqdor ($X_{1h} * X_{2h} * X_{3h} * X_{4h}$) rejadagi miqdorga ($X_{1r} * X_{2r} * X_{3r} * X_{4r}$) bo‘linadi:

$$Iy = \frac{(X1h * X2h * X3h * X4h)}{(X1r * X2r * X3r * X4r)}$$

Endi turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi (natija ko‘rsatkichi)ga ta’sir qiluvchi birinchi omilning, ya’ni bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar sonining o‘zgarishining ta’sirini (ΔUx_1) zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash uchun natijani shu birinchi omilning o‘zgarishi bilan qayta hisoblab olinadi ($X_{1h} * X_{2h} * X_{3r} * X_{4r}$) va bundan natijaning rejadagi miqdori ($X_{1r} * X_{2r} * X_{3r} * X_{4r}$) ayriladi:

$$\Delta U_{x1} = (X_{1h} * X_{2r} * X_{3r} * X_{4r}) - (X_{1r} * X_{2r} * X_{3r} * X_{4r});$$

Mazkur birinchi omil ta’sirini indeks usuli bilan aniqlash uchun ushbu ko‘rsatkichlarning nisbati olinadi:

$$Iyx1 = \frac{(X1h * X2r * X3r * X4r)}{(X1r * X2r * X3r * X4r)}$$

Omilning natijaga ta’sirini indeks usuli bilan ham aniqlash mumkin. Bunda birichi omil ta’siri bilan qayta hisoblangan natija ko‘rsatkichi, uning rejadagi miqdoriga bo‘linadi:

Natija ko‘rsatkichi o‘zgarishiga ikkinchi omilning ta’sirini aniqlash uchun endi natija ko‘rsatkichini shu omilning o‘zgarishi bilan qayta hisoblab olinadi ($X_{1h} * X_{2h} * X_{3r} * X_{4r}$) va bundan birinchi omilning o‘zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori ($X_{1h} * X_{2r} * X_{3r} * X_{4r}$) ayriladi:

$$\Delta U_{x2} = (X_{1h} * X_{2h} * X_{3\,r} * X_{4r}) - (X_{1h} * X_{2r} * X_{3\,r} * X_{4r});$$

Ushbu omilning ta’sirini indeks usulida ham aniqlash mumkin:

$$Iyx2 = \frac{(X1h * X2h * X3r * X4r)}{(X1h * X2r * X3r * X4r)}$$

Natija o‘zgarishiga uchinchi omilning ta’sini (ΔU_{x3}) aniqlash uchun endi natijaning shu uchinchi omil o‘zgarishi (haqiqiy miqdori) bilan qayta hisoblab olinadi ($X_{1h} * X_{2rh} * X_{3h} * X_{4r}$) va bundan natijani ikkita omil bilan qayta hisoblangan miqdoi ($X_{1h} * X_{2h} * X_{3r} * X_{4r}$) ayriladi:

$$\Delta U_{x3} = (X_{1h} * X_{2rh} * X_{3h} * X_{4r}) - (X_{1h} * X_{2h} * X_{3r} * X_{4r});$$

Ushbu omil ta’sirini indeks usulida aniqlash uchun shu ko‘rsatkichlarning nisbati olinadi:

$$Iyx3 = \frac{(X1h * X2h * X3h * X4r)}{(X1h * X2h * X3r * X4r)}$$

Endi natija o‘zgarishiga to‘rtinchi omilning ta’sirini () aniqlash uchun shu omilning o‘zgarishi bilan qayta hisoblab olinadi () va bundan uchinchi omilning o‘zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdor ayriladi:

$$\Delta U_{x4} = (X_{1h} * X_{2rh} * X_{3h} * X_{4h}) - (X_{1h} * X_{2h} * X_{3h} * X_{4r});$$

Ushbu omil ta’sirini ham indeks usulida aniqlash mumkin. Buning uchun ularning nisbati olinadi:

$$Iyx4 = \frac{(X1h * X2h * X3h * X4h)}{(X1h * X2h * X3h * X4r)}$$

Barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘ladi:

$$\Delta U = \Delta U_{x1} \pm \Delta U_{x2} \pm \Delta U_{x3} \pm \Delta U_{x4};$$

Barcha omillar ta’siri indeksining ko‘paytmasi, agar hisob-kitob to‘g‘ri amalga oshirilgan bo‘lsa, umumiy indeksga teng bo‘lishi kerak.

$$Iy = Iyx1 * Iyx2 * Iyx3 * Iyx4$$

Ushbu usullarga amaliy ma’lumotlarni qo‘llab hisob-kitob qilinadigan bo‘lsa, turizm sohasining yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu

omillarni amaliy ma’lumotlarni qo‘llab hisob-kitob qilinganda quyidagi natijalarga ega bo‘lindi (2.11-jadval).

2.11-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha turizmda band bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar ta’minoti bo‘yicha 2021-2022-yillardagi ma’lumotlari[73]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	Farqi (+,-)	O‘zgarish su’rati, %
1.	Jami turistlar soni, ming kishi	1709	5451	+3742	319,0
2.	Mahalliy (ichki) turistlar soni, ming kishi	519	4247	+3728	818,3
3.	Xorijiy turistlar soni, ming kishi	1190	1204	+14	101,2
4.	Turizmda band bo‘lgan xodimlar soni, kishi	24 119	27 320	+3 201	113,3
5.	Turizmda band bo‘lgan oliy ma’lumotli xodimlar soni, kishi	3595	3785	+190	105,3
6.	Turizmda band bo‘lgan xorijiy tillarni biladi-gan xodimlar soni, kishi	9340	12463	+3123	133,4
7.	Bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni (X_1); (5q/2q)	6,93	0,89	-6,04	12,8
8.	Bir mingta xorijiy turistlarga to‘g‘ri keladigan mahalliy turistlarning soni (X_2); (2q/3q)	436,1	3527,4	+3091,3	808,9
9.	Xorijiy turistlarning bir mingta xorijiy tillarni biladigan xodimlarga to‘g‘ri kelishi (X_3). (3q/6q)	127,4	96,6	-30,8	75,8
10	Xorijiy tillarni biladi-gan xodimlarning mumiy xodimlardagi ulushi (X_4). (6q/4q*100)	38,72	45,62	+6,90	117,8
11.	Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi, % (U); (5q/4q)	14,91	13,84	-1,07	92,9

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, jami turistlar soni 2022-yilda, 2021-yilga nisbatan +3742 ming kishiga yoki

[73] Samarqand viloyati turizm va madaniy-meros bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

319,0 %ga oshgan. Bunga 2022-yilda Samarqand shahrida yirik «Boqiy shahar» nomi bilan turizm markazining tashkil qilinganligi va unda bir qancha xalqaro tadbirlarning o‘tkazilganligi sabab bo‘lgan. Bular tarkibida mahalliy (ichki) turistlar soni keskin ko‘payib, 3728 ming kishini tashkil qilgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 818,3 %ni o‘sganligidan dalolat beradi. Ammo xoijiy turistlarning o‘sish darajasi 14 kishiga yoki 101,2 %ga oshgan xolos. Turizmda band bo‘lgan xodimlar soni, 3 201 kishiga yoki 113,3 %ga ko‘paygan. Ushbu holat turizm sohasining bandlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat berib turibdi. Turizmda band bo‘lgan oliy ma’lumotli xodimlar soni shu davrda 190 kishiga yoki 105,3 %ga oshgan xolos. Kelgusida oliy ma’lumotli kadrlar sonini ko‘paytirish ham muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Soha uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turizmda band bo‘lgan xorijiy tillarni biladigan xodimlar soni shu davrda 3123 kishiga yoki 133,4 %ga o‘sganligi ham tahsinga loyiq. Ushbu ko‘rsatkichlardan turizm sohasining yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar shakllantirilgan. Bu omillarga bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni (X1); bir mingta xorijiy turistlarga to‘g‘ri keladigan mahalliy turistlarning soni (X2); xorijiy tillarni biladigan xodimlarga to‘g‘ri keladigan turistlar ulushi (X3); xorijiy tillarni biladigan xodimlarning umumiy xodimlardagi ulushi (X4) kabi omillar kiradi.

Tahlilning navbatdagi bosqichida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash masalasi turadi. Buning uchun yuqorida tavsiya qilingan zanjirli almashtirish va indeks usullaridan foydalangan holda har bir omilning ta’sirini hisoblash mumkin bo‘ladi. Buning uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (2.12-jadval).

Quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tadqiq qilinayotgan Samarqand viloyatida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1,07 %ga (13,84 – 14,91) kamaygan. Bu kamayishga yuqorida qayd etilgan 4 ta omil ta’sir qilgan.

2.12-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha turizm sohasida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarning 2021-2022 yillardagi ta’sirini aniqlash hisob-kitobi[74]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	1 omil bilan qayta hisob-langan	2 omil bilan qayta hisob-langan	3 omil bilan qayta hisob-langan	4 omil bilan qayta hisob-langan
1.	Bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni (X_1); (5q/2q)	6,93	0,89	0,89	0,89	0,89	0,89
2.	Bir mingta xorijiy turistlarga to‘g‘ri keladigan mahalliy turistlarning soni (X_2); (2q/3q)	436,1	3527,4	436,1	3527,4	3527,4	3527,4
3.	Xorijiy turistlarning bir mingta xorijiy tillarni biladigan xodim-larga to‘g‘ri kelishi (X_3). (3q/6q)	127,4	96,6	127,4	127,4	96,6	96,6
4.	Xorijiy tillarni biladigan xodim-larning umumiy xodimlardagi ulushi (X_4). (6q/4q*100)	38,72	45,62	38,72	38,72	38,72	45,62
5.	Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi, % (U); (5q/4q)	14,91	13,84	1,91	15,49	11,74	13,84

[74] Samarqand viloyati turizm va madaniy-meros bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Umumiy farq: 13,84 – 14,91 = -1,07 %

Indeks usulida: 13,84/14,91 = 0,928

Birinchidan, bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni mahalliy turistlarning keskin oshganligi evaziga (818,3 %) ancha miqdorga (atigi 12,8 %ni tashkil qilgan) kamaygan. Ushbu omil evaziga natija ko‘rsatkichi, ya’ni turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi, 13,0 %ga (1,91 – 14,91) kamaygan.

1-omil ta’siri: 1,91 – 14,91 = -13,00 %

Indeks usulida: 1,91/14,91 = 0,128

Ikkinchidan, bir mingta xorijiy turistlarga to‘g‘ri keladigan mahalliy turistlarning sonining 808,9 %ga oshganligi turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasini 13,58 %ga (15,49 – 1,91) oshirishga muvaffaq bo‘lgan.

2-omil ta’siri: 15,49 – 1,91 = +13,58 %

Indeks usulida: 15,49/1,91 = 8,102

Uchinchidan, xorijiy turistlarning bir mingta xorijiy tillarni biladigan xodimlarga to‘g‘ri kelishi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan kamayib, 75,8 %ga teng bo‘lgan. Natijada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi ham 3,75 %ga (11,74 – 15,49) kamayishiga olib kelgan.

3-omil ta’siri: 11,74 – 15,49 = -3,75 %

Indeks usulida: 11,74/15,49 = 0,758

To‘rtinchidan, xorijiy tillarni biladigan xodimlarning umumiy xodimlardagi ulushining 117,8 %ga oshganligi turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasini 2,10 %ga (13,84 - 11,74) oshirilishiga erishishga muvaffaq bo‘lgan.

4-omil ta’siri: 13,84 – 11,74 = +2,10 %

Indeks usulida: 13,84/11,74 = 1,179

Barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lgan.

-13,00 + 13,58 – 3,75 + 2,10 = - 1,07 %

0,128 * 8,102 * 0,758 * 1,179 = 0,928.

Bunday hisob kitob natijasi shuni ko‘rsatadiki, tahlil qilinayotgan natija ko‘rsatkichiga omillar ta’siri to‘g‘ri tanlangan va hisob-kitoblar ham to‘g‘ri amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Tahlillar turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasining holatiga ikkita omil ijobiy va ikkita omil salbiy ta’sir qilganligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni kamayib, o‘tgan yilga nisbatan 12,8 %ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichni yaxshilash uchun keskin choralarni ko‘rishni taqozo qiladi. Buning uchun mahalliy turistlarning keskin oshganligiga mos holda sohada kadrlarni ham ko‘paytirish imkoniyatlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bunga Samarqandda imkoniyat bor, chunki sohaga xos kadrlar Turizm xalqaro universitetida va Samarqand iqtisodiyot va servis institutida tayyorlanadi.

Tahlil natijasi bo‘yicha xorijiy turistlarning bir mingta xorijiy tillarni biladigan xodimlarga to‘g‘ri kelishi ham 2022-yilda 2021-yilga nisbatan kamayib, 75,8 %ga teng bo‘lganligi natijada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi ham 3,75 %ga (11,74 – 15,49) kamayganligi Samarqand viloyatiga xorijiy turistlarni ko‘pytirish zaruratini tug‘diradi. Bunga yetarli imkoniyatlar bor. Faqat sohaga e’tiborni yanada kuchaytirish lozim bo‘ladi.

II Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirsh bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar berildi:

1. Turizm sohasida bakalavr va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar va o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ekonometrik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model turizm sohasida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura talabalari soni o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omilllar sifatida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni, mehmonxonalar soni, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar soni va yalpi ichki mahsulotda turizm ulushi o‘rtasida kuchli korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini

ko‘rsatdi. Tahlil jarayonida biz turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining o‘zgarishi turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavr talabalari soniga ta’siri statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqladik. Korrelyatsiya koeffitsienti mos barcha omillar o‘rtasida korrelyatsiya 0,8 dan yuqori natijani ko‘rsatmoqda.

2. Tahlil natijasi turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasining holatiga ikkita omil ijobiy va ikkita omil salbiy ta’sir qilganligini ko‘rsatadi. Jumladan, bir mingta mahalliy turistlarga to‘g‘ri keladigan oliy ma’lumotli xodimlar soni kamayib, o‘tgan yilga nisbatan 12,8 % ni tashkil qilishi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish asosida ushbu ko‘rsatkichni yaxshilash uchun keskin choralarni ko‘rishni taqozo qiladi.

3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo‘llari borasida olib borgan tadqiqot natijasi xorijiy turistlarning bir mingta xorijiy tillarni biladigan xodimlarga to‘g‘ri kelishi ham 2022-yilda 2021-yilga nisbatan kamayib, 75,8 %ga teng bo‘lgan, natijada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi ham 3,75 %ga (11,74 – 15,49) kamayganligini ko‘rsatdi. Bunday holat Samarqand viloyati miqyosida turistlarni jalb etish bilan bog‘liq marketing kabi bozor mexanizmlarini takomillashtirish vositasida xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish zaruratini keltirib chiqaradi. Xorijiy turistlar oqimini ichki turizm bozorida ko‘paytirish esa soha uchun turxizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlab berishga xizmat qiluvchi yuzlab mahalliy yuqori malakali kadrlarni Yevropa davlatlarida mavjud turizm birjalarida faol faoliyat olib borishi kerak bo‘ladi.

4. Oliy ta’lim muassasalarida turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlashda xarajatlarni kamaytirish uslubiyotini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

III BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM INDUSTRIYASI UCHUN YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni hududiy klasterini rivojlantirish modelini o‘zaro bog‘liqligining tahlili

Jahon xo‘jaligida ro‘y berayotgan o‘zgarish xususiyatlaridan biri bugungi kunda, turizm bir qator milliy iqtisodiyotlarning jadal rivojlanib borayotgan va yuqori daromad keltirayotgan istiqbolli tarmog‘iga aylanayotganligi namoyon qilmoqda. Turizmning istiqboliga ishongan va uning imkoniyatlaridan ratsional foydalanish zarurligini tan olgan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar, oqilona makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirmoqdalar va milliy iqtisodiyotni yuksaltirishda samarali natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar. Turizm sohasini rivojlanishi natijasida ko‘lamli miqdor va sifat o‘zgarishlar yuz bermoqda va ular murakkab soha sifatida jamiyat hayotining turli sohalariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Turizmdan unumli foydalanish va murakkab muhitda faoliyat ko‘rsatuvchi ko‘p tarmoqli soha sifatida, o‘z taraqqiyoti jarayonida mamlakat miqyosida xizmat ko‘rsatish sohasidagi tarmoqlarni mavjud muammolarini bartaraf qiladi. Bugungi kunda fan, ta’lim, innovatsiyalarning xo‘jalik amaliyotiga kuchli ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, turizm xizmatlari sohasida ularning ahamiyati yanada yuqori. Bu borada turistik xizmatlarning zamon talabi bilan taqozo etilgan o‘ziga xos xususiyatini ta’kidlamoqchimiz: bugungi kunda didi baland iste’molchilarning talabiga mos keladigan yuqori sifatli servislashtirilgan turistik mahsulot taklif etilishi kerak.

Xizmat ko‘rsatishning bunday darajasiga erishish kasbiy malakasi va bilim saviyasi yuqori malakali kadrlar jamoasini shakllantirish lozim, deb hisoblaymiz. Turizm sanoati iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmog‘i hisoblanishi malakaviy trayyorgarlikka ega xodimlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazarda ushbu paragarafda avvalom bor O‘zbekiston Respublikasida viloyatlar

bo‘yicha aholi, oliy o‘quv yurtlari va unda ta’lim oluvchilar soni va ta’lim muassasalarining ba’zi iqtisodiy ko‘rsatkichlari xususida tahlil vazifalarini amalga oshirishni ta’bir joiz deb bildik (3.1-jadval).

3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim turlari bo‘yicha 2016-2021 yillarda ta’lim olganlar soni[75], (ming kishi)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2020/2021 yilda 2016/2017 yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-)
		2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	
1	Jami ta’lim olganlar	6822,7	6975,8	7199,4	6893,8	6960,0	+137,3
2	Umum ta’lim muassasalarida	4825,0	5271,3	5850,9	6168,2	6287,9	+1462,9
3	Akademik litseylarda	101,3	85,8	71,8	43,2	40,9	-60,4
4	Kasb-hunar kollejlarida	1358,1	1077,4	656,3	239,2	57,0	-1301,1
5	Oliy ta’lim tashkilotlarida	268,3	297,7	360,2	441,0	571,5	+303,2
6	Tayanch doktorantura institutlarida	1,4	1,6	1,8	2,2	2,7	+1,3

Ushbu jadval ma’lumotlarini tahlili mamlakatimizni oliy ta’lim muassasalarida 303,2 ming nafarga, tayanch doktorantura institutlarida 1,3 ming nafarga oshgan. Buning teskari akademik litseylarda 60,4 ming nafar, kasb-hunar kollejlarida 1301,1 ming nafarga

[75] O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami 2011-2020, T.-2021 yil, 70-sahifa.

qisqarganligini ko‘rsatdi.

Yuqoridagi bandlarda ta’kidlaganimizdek bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, mutaxassislarning malakasini oshirish bilan birgalikda turistik xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan zamonaviy islohotlarning tub “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli Oliy ta’lim sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hisoblanadi. 2017-yil 27-iyundagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[76] qarori hisoblanadi. O‘zbekistonda turizm industriyasini malakali raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlashga qaratilgan professional turizm ta’limining zamonaviy modelini amalga oshirish bir qator sabablarga ko‘ra to‘xtab qolmoqda. Mutaxassislarni tayyorlash sifati bilan bog‘liq muammolar hal etilmayapti. Quyida ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda korxonalar mutaxasisslar ishtirokida faoliyat yuritadi. Buni biz turizm industriyasi uchun malakali kadrlar yetishmasligi sharoitida ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining amaliy ko‘nikmalari va aniq mutaxassisliklar bo‘yicha to‘g‘ri bilimga ega bo‘lmaganligi sababli ularga talab yetishmasligida ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, milliy iqtisodiyotimiz tarmoqlarini rivojlantirish uchun jahon turizmi industriyasi talablari darajasida bilimli, yuqori malakali kadrlarni kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha band etishning yechimini to‘la qonli amalga oshmayotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta’lim tizimimizda bir qator yutuqlar bilan birgalikda ba‘zi bir kamchiliklar borligini, Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha qo‘mitasiga tegishli Birlashgan Millatlar

[76] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil, 20-apreldagi 2909-sonli Qarori.

Tashkilotining (YUNESCO) va konsalting tashkiloti (DGP Research & Consulting) jalb qilingan xorijiy nufuzli ekspertlar guruhi tomonidan 2017-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini kompleks o‘rganishda o‘tkazilgan tahlillar bo‘yicha natijalari ko‘rsatdi. Bular asosiy beshta kamchilik mavjudligi bo‘yicha xulosalarda o‘z aksini topdi. Bular quyidagilardan iborat:

- oliy ta’lim muassasalarida nazariya va amaliyotlarning birga olib borilmasligi ko‘rsatib o‘tilgan;
- talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida malakaviy amaliyotlarini o‘tkazish samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli aksariyat bitiruvchilar tayyor mutaxassis bo‘lib chiqmasdan ular, ishga joylashganlaridan sungra qaytadan o‘z kasbini, mutaxassisliglarini o‘rganayotganligini;
- ta’lim tizimida nazorat qilish sifati takomillashtirilmaganligi, mavjud mexanizmlarning zamon talabiga javob bermasligi;
- oliy ta’lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribaga ega o‘qituvchilar va xodimlarning yetishmasligi ;
- oliy o‘quv yurtlari bilan xorijiy ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik yetarlicha samarali tashkil qilinmaganligi sababli ayrim kamchiliklar qayd etilgan.

Turizm yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar yetishtiradigan oliy ta’lim fan, innovatsiyalar va o‘quv markazlar, o‘quv yurtlari sonining ko‘payishi munosabati bilan sohada zamonaviy kasbiy, bilimli va yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Shu munosabat bilan turizm sohasining yuqori malakali kadrlar o‘rtasida mahorat darslarni tashkil etish, ma’ruzalar o‘qish va seminarlar o‘tkazish, ilmiy-amaliy konferensiyalarida ishtirok etish, turizm muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, turizm korxonalarida turli ko‘rinishdagi amaliyotlarga yetakchilik qilishda hali ham kam jalb qilinmoqda. Yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi turizm ta’lim tizimini zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, ko‘plab fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari bilan ta’minlash masalalarida muvofiqlashtirish yetarli emas. Qoida tariqasida, turizm ta’limi

tizimida amalga oshirilayotgan yuqori malakali kadrlarni bilimini oshirishni tashkil qilishni va ularning malakasini oshirishda dasturlari rasmiy xarakterga ega bo‘lib talabalarga zarur zamonaviy amaliy kasbiy bilim va ko‘nikmalarni bermaydi .

Shuningdek, kelgusida kadrlar tayyorlash bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish, bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish, soha uchun zarur mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta’minlashda iqtisodiyot tarmoqlarining qatnashmasligi bu sohada olib boriladigan ishlari doirasidagi talabga javob bermasligshi mumkun. Ish beruvchilar tomonidan oliy ta’lim dasturlari o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga mos kelishini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmayapdi. Mavjud oliy ta’lim fan, ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida kamchiliklar uchraydi va ularning integratsiyasi to’liq ta’minlanmagan. Oliy ta’lim muassasalarining tajribali ilmiy va malakali o‘qituvchi kadrlarni tayanchini tayyorlayapti xolos. Bunday holat oliy ta’lim tizimida ilmiy salohiyatini ko‘tarishni talab etadi.

Bu esa milliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarga nisbatan mehnat bozorida talabini oshishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotimiz natijalari 2021-yilda Samarqand iqtisodiyot servis institutini turizm yo‘nalishidagi turli mutaxassisliklar bo‘yicha bitiruvchilarining 90-95 %i o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin[77].

Bugungi kunda turizm sohasidagi ta’lim muassalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan biri, eng muhimi, manfaatdor tomonlar: ish beruvchi-lar, davlat organlari, ta’lim o‘quv yurtlari, jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvga va muloqotiga asoslangan yuqori samaradorlikka olib keluvchi ko‘p tarmoqli klasterli yondashuvni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Turistik klaster, turistik zonalar, turistik industriyadagi xizmatlarni tashkil etishda tadbirkorlik subyektlarini

[77] SamISI Marketing bo‘limi ma’lumotlari asosida mualif tomonidan ishlab chiqildi 2016-2021 y.

qo‘llab-quvvatlash vazifalari ham dolzarbligicha qolmoqda”[78]. Shu jihatdan klaster yondashuvga o‘tish zaruratini tadqiqotimiz mavzusi doirasida tadqiq etish avvalo, turizm sohasi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun samaradorligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlarning samarali jihatlarini ko‘rsatib berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Klasterli yondashuv iborasi turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlash jarayonida klaster subyektlarini o‘zaro o‘z-o‘zini hamda barcha ishtirokchilarni rivojlantirishi tushuniladi, bu sheriklikning barqaror rivojlanishi asosida amalga oshiriladi, bu ikki tomonlama yoki ko‘p qirrali o‘ziga xos afzalliklarining oshiradi[79].

Bizningcha, turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash klasteri bu ishtirokchilarning rollarini belgilaydigan va ularning faoliyatini tartibga soluvchi muayyan shartnoma munosabatlari bilan birlashtirilgan umumiy maqsad asosida hamkorlikda harakat qiluvchi subyektlarning yig‘indisidir. Boshqacha aytganda taklif etmoqchi bo‘lgan turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash klasterimiz, qaysidir tomondan, mukammal hisoblanadi. Chunki turizm industriyasi korxonalari bilan hamkorlikda birlashgan o‘zaro bog‘langan malakali mutaxasislarni ta’lim muassasalari majmuidir; boshqa tomondan, fan-texnologiya-biznes innovatsion zanjirida asosan zanjir ichidagi gorizontal bo‘g‘inlarga asoslangan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, o‘zaro ta’lim va o‘z-o‘zini o‘qitish vositalari tizimi hisoblanadi.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash klasteri barcha ta’lim muassasalarini umumta’lim maktablaridan tortib oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan o‘quv yurtlarini qamrab olishi kerak. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash klasteri tarkibiga kiruvchi mazkur ta’lim muassasalarining asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil etadi: **birinchidan**, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash

[78] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 176 b.

[79] Бойцов А.С., Костяев А.И. К вопросу о теории кластеров и кластерном подходе // Экономика селскохозяйственных и перерабатывающих предприятий, 2009. С. 25 – 31 б.

sifatini oshirish; **ikkinchidan**, Samarqand viloyat maktablarida o‘quvchi-yoshlarni ixtisosligini takomillashtirish.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash klasteri doirasida o‘quv jarayonining yangi ko‘nikmalar va qobiliyatlar shakllantirishining amaliy jihati hisobga olinadi, shuningdek, o‘quv jarayoniga talabaga bilim olishga yordam beradigan mutaxassislar jalb qilinadi.

Monografiyamiz tadqiqoti davomida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni klasterining tarmoqlararo va idoralararo xususiyati uning tarkibiga quyidagi turdagi muassasalarni kiritishni nazarda tutdik: ta’lim sohasidagi tegishli yo‘nalishlar iqtisodiyot tarmoqlarini hamda (hududiy) (Samarqand viloyati hokimligini, Samarqand viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi); - tarmoqlarni faoliyatiga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalaridan (Samarqand “Ipak Yo‘li” xalqaro turizm universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat universitetilari va Samarqand Davlat chet tillar instituti); - iqtisodiy faoliyatning ushbu sohalarida asosiy ish beruvchilar bo‘lgan “qo‘llab-quvvatlovchi” tashkilotlar (tijorat tuzilmalari); - ixtisoslashgan sohalarda faoliyat yurituvchi notijorat kasbiy tuzilmalar, uyushmalar; - iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi tijorat tashkilotlari, jamg‘armalar va boshqalar.

Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash klasterini shakllantirishda uning subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Biz taklif etayotgan tuzilmada axborot bazasi klaster unsurlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishning asosiy dastagi bo‘lib xizmat qiladi. Klaster subyektlarining axborot bazasi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatishga tizimli yondashish asosida yaratiladi. Yuqorida ta’kid etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni hududiy klaster modelini quyidagicha tasvir etish mumkin (3.1-rasm).

Klaster yondashuviga o‘tish zarurati turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarning tayyorlashda tarmoqlarning samaradorligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlarning sa’y harakatlarini

birlashtirishni tashkiliy shakli sifatidagi klasterning afzalliklari bilan izohlanadi.

Ushbu rasmda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasteri murakkab tuzilmadan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu tuzilmalar quyidagilardan iborat:



3.1-rasm. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterining tuzilishi[80]

Mahalliy turizm industriyasi; turizm sohasi uchun mutaxasisslar tayyorlaydigan Oliy ta’lim muassasalari; mehnat bozori; davlat organlari va jamoat tashkilotlari; turistik korxonalar va boshqalar.

Tadqiqotimiz davomida turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasteri murakkab tuzilmalarining funksiyalari haqida to‘xtalib o‘tdik. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

[80] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1. Turizm industriyasi uchun kadrlarni tayyorlashda zamonaviy standartlarni joriy etish vazifalarini belgilab beradi;

2. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasi bilan belgilangan standart doirasida Oliy ta'lim muassasalari shug'ullanadi;

3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab va taklif orasida asosiy vositachilik vazifasini mehnat bozori amalga oshiradi;

4. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning huquqiy nazoratini ta'minlaydi va davlat sherikchilik mexanizmini ishtirokchiligiga imkoniyat yaratish vazifasini davlat tashkilotlari bajaradi;

5. Mavjud jamoat tashkilotlari esa turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni sifatiga alternativ yondashuvlarni amalga oshirish vazifasini hal etadi;

6.Turistik korxonalar va tur firmalar - turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni asosiy iste'molchi vazifasini bajaruvchi birlik sanaladi.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biri bu hududlarda klaster siyosatini amalga oshirish deganda:

Birinchidan, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterlar yangi texnologiyalar, bilimlar, mahsulotlarni o'z ichiga olib, qo'shma ilmiy bazaga asoslangan barqaror taqsimot tizimini anglatadi.

Ikkinchidan, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasteri subyektlari ichki ixtisoslashuv va standartlashtirishni amalga oshirish, innovatsiyani joriy etish orqali xarajatlarini minimallashtirish imkoniyatlariga ega bo'lgan qo'shimcha raqobatbardosh afzalliklarga ega.

Uchinchidan, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterlarning muhim xususiyati, ularning tarkibida hudud iqtisodiyoti innovatsion o'sish nuqtalarni shakllantirishga imkon

beradigan moslashuvchan tadbirkorlik tuzilmalari-kichik korxonalarning mavjudligidir.

To‘rtinchidan, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterlar malakali darajadagi ixtisoslikka ega mehnat resursi bilan ta’minlaydi, shu bilan birga ularni sanoat korxonasi kapitaliga ishtirok etishni tushunish kerak.

Bizning nuqtai nazarimiz shundan iboratki, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterlar O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning yetakchi vositasi bo‘lishi mumkin. Klasterg asosida turizm bilan shug‘ullanadigan va faoliyati turizm bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar faoliyat yuritishi kerak. Bundan tashqari, klaster a’zolari geografik joylashtirilgan va ularning faoliyati aniq tashkil etilgan bo‘lishi lozim.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klaster modelini joriy etishning asosiy vazifasi bu tadbirkorlar psixologiyasini o‘zgartirish, bu ularning umumiy iqtisodiy manfaatlar yo‘lida klaster birlashmalari barcha a’zolarining halol, ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatlarini tushunishiga olib keladi. Shunday qilib, turistik klaster (ingl. cluster-tutam, bir bosh) - ma’lum bir hududda to‘plangan o‘zaro bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlar guruhi (asbob-uskunalar yetkazib beruvchilar, tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar, ilmiy va ta’lim muassasalari) bo‘lib, bir-birini to‘ldiruvchi va alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, butun klaster va umuman mahalliy hudud raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlaydi. Bunda klaster subyektlari o‘z mustaqilligini butunligicha saqlab qoladi.

Hozirgi kunda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: ishbilarmonlik muhiti sifati va tarmoq birlashmalarining samaradorligining pastligi, biznes va ilm-fan vakillari o‘rtasida yetarlicha yuqori darajadagi ishonch, ilmiy-tadqiqot markazlari va tadbirkorlar o‘rtasidagi zaif aloqalar, klaster talablaridan kelib chiqqan ta’lim dasturlarining mavjud emasligi va boshqa samarasiz holatlar.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterlari bilan bog‘liq muammolarni aniqlashning quyidagi algoritmini taklif etamiz.

1.Marketing tadqiqotlari, tegishli bozor segmentlarini tahlil qilish va jahon bozorini hisobga olgan holda hududning mavjud ixtisoslashuvi va resurs salohiyatiga muvofiq mahsulot va xizmatlarning istiqbolli turlari uchun zarur yuqori malakali kadrlar turini aniqlash;

2.Prognoz bosqichi (tanlangan mutaxasisliklar bo‘yicha bozor tendensiyalari). Ushbu bosqichda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning hududiy, respublika va jahon ishlab chiqarish narxlari dinamikasi va hajmlarini o‘rta va uzoq muddatli prognozlashga amalga oshirish;

3. Malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klaster tuzilmasini shakllantirishda manfaatdor korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlash. Bunda malakali kadrlar tayyorlashda tegishli korxona va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi va faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlil qilish;

4. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterni rivojlantirish uchun resurslar mavjudligini aniqlash.Istiqbolli mahsulotlar, xom ashyo, moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa imkoniyatlar bilan ta’minlangan korxonalar tahlil qilish;

5. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterlar faoliyati uchun zarur bo‘lgan infratuzilma elementlarini yaratish imkoniyatlarini tahlil etish. Klaster infratuzilmasi salohiyati (transport, logistika, energetika, axborot) tahlil etish;

6. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterning salohiyatli ishtirokchilari (ishlab chiqaruvchilar, ta’minotchilar) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir darajasini aniqlash. Ushbu yakuniy bosqichda istiqbolli korxona va tashkilotlar rahbarlarining anketa so‘rovi asosida klasterning salohiyatli ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik darajasi aniqlash.

Tarmoqlararo sherikchilik va o‘zaro munosabatlarsiz turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klaster modelini rivojlantirib bo‘lmaydi. Klasterning asosiy g‘oyasi bu hamkorlikni rivojlantirish. Albatta, unga erishish oson emas. Klasterni tashkil etish va ishga tushirish bu o‘ziga xos mantiqqa ega bo‘lgan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Klaster nafaqat analitik vosita, balki tarmoq va hududning rivojlanishidagi tashkiliy vosita funksiyasini ham amalga oshiradi.

Klasterning texnologik komponenti juda muhimdir, bu o‘z navbatida yuqori darajadagi ixtisoslikka ega yuqori malakali kadr bilan ta’minlaydi. Bular menejerlar, marketologlar, logistika mutaxasislari, gidlar va boshqa hakozolar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klaster tizimini rivojlantirishning barcha bosqichlarida marketing tadqiqotlarini olib borish muhimdir.

Tadqiqotimiz davomida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterini SWOT-tahlilini amalga oshirishni ta’bir joz deb bildik.

Natijada klasterning SWOT-tahlili to‘rtta tarkibga ajratildi, ya’ni Strengths (kuchli tomonlari), Weakness (zaif tomonlari), Opportunities (imkoniyatlari) va Threats(xavf-xatarli) quyidagi 3.2-jadvalda harbirini alohida-alohida tahlil qilib keltirdik.

Yuqorida keltirilgan turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterining SWOT-tahlilini 3.2-jadvali bizga turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar bo‘lib yetishish uchun bozor talabining yildan-yilga oshib borayotganligi, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mamlakatimizda mavjud yuqori salohiyatidan ratsional foydalana olmayotganligi

tufayli turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida turistik hududiy klasterlarni shakllantirish zaruriyatini hamda, turizm sohasiga bilimli malakali kadrlarni tayyorlashda amalga oshirilgan tadbirlarni hamma vaqt ham rentabelli va optimal natijalarga olib kelmasligi va mahalliy kadrlarning xorijda ko‘proq daromad olish

manfaatida “aql eksportini” shakllanishi, kadrlar qo‘nimsizligini kuchayishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotlarimizning natijalari turistik korxonalarini bir necha turpaket loyihalardan eng muqobilini tanlab olishga majburlaydigin sabablardan biri ularning daromadliligi va samaradorligidir.

3.2-jadval

Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterining SWOT-tahlili[81]

Kuchli tomonlari	**Kuchsiz tomonlari**
1. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash obyetlari hududlarida turizmning mavjud yuqori geografik va tabiiy salohiyati; 2. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi OTMlar mavjudligi; 3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bo‘lib yetishish uchun bozor talabining yildan-yilga oshib borayotganligi va daromadli turpaketlarni taklifini ortishi; 4. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan hukumatning konseptual siyosatini ishlab chiqilganligi; 5. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun huquqiy, siyosiy va iqtisodiy kafolatlarning ta’minlanganligi.	1. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mamlakatimizda mavjud yuqori salohiyatidan ratsional foydalana olmayotganligi; 2. Tayyorlangan yuqori malakali kadrlar turxizmatlari sifatining, mahalliy turistik korxonalar talab me’yorlariga nomutanosibligi; 3. Xorijiy investitsiyalar bilan ta’minlanganlikning zaifligi; 4. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda hududiy turistik klasterlarning shakllantirilmaganligi; 5. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta’lim fan, hamda ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasida aloqalarning zamonaviy turindustriya talablari asosida rivojlanmaganligi.
Imkoniyatlar	**Tahdidlar**

[81] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1. Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha dasturlari va chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi; 2. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mo‘tadil investitsiyalar muhitining shakllanganligi; 3. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida samaradorlik ko‘rsatkichiga ega turistik hududiy klasterlarni shakllantirish zaruriyati; 4. Turistik korxonalarning yuqori malakali kadrlar turxizmatlariga bo‘lgan talabning oshib borish imkoniyatining mavjudligi; 5. Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirish va boshqalar.	1. Jahon turindustriyasida mavjud kadrlar qo‘nimsizligi tendensiyalarini mahalliy yuqori malakali kadrlar turxizmatlariga nisbatan salbiy ta’sirining mavjudligi; 2. Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda amalga oshirilgan tadbirlarni rentabelligi hamisha optimal natijalarga olib kelmasligi; 3. Xalqaro turizm bozorida yuqori malakali kadrlar xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘ta tebranuvchanligi, sifatli turxizmatlarga nisbatan narx konyu’kturasidagi nomutanosibliklar; 4. Jahon turindustriyasini kuchli raqobat sharoitida yuqori malakali kadrlar turxizmatlariga bo‘lgan sifatli turxizmat ko‘rsatish standart va talablarining doimiy o‘zgarib turishi.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterining SWOT-tahlili turpaket loyihalarining samaradorligini oshirishning muqobil yo‘li doimiy xarajatlarni kamaytirishdir degan xulosani beradi. Masalan, korxonada ma’muriy-boshqaruv tizimida yuqori malakali xodimlarning malakasini oshirish yoki sifat xizmat ko‘rsatish layoqatili xodimlarni tanlash doimiy xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan turpaket loyihalarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi navbatdagi omil o‘zgaruvchan xarajatlarni kamaytirishdan iborat. Ushbu muammoni hal qilish yo‘llari sifatida turistik korxonaning yuqori malakali kadrlar ta’minlanish tizimini optimallashtirish masalasini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Turizm sohasi faoliyatiga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish orqali amalga oshiriladigan samarali natija ko‘rsatkichiga ega turpaket loyihalarni yaratish va qo‘llash amaliyoti mahalliy va g‘arbiy

yondashuvlarning ayrim usullari, jumladan, loyihalarni tahlil qilish, tayyorlash va amalga oshirish usullariga asoslangan.

Turpaket loyihalar samaradorligini baholashda ba'zi xususiyatlarni o'z ichiga oladi, u quyidagi uch bosqichda amalga oshirilishi kerak:

1. Yillar bo'yicha dastlabki ko'rsatkichlarni hisoblash.

2.Malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash.

3. Turpaket loyihalar samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash.

Turpaket loyihalar samaradorligini baholashning birinchi bosqichi bo'yicha hisoblash ishlariga daxldor raqamlar va moliyaviy ma'lumotlarni turizm xo'jalik subyektlarining statistik hisobotlari hamda buxgalteriya balanslari asosida to'ldirish maqsadga muvofiq. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 2 ta turistik korxonalar misolida turpaket loyihalar samaradorligini hisoblash jarayonida foydalanish uchun zarur bo'lgan moliyaviy ma'lumotlar jadvalini tuzdik (3.3- jadval).

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyat kengashi qoshidagi "Kasaba Samarqand" sayyohlik agentligida loyihaning dastlabki bosqichida moliyaviy qo'yilmalarni asoslab berish uchun samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagi ketma-ketlikda hisoblanadi.

Hisoblash koeffitsienti 3.3-jadvalning (4 ustunida) 17 % li diskontlash stavkasi bo'yicha keltirilgan.

3.3-jadval

Kasaba Samarqand sayyohlik agentligida turpaket loyihasida daromadlar hajmini va kreditlarni hisoblash (foiz stavkasi 17 %)[82]

[82] "Kasaba Samarqand" sayyohlik agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yillar	Sof pul oqimi, mln. so‘m	Kreditlar, mln. so‘m	Foiz koeffi sienti	Daromadlashgan pul oqimi mln. so‘m	Kredit asosida investitsion qo‘yilmalar, mln.so‘m
2021	140,0	45,0	0,624	87,36	28,08
2022	128,7	45,0	0,534	68,72	24,01
2023	155,7	-	0,456	70,99	-
2024	55,5	-	0,390	21,64	-
2025	100,4	-	0,333	33,43	-
Jami	578,6	90,0	-	279,31	52,09

Turpaket loyihalar samaradorligini baholashning ikkinchi bosqichida ma’lumotlar asosida tadqiq etilayotgan turistik korxonalar bo‘yicha yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlikni iqtisodiy samaradorligini hisobladik.

2. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqildi:

1) Sof keltirilgan daromad (NPV) - bu hisobot davrida xarajatlarining natijalardagi farqi, ya’ni, pul oqimi (natijalari) va kredit investitsiyalar qo‘yilmalari (xarajatlari)ni hisobga olgan holda hisoblash.

$$NPV = CF – KI \qquad (2.6)$$

Bu yerda, CF-Daromadlashgan pul oqimi; KI-kreditlashgan investitsiya qo‘yilmalari.

NPV=279,37-52,09=227,28 (mln.so‘m)

2) Daromadlilik ko‘rsatkichi (PI) - bu keltirilgan daromadlarning shu muddatga keltirilgan xarajatlarga nisbatidagi munosabatidir. Daromadlilik ko‘rsatkichi tadbirkor ushbu loyihani amalga oshirish natijasida kredit asosida moliyalashtirgan har bir so‘miga qancha daromad olishini ko‘rsatadi. Daromadlilik ko‘rsatkichini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshirilishi kerak:

$$PI= IF/DI \qquad (2.7) \qquad PI =279,37/52,09=5,36$$

3) Loyihani qoplash muddati (PP) - loyihani amalga oshirishdan boshlab jami qilingan xarajatlar qoplangunga qadar minimal vaqt oralig‘idagi davr tushuniladi. Qoplash muddati quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$PP = DI/ DCFay \qquad (2.8)$$

bu yerda, DCFay –diskontlangan pul oqimi miqdori o‘rtacha yil hisobida.

PP = 227,28 /(279, 37/7) = 5,63 (yilda)

Hisob-kitoblarimiz natijasidan ko‘rinib turibdiki, ushbu loyiha 5 yil-u 6 oy-u 3 kunda o‘zining muddatini qoplaydi.

Shu bilan birgalikda, Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan ikkita turistik korxonalarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va baholash monografiyasida tahlil qilingan ikkala turistik korxonalarning natijalari keltirilgan (3.4-jadval).

3.4-jadval

Samarqand viloyatidagi turistik korxonalar samaradorlik ko‘rsatkichlari natijalari[83]

№	Turistik korxonalar	Sof keltirilgan daromad (NPV), mln. so‘m			Daromadlilik indeksi, (PI)	Loyihani qoplash muddati (PP), yil
		Kredit foiz stavkasi				
		17 %	21 %	22 %		
1	Bo‘ston Travel	33,8	15,0	-7,1	1,11	4,42
2	Kasaba Samarqand	511,14	199,449	130,249	1,18	5,92

Tahlil natijasidan ko‘rinib turibdiki, 2 ta turistik korxonalar o‘rtasida “Kasaba Samarqand” korxonasining sof keltirilgan daromad ko‘rsatkichi hamda 17, 21, 22 foizli stakalarda ham yuqori natijani ko‘rsatdi. Olingan natijalar turpaketni nafaqat samarali, balki jozibador va investor qaror qabul qilishi uchun aniq natijalarni ko‘rsatdi.

Ushbu korxonada daromadlilik indeksi ham, qolgan 1 ta korxonaga nisbatan yuqori. Bizga ma’lumki, PI >1 bo‘lganda, turpaket samarali hisoblanadi, shu nuqtai-nazardan ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ham “Kasaba Samarqand” sayyohlik agentligi samaraliroq hisoblanadi. Turpaketni qoplash muddati ko‘rsatkichi bo‘yicha esa “Bo‘ston Travel”

[83] Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan ikkita turistik korxonalar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

korxonasining natijasi yaxshi. Sababi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, turpaketni qoplash muddati bo‘yicha belgilangan me’yor 5 yil. “Bo‘ston Travel” korxonasining ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha natijasi 4 yilu 4 oyu va 2 kunni tashkil etmoqda. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha aynan shu turpaketimiz samaraliroq hisoblanadi. Foydaning ichki me’yori ko‘rsatkichi bo‘yicha ham “Bo‘ston Travel” turistik korxonasining natijasi yuqori. Foydaning ichki me’yori ko‘rsatkichi qancha past bo‘lsa, loyiha shuncha samaraliroq bo‘ladi.

Tahlildan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, to‘rtta ko‘rsatkich bo‘yicha yuqoriroq natijaga ega bo‘lgan korxona “Kasaba Samarqand” sayyohlik agentligi hisoblanadi.

Turizm xizmatlari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari umumiy iqtisodiy qonun va qoidalarga bo‘ysunadi, lekin ushbu tarmoqni o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etgan holda amalga oshadi. Tadqiqotimizda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining ustun rivojlangan yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish muammosini hal etish jihatidan turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun sifatli mehnat resurslarning yetarli emasligi va bu holat turizmni yuqori sur’atlar bilan taraqqiy ettirish talablariga javob bermayotganligi aniqlandi. Ushbu dolzarb muammolarning asosiy yo‘llaridan bo‘lib - turistik mehnat resurslaridan innovatsion asosda foydalanish orqali ularning samaradorligini oshirish ekanligi to‘g‘risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi. Ana shu maqsadda monografiyaning navbatdagi paragrifida. Tadqiqotimizning ushbu tahlilaridan kelib chiqib quyidgi gipotezani taklif etamiz; Samarqand viloyatida 1000 dan ortiq turistik korxonalar mavjud deb hisoblab ularda turizm industriyasi talablaridan kelib chiqib yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari uchun sarf etiladigan xarajatlar miqdor ko‘rsatkichlari va bu xarajatlarning daromad ko‘rinishidagi qaytimi samaradorlikning potensial ahamiyatga ega natijasini berishi mumkin degan taxminni keltirib chiqaradi.

3.2. O‘zbekistonda turizm sohasini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish

Tadqiqotimiz natijalari, milliy turizm uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda davlat bir necha yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlash faoliyatini oshirishga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. Shu maqsadda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’minlashni quyidagi mexanizmini taklif etamiz. Biz tomonimizda taklif etilgan turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’minlash mexanizmi turizm sohasi uchun oliy ta’lim fan, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarning natijalarini takomillashtirish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, turizm yo‘nalishida ta’lim olayotgan talaba yoshlar uchun kompleks chora-tadbirlarni shakllantirish, turizm sohasida ta’limni ilmiy-tadqiqot institutlarini va ishlab chiqarish korxonalarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlash imkoniyatini yaratishga turtki bo‘ladi degan fikrdamiz. Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’minlash mexanizmidan kelib chiqib quyidagi amaliy takliflarni berdik:

Birinchidan, davlatning turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’minlashning asosiy dastagi hisoblanadi;

Ikkinchidan, turizm sohasiga qarashli bo‘lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda grantlar, subsidiyalar va investitsiyalardan foydalanib moliyaviy yordam ko‘rsatish vositalarini qo‘shimcha harakatga keltiradi;

Uchinchidan, turizm sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashuviga imkon beradi.

Bizningcha, davlatning turizmni rivojlantirish siyosatida muhim o‘rinlardan biri turizm sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlashning muhim yo‘nalishi sohada, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash lozim. Keng ma’noda ushbu sheriklikni davlat va xususiy sektorning manfatlarini muvofiqlashtirishning va o‘zaro

bog‘liq holda harakat qilishini ta’minlashning huquqiy mexanizmi sifatida talqin qilish mumkin[84]. Davlat organlarini hamda biznes o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik o‘rnatish ijtimoiy taraqqiyot nuqtai-nazaridan muhim bo‘lgan vazifalarni bajarishda ularning imkoniyatlarini birlashtirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, xorijda ancha ilgari boshlangan va amaliyotda o‘zining yaxshi natijalarini bergan turizm sohasidagi davlat-xususiy sherikligining ilg‘or tajribasidan biz ham unumli foydalanishimiz, sayyohlarni jalb qilishning muhim omiliga aylantirishda xususiy sektorning ishtirokini faollashtirish imkoniyatlaridan mamlakatimizning tarixiy-madaniy va tabiiy boy turistik salohiyatidan unumli foydalanmog‘imiz kerak. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’minlash bugungi kunda obyektiv zaruriyatga aylangan.

Qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririda ham sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishda davlatning turizmni tartibga solish siyosatini muhim yo‘nalishlari sifatida belgilangan turistlar uchun jozibadorligini ta’minlashda xususiy sektor faol ishtirirok etishi» mumkin, degan fikrdamiz. Mamlakatimizda davlat-xususiy sherikchilikning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilnig 10-mayda qabul qilingan “Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq yaratildi. Ushbu qonunga muvofiq davlat-xususiy sherikchilik bu davlat sherigi va xususiy sherikchilik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan o‘zaro hisoblanadi[85]. Ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga qaratilgan mexanizmini ishlab chiqdik (3.2-rasm).

[84] Davlat-xususiy sheriklik. //https://zamin.uz.; O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etishning jahon tajribasi. //https://biznes-deily.uz; Государсвенно-частное партнерство и инвестиционная деятелност. //https://sibac-info/conf.; Сущност и исторической генезис государственно-частного партнерства в сфере туризма. // https:// yandex.ru.

[85] O‘sha manba.

Hozirgi bosqichda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan xo‘jalik subyektlarining asosiy qismi kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalari bo‘lib, O‘zbekistonda turizmni boshqa raqobatbardosh mamlakatlarga nisbatan jadal rivojantirishlari uchun ko‘plab mehmonxonalar qurilishi kerak, yo‘llar yaxshilanishi, aeroportlar kengaytirilishi lozim bularni kelgusida davlat-xususiy sheriklik bilan tashkil etish, turizm sohasini rivojlantiradi. Yurtimizda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari, 122 ta muzeylar mavjud. Ularni yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashda davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil qilish Yurtimizga keladigan sayyohlarni va ichki sayyohlarni 4-5 kun olib qolish uchun barcha imkoniyatdan foydalanilsa turizm eksportini oshiradi bizning fikrimizcha.

Masalan, hozir aeroport sig‘imi 2,5 mln. yo‘lovchiga mo‘ljallangan bo‘lsa, unga talab 5 mln. hisoblanadi, bir ikki yil o‘tib u 10 mln.ga yetishi ham mumkin[86]. Bunday jiddiy muammolarni hal etishda davlat-xususiy sherikligi asosida investitsiyalarni jalb etish muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning 29-aprelida qabul qilingan PQ-4300-sonli Qaroriga muvofiq umumiy qiymati 2 mlrd. AQSh dollaridan ortiqroq bo‘lgan 15 ta loyiha qabul qilindi[87].

[86] Davlat-xususiy sherikchilik. // https:// zamin.uz.

[87] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4300-sonli “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2019 -yil *29*-aprel.



3.2-rasm. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini oliy ta’lim xizmatlari va bitiruvchilar raqobat bardoshligini o‘zaro integratsiyasi[88]

Lekin bunday yirik loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan investitsion resurs imkoniyatlari chegaralangan. Ayni vaqtda, turistik xizmatlar bozorida mamlakatlar o‘rtasida tobora keskinlashib borayotgan raqobat muhiti sharoitida boshqarishning iste’molchi talablariga, uning uzluksiz o‘zgarib borayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan usullarni qo‘llashni taqozo etadi. Hozirgi davrda raqobat kurashida katta muvaffaqiyatga erishish uchun sifatni oshirish, xarajatlarni pasaytirish, mahsulot sotish hajmini ko‘paytirishning o‘zi bo‘lmaydi. Tezlik bilan o‘zgarib borayotgan bozor kon’yukturasiga moslasha olish, iste’molchi talablarini aniqlash va uni bekamu ko‘st qondirish tezkor strategik ahamiyatga ega choralarini ko‘rish zarur. Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, O‘zbekistonda turistik xizmatlar yo‘naltiruvchi bozorlarining, mintaqaviy turistik mahsulotlarni xorijiy iste’molchilarga taklif etuvchi, yuqori malakali kadrni tayyorlovchi samarali mexanizmlari yaratilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, turizm sohasida yuqori malakali, tajribali kadrlarni tayyorlashda davlat sektori bilan xususiy sektor imkoniyatlarini birlashtirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik. “Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida”gi davlat va xususiy biznes sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan Qonun asos bo‘ldi”[89]. Bu masalada ijtimoiy tashkilotlar ham xususiy sektor bilan birga harakat qilishlari maqsadga muvofiq. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning davlat-xususiy sherikchilik modeli taklif etildi (3.3-rasm).

Bizning fikrimizcha, turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning davlat-xususiy sherikchilik taklif etilgan modelini amaliyotga tatbiq etish turizm sohasi tashkilotlarining rivojlanishi va samaradorligini oshishiga, bir nechta yangi tashkilotlarni vujudga

[88] Muallifning tomonidan ishlab chiqildi.

[89] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. - T.: 2019 yil. 10-may.

keltirishni rag‘batlantirishga, raqobatbardosh yangi turmahsulotlarni joriy qilishga, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi.



3.3-rasm. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning davlat-xususiy sherikchilik modelini tarkibiy tuzilmasi[90]

Turizm sohasining yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning davlat xususiy sherikligi modelida “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlari, xususiy investisiyalar va hissadorlik mablag’larini jalb qilishning “sinergetik samara” beruvchi turli nisbatdagi taklifi asoslangan.

Bugungi kunda turizm sohasi samaradorligini oshirish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Buni tashkil qilishning qulay mexanizmlaridan biri davlat xususiy sheriklik asosida faoliyatni bilashtirishni taqozo qiladi. Chunki, turizmni faqat xususiy sektor ixtiyoriga tashlab qo‘yish ham bo‘lmaydi va faqat davlat tomonidan monopoliya qilib olishi ham sohada

[90] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘siq bo‘ladi. Ushbu masalaga yechim topish uchun davlat xususiy sherikchilik mexanizmiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Buningi uchun turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash lozim bo‘ladi. Shu bilan birga yangi turistik marshrutlarni, turistik tashkilotlarni davlat xususiy sherikchilik asosida tashkillashtirish ham o‘ta muhim hisoblanadi. Bularning o‘zaro bog’liqligi quyidagi tarzda bo‘lishi asoslandi (3.4-rasm).



3.4-rasm. Turizm sohasini rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yangi turistik marshrutlarni, turistik tashkilotlarni davlat xususiy sherikchilik asosida tashkillashtirishning o‘zaro bog‘liqligi

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi turistik maskanlardan “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlari YUNESKOning ro‘yxatida bo‘lishiga qaramasdan, turizm sohasida juda kam foydalanilmoqda. Zero, ushbu obyektlardan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda ham keng foydalanish mumkin. Bunday rejalarni intensiv amalga oshirish uchun ushbu obyektlarga turistik infratuzilmani shakllantirishda xususiy investisiyalar va hissadorlik mablag’larini jalb qilish samarali natijalarni berishi mumkin .

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, ushbu jarayonda “sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinasiyalari”dan foydalanish ham lozim bo‘ladi. Shu yo‘l bilan turistik obyektlar joylashgan hududlarda turistik faoliyat samaradorligini oshirishga, yangi turistik tashkilotlarni tashkil etishga, yangi turmahsulotlarni joriy qilishga erishiladi. Bular esa o‘z navbatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishni ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Yangi turistik maskanlardan “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlarini turistik marshrutlarga kiritishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bu borasida Nasiba Jonto’rayevaning keltirgan ma’lumoti diqqatga sazovar. U kishining ta’kidlashicha “Sheroz qal’a o‘zining tarixiyligi bilan ham faxrlanishga arzirli maskan. Sohibqiron Amir Temur harbiy yurishlari davomida Eronni qamal qilib, Sheroz qal’asini olishda qiynaladi. Shu sabab Samarqandga kirishda, har tomonlama qulay bo‘lgan bu maskanda 1396-1402 yillari mustahkam qal’a bunyod etadi. Bu joy Sohibqiron tomonidan bejiz tanlanmagandi. Qal’ani 20 metr chuqurlikdagi Bulung‘ur, ya’ni loyqa ariq o‘rab turadi. Ariqning eni 18-20 metr bo‘lib, tik holatda bo‘lganligi uchun ham hech bir dushman kira olmagan. Atrofida 9 ta buloq bo‘lib, bugungi kunda ularning 3 tasi saqlanib qolingan”[91], degan ma’lumotni bergan. Ushbu tarixiy maskan turistlar uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan obyekt. Buni turistik marshrutga kiritish mexanizmini ishlab chiqdik.

Yana bir tarixiy obida Samarqand bilan Buxoro shaharlarini o‘zaro bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘li marshrutida joylashgan qadimgi shaharlar ichida eng yirigi va ahamiyatlisi bu Dobusiya shaharchasidir. Arxeolog olim Amriddin Berdimurodov ta’kidlashicha “Dobusiya haqidagi dastlabki tarixiy ma’lumotlarni biz arab tarixchisi Yaqubiy (X asr) va vatandoshimiz Muhammad ibn Jafar Narshaxiy (X asr) larning asarlaridan o‘qishimiz mumkin”[92]. Bizgacha yetib kelgan ayrim tarixiy manbalarda ancha ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, XIX

[91] Nasiba Jonto‘rayeva. Bulung‘urda Sheroz qal’a qayta tiklanadi. 01.06.2021 14:12 314 Samarqand. https://zarnews.uz/post/bulungurda-sheroz-qala-qayta-tiklanadi.

[92] Amriddin Berdimurodov. Dobusiya yoki Dobusqal’a tarixi haqida bilamizmi?. 09.08.2019 17:22 934. https://zarnews.uz/post/dobusiya-yoki-dobusqala-tarixi-haqida-bilamizm.

asrlarda ham Dobusiya yodgorligi hududidan keng foydalanib kelingan. Jumladan, shu davrda Ziyovuddin begining qarorgohi, masjid va boshqa inshootlar mavjud bo‘lgan. Shu tufayli Narpay, Paxtachi va Xatirchi tumanlarida yashovchi aholi yaqin kunlargacha yiliga ikki marta, Qurbon va Ramazon hayitlarida bu yerga yig‘ilishib namoz o‘qishib, saillar o‘tkazganliklari haqida ma’lumotlar bor[93].

Yuqoridagi izohlardan ma’lumki, ikki turistik obyekt “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlari sifatida turistik marshrutlarga kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ammo buni turistlar uchun jozibador va xavfsiz qilish uchun mablag‘lar lozim bo‘ladi. Xususiy investisiyalar va hissadorlik mablag‘larini jalb qilish, bunda sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinasiyalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu tadbirlar hududlarda turistik faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratish bilan birga, yangi turistik tashkilotlarni tashkil etishni orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishni, shu yo‘l bilan kambag‘allikni qisqartirishni ham taqozo qiladi. Bu yangi turmahsulotlarni joriy qilish imkoniyatlarini ham yaratadi. Bularning barchasiga erishish uchun ushbu hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Xullas, yangi obyektlarni yangi turistik marshrutlarga kiritish o‘ziga xos innovatsion yondoshuvni taqozo qiladi. Bularning o‘zaro bog’liqligi quyidagi rasmda o‘z aksini topgan (3.5-rasm).

Mazkur rasmdan ko‘rinib turibdiki, “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlarini turistik marshrutga kiritish uchun eng avvalo ularga yo‘l va boshqa infratuzilmalarni yaratish lozim bo‘ladi. Bu o‘z navbatida investisiyalarni kiritishni taqozo qiladi. Investorlar turizmning hozirgi holatidan, ularning asosiy qismi tadbirkorlikka asoslanganligidan kelib chiqib, birinchi galda xususiy investorlarni jalb qilishni taqozo qiladi. Ammo yo‘l va shu kabi infratuzilmani davlat va zususiy sherikchilik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda hissadorlik mablag’larini (turli mulk egalari mablag’larini) jalb qilish ham maqsadga muvofiqdir.

[93] O‘sha manba.



3.5-rasm. “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlarini turistik marshrutga kiritish uchun xususiy investisiyalar va hissadorlik mablag‘larini jalb qilishdagi o‘zaro bog‘liqlik[94]

Barcha ishlarni amalga oshirishda investisiyani jalb qilishda “sinergetik samara” usulidan foydalaniladi. Chunki ushbu usulning bir yo‘nalishi kuchlarni birlashtirish bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari “sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinasiyalari”dan foydalangan holda har bir xududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Shuningdek, bir hududda bor imkoniyat ikkinchisida bo‘lmasligi mumkin va buning teskarisi bo‘lishi mumkin. Turizm sohasiga yangi dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan ikkita yirik turistik obyekt qo‘shiladi hamda o‘ziga xos tarzda turizmni diversifikasiya qilish imkoniyatini ham yaratishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuniga (2019-yil 18-iyul, O‘RQ-549-son) muvofiq tasdiqlangan 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, masalan, turizm sohasida yuqori malakali bilimli, tajribali

[94] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

kadrlarni tayyorlash, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish masalalari alohida belgilangan.

3.5-jadval

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida 2020-2021 yillarda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari[95]

t/r	Sotsiologik savol turlari	jamiga nisbatan ulushi, foizda
1.	OTM bilan turizmga ixtisoslashgan (turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi) korxona o‘rtasida turizm sohasida kadrlar tayyorlash masalasida maqsadli kontraktatsiya shartnomalari mavjudmi, bu borada ishlar amalga oshirilayaptimi?	32,1
2	OTM bilan turizmga ixtisoslashgan (turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi) korxona o‘rtasida turizm sohasini rivojlantirish shartnomalar asosida ishlar amalga oshirilmoqdami?	29,1
3	Korxonada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarishda investitsiya va innovatsiyalardan foydalanilayaptimi?	12,5
4.	Korxonada turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda marketing tadqiqotlari o‘tkazilayaptimi?	6,4
5.	OTMlarida turizm sohasi bakalavrlarini 3 yilda, magistrlarini 1 yilda tayyorlash mumkinmi?	3,0
6.	Turizmga ixtisoslashgan (turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi) korxonada OTM bitiruvchilari o‘z vaqtida ishga joylashayaptilarmi, ularning zamonaviy bilim va malakalari yetarlimi	15,8
7.	O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish maqsadida mazkur sohada raqobatbardosh, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan qanday takliflaringiz bor?	1,1
	Jami	**100**

Turizm sohasi uchun oliy ta’lim muassalari tomonidan yuqori malakali kadrlar tayyorlash uch asosiy sababga ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yuqori malakali kadrlar turizm sohasini yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko‘payishini ta’minlaydi, yuqori malakali kadrlar turizm sohasida mehnat unumdorligini oshiradi, turistik xizmatlarni darajasi va sifatining yuksalishiga olib keladi.

[95] Sotsiologik anketa-so‘rovlari Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari va shahar turizm korxonalarida o‘tkazildi 2020-2022-yillarda.

Yuqorida ta’kid etilgan me’yoriy hujjatlar talablaridan kelib va 08.00.17- Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo‘yicha “Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusi asosida ilmiy, nazariy, hamda amaliy takliflarning va tavsiyalarni berish maqsadida anketa so‘rovnoma tashkil qildik. So‘rov natijasida quyidagi ma’lumotga ega bo‘ldik (3.5-jadval).

So‘rovnoma anketasi 7 banddan iborat bo‘lib, uning tarkibiga xodimning kasbiy tayyorgarligini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan – “OTM bilan turizmga ixtisoslashgan (turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi) korxona o‘rtasida turizm sohasida kadrlar tayyorlash masalasida maqsadli kontraktatsiya shartnomalari mavjudmi, bu borada ishlar amalga oshirilayaptimi?”, “mavjud OTM bilan turizmga ixtisoslashgan (xizmat ko‘rsatuvchi turistlarga) korxonalar bilan turizm sohasini rivojlantirishda, tashrif buyurayotgan turistlar sonini oshirish, ularga sifatli xizmat ko‘rsatish borasida uslubiy ishlanma va ko‘rsatmalar tayyorlash, hamda yo‘riqchi-kuzatuvchilik, tarjimonlik, dizaynerlik, ekskursovodlik, loyiha-konstruktorlik, gidlik va boshqa kurslarni tashkil etish bo‘yicha kontraktatsiya shartnomalari tuzilganmi, bu shartnomalar asosida ishlar amalga oshirilmoqdami?”, “Turistik korxonada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarishda investitsiya va innovatsiyalardan foydalanilayaptimi?”, “Turistik korxonada turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida da marketing tadqiqotlari amalga oshirilayaptimi?”, “OTMlarida turizm sohasi bakalavrlarini 3 yilda, magistrlarini 1 yilda tayyorlash mumkinmi?”, “Turizmga ixtisoslashgan (turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi) korxonada OTM bitiruvchilari o‘z vaqtida ishga joylashayaptilarmi, ularning zamonaviy bilim va malakalari yetarlimi?”, “O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish maqsadida mazkur sohada raqobatbardosh, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan qanday takliflaringiz bor?” kabi muhim savollar kiritildi (1-ilova). Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining turizm va madaniy meros boshqarmalari hamda, turistik korxonalarida amalga oshirilgan

sotsiologik so‘rovda 200 nafardan ziyod ishchi-xodim ishtirok etdi. Anketa so‘rovlari natijalari korporativ ta’limda jiddiy muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Sotsiologik so‘rovda ishtirok etgan 200 nafardan ziyod mutaxassislardan 36,4 % i oliy ma’lumotga, 47,2 % i o‘rta maxsus ma’lumotga ega.

Shulardan 14 kishi yoki 16,4 foiz xodimlar keyingi uch yil davomida korporativ ta’lim xizmatlaridan foydalanganligini, korxonada turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarishda investitsiya va innovatsiyalardan foydalanilayotganligini, OTMlarda turizm sohasi bakalavrlarini 3 yilda, magistrlarini 1 yilda tayyorlash mumkinligini, turizmga ixtisoslashgan (turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi) korxonada OTM bitiruvchilarini 85-90 foizi o‘z vaqtida ishga joylashayotganliklarini e’tirof etganlar. Bizning fikrimizcha, turizm sohasida, turistlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa sohalarda, masalan transport, aloqa, savdo xodimlarining xizmatlarining yuqori sifati, servis to‘g‘risidagi bilim va tasavvurlarini boyitishni aks ettiruvchi professional ta’limni rivojlantirish kerak. Bizning nazarimizda, turistlarga turli xizmatlar ko‘rsatishda band bo‘lgan xodimlar, mutaxassislar, oddiy ishchilar uchun mijozning xizmat sifati va servisga bo‘lgan yuqori talabini qondirish mehnat faoliyatining asosiy mazmuniga aylanmog‘i lozim. Shundagina O‘zbekistonda davlatning turizmni jadal rivojlantirish va kelajakda uni milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylantirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosati real hayotda amalga oshadi.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning davlat-xususiy sheriklik mexanizmi tarkibiy tuzilmasi nazarimizda, O‘zbekistonda turizm sohasida investitsion faoliyatda innovatsion omillar rolini oshirishda davlat-xususiy biznes sherikligini keng yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishdan katta amaliy samara olish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan istiqbolli yo‘nalishlardan yana biri-bu turizm sohasi uchun yuqori malakali kadr tayyorlovchi ta’lim sohasining istiqboli darajasiga ko‘tariladi degan fikrdamiz. Shu sababli bu xususida ilmiy-

amaliy tavsiyalarimizni monografiya ishining navbatdagi paragrifida batafsilroq bayon qilmoqchimiz.

3.3. Turizm sohasida gid ekskursiya yetakchisi yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish va yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va prognoz parametrlari

Gid (gid tarjimon), ekskursiya yetakchisi yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti professional ta’lim muassasalarini malakasini oshirish kurslarida turizm sohasidagi mutaxassislarning yagona reyestrini shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

Turizm sohasida gid (gid tarjimon)ning o‘rni o‘ziga xos. Turistlarga shu obyektni qanday tushuntirib berishi juda katta ahamiyatga ega. Shu tufayli gid-tarjimonlar o‘ta savodxon va yetuk mutaxassislar bo‘lishi mumkin. Zero, turistlarning mamlakatimizdagi madaniy meros boyliklarini anglashi aynan shu gid-tarjimonlarga bog’liq. Bularni ekskursiya yetakchisi yo‘riqchi, ya’ni yo‘l boshlovchilar, deb ham atash mumkin. Hozirgi kunda turizm sohasida asosan chet tilini bilan ammo turizmning nozik sirlaridan bexabar mutaxassislar faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Fikrimizcha har bir gid-tarjimonda **malaka sertifikati** bo‘lishi lozim. Buning uchun maxsus professional ta’lim muassasalarida qayta tayyorlanib va malakasini oshirish kurslarida o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Bular notiqlik san’atini, turistik obyektlarning va mamlakatimiz tarixini juda yaxshi bilishi, shuningdek, chet tillarni mukammal egallagan bo‘lishi bilan birga milliy odatlarimiz, odab-axloq me’yorlarini ham tushungan va ularga amal qiladigan bo‘lishi ham lozim. Aynan ushbu talablarga javob beradigan gid tarjimonlarga malaka sertifikatini berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Malaka sertifikatiga qo‘yilgan talablarning o‘zaro bog’liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (3.6-rasm).



3.6-rasm. Gid-tarjimonlar bilishi lozim bo‘lgan jihatlarning o‘zaro bog‘liqliklari[96]

Bizningcha, gid-tarjimonlar davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti sohasidagi mutaxassislar ro‘yxatiga kiritilishi maqsadga muvofiq. Shundagina mazkur tashkilotning shu soha bo‘yicha yagona reyestrini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Ushbu ro‘yxatga kirish uchun har bir gid-tarjimonda malaka sertifikati bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunday sharoitda gid-tarjimonlikda muammo bo‘lmaydi va mos ravishda turistlarning bemalol axborot olishi uchun tegishli sharoitlar ham yaratiladi. Shu tariqa gid-tarjimonlar faoliyatini takomillashtirishga erishiladi.

Hozirgi paytda gid tarjimonlarni xususiy ta’lim muassasalarida, davlat ta’lim tashkilotlarida, xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan ta’lim tashkilotlarida o‘qitilmoqda. Bularda o‘qitishning ham, ularning bilimlarini baholashda ham har biri o‘zicha turli yo‘nalishda yondashadi. Biri test bilan imtihon olsa, ikkinchisi og’zaki va h.k. Bu bir xil yuqori malakaga ega bo‘lish imkoniyatini bermaydi. Shu tufayli, qayerda o‘qishidan qat’iy nazar, ularning imtixonlarini katta komissiya bilan bir joyda korrupsiyadan holi holatda tashkil qilib, sinovdan munosib o‘tganlariga sertifikat berishni tashkil qilish lozim. Gid-tarjmonlarni bilim saviyasiga qarab, ularni toifalarga bo‘lish maqsadga muvofiq. Toifa o‘z navbatida ish haqining miqdorini

[96] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

belgilash uchun ham asos qilib olinadi. Shu tariqa mamlakatimizda malakali gid-tarjimanlar jamoasi shakllanadi.

Respublikamizda turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning tayyorlashni hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish doirasida turizm sohasini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarini tahlil qilish natijasida quyidagi Mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida turizmda yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganligining asosiy yo‘nalishlari mavjud degan xulosaga keldik. Bular quyidagilar:

1.Yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida turistik tashkilotlar tomonidan xorijiy valyutalarning O‘zbekistonga kiritilishini yanada rag‘batlantirish, ularga soliq imtiyozlari berish, ya’ni ularning xorijiy valyutadagi daromadlarining ma’lum qismini soliqlardan ozod qilish. Bunday tadbir yo‘nalishi sohaga yanada ko‘proq investitsiya ajratishiga olib keladi.

2.O‘zbekiston Respublikasida turistik faoliyatni yanada soddalashtirish;

3.O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish uchun sektorlararo munosabatlarni tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi me’yoriy huquqiy hujjatlarni yaratish. Bunda soha rivojida nodavlat sektorning ishtirokini kengaytirish masalalarining huquqiy asoslarini yaratish;

4. O‘zbekistonda turizm sohasiga yangi texnologiyalarining qullash bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqish;

5. Istiqbolda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda “Aqlli turizm” tizimi vositalaridan intensiv va samarali foydalanish.

Yurtimizda turizm sohasida amaldagi qonunlar va boshqa me’riy hujjatlar talablariga muvofiq salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, shu jumladan: quyidagilarni nazarda tutgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni

qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan:

- turizm sohasida kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi kadrlari va bitiruvchilarining malakasini baholashni tashkil etish;
- turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko‘p bosqichli ta’lim tizimini yaratish;
- ta’limning amaliyotga yo‘naltirilgan va modernizatsiyalashgan ta’lim standartlari, o‘quv-uslubiy dasturlar hamda ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; ichki va kirish turizmi sohasida bevosita turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi turizm sohasi xodimlari (gidlar, yo‘riqchi-kuzatuvchi, turizm faoliyati subyektlari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqalar xodimlari) uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish;
- turizm sohasi xodimlarini turistlarga axborot berish ishlari va xavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalarni o‘tkazish qoidalarga o‘qitish bo‘yicha tizimni ishlab chiqish va joriy qilish;
- ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish uchun, shu jumladan, hududlarda ta’lim muassasalari sonini oshirish; turizm sohasida kadrlar tayyorlash uchun yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlari filiallarini ochish[97]. Turizm sohasi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasalaridagi o‘quv va ta’lim-tarbiya tizimini tegishli ravishda ta’minlash, kasbiy ta’limning yangi texnologiyalarini o‘rganish, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan ta’lim, mustaqil ta’lim hamda masofaviy o‘qitish vositalari va usullarini joriy etish lozim bo‘ladi. Xorijiy turistlarning xohishi, didi, ehtiyojlari nuqtai najaridan ularga xizmat qiluvchi

[97]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni. 2019-yil 5-yanvar. (2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi).

kadrlarni yangi bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorlash.Tahlil etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakali kadrlar tayyorlash xususida integratsiyalashgan tizimni yaratish, ta’lim va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali administrator, operator, menejer, marketolog va porte oshpazlarga bo‘lgan talab muammosini hal qiladi.

Respublikada turizm sohasining rivojlantirish bo‘yicha Konsepsiyasini amalga oshirishni 2019-2025-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan va ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun umumdavlat va hududiy dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda turizm sohasini 2025-yilgacha rivojlantirish prognozi ham belgilab berilganligini ko‘rishimiz mumkin (3.6-jadval).

3.6- jadval

O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlantirishda Konsepsiyasini amalga oshirishni 2019-2025 yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlarining dinamikasi[98]

Yil-lar	O‘zbekistonga tashrif buyuradi-gan xorijiy turistlar o‘sish sur’ati, %	Turizm xizmatlari eksporti o‘sish sur’ati, %	Ichki turistlar o‘sish sur’ati, %	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni o‘sish sur’ati, %	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni o‘sish sur’ati, %	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni o‘sish sur’ati, %	Turoperatorlar soni o‘sish sur’ati, %
2018	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2019	122,7	122,7	111,7	120,7	109,1	109,8	110,0
2020	131,3	133,7	123,1	176,8	153,2	154,0	121,0
2021	140,5	147,1	134,3	263,1	221,4	221,5	131,9
2022	151,7	163,3	145,1	281,5	236,8	237,0	138,4
2023	163,9	182,9	156,2	298,4	250,9	251,3	152,4
2024	177,0	206,7	167,2	313,3	263,6	263,8	160,0
2025	189,4	234,8	178,6	329,0	276,8	277,0	175,1

[98] O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2018-2025-yillar davomida turizmning asosiy infratuzulmalaridan biri bo‘lgan mehmonxonalarni joylashtirishning vositalarini sonlari 329,0 % o‘sishi ko‘zda tutilgan. Ana shu joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni 277,0 % ga o‘sishi prognoz qilingan bo‘lsa, undagi xonalar soni 276,8 % o‘sishi ko‘zda tutilgan[99]. Ushbu ko‘rsatkichlar evaziga turizm xizmatlari eksporti ham 234,8 % o‘sishi prognoz qilingan. Ushbu ko‘rsatkichlarning hammasi tashrif buyuradigan amlakatimizga xorijiy turistlarni tashrif buyuradigan soniga bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkich shu yillarda 189,4 % o‘sishi prognoz qilingan. Shu davrda ichki turistlar soni 178,6 % o‘sishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, yuqori malakali kadrlardan ya’ni, masalan turoperatorlar soni 175,1 % o‘sishi mo‘ljallangan. Bulardan ko‘rinib turibdiki, turoperatorlar faoliyati samaradorligi yildan-yilga oshib boradi. 2019-yilda turoperatorlar faoliyatining samaradorligi 1,11 koeffitsientni (122,7/110,0) tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 1,34 koeffitsientni (234,8/175,1) tashkil qilmoqda. Bunday o‘zgarishlarni boshqa ko‘rsatkichlarni qiyoslash natijasida ham aniqlash mumkin. Bunday xulosaga aniqlik kiritish uchun ushbu ko‘rsatkichlarning mutlaq va nisbiy miqdorlarini ham qiyoslab tahlil qilishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Qiyosiy tahlil qilishdan boshlaydigan bo‘lsak, shunga amin bo‘lamizki, 2018-yilda turoperatorlar faoliyatining samaradorligi mutlaq miqdorlarni solishtirganda ham o‘sha miqdor kelib chiqadi. Ushbu ko‘rsatkichning miqdori 2025-yilga kelib 1,33 koeffitsientni (2232,8/1676) tashkil qilmoqda. Bunday o‘zgarishlarni boshqa mutlaq ko‘rsatkichlarni qiyoslash natijasida ham aniqlash mumkin. Ta’kidlash joizki, ushbu qilinayotgan prognoz ko‘rsatkichlari turizmni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni davlat va hududiy amalga oshirish natijalaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirishlar kiritilishi mumkinligi ham yuqoridagi farmonda qayd etilgan. Hozirgi kunda (2021-yil boshida) joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni 47,8 mingtani tashkil

[99] 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qiladi. 2025-yilga borib ushbu ko‘rsatkich 132,4 mingtani tashkil qilishi ko‘zda tutilgan.

3.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning 2019-2025 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida keltirilgan prognoz ko‘rsatkichlari[100]

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2018-yil		2020-yil		2025 yil	
		Miqdori	O‘sish sur’ati, %	Miqdori	O‘sish sur’ati, %	Miqdori	O‘sish sur’ati, %
1.	Xorijiy turistlarni O‘zbekistonga tashrif buyuradiganlari soni (ming kishi)	4 800	100,0	6302,2	133,7	9 089,3	121,0
2.	Xizmatlari turizm eksporti (mln. AQSh dollari)	951	100,0	1271,9	133,7	2 232,8	234,8
3.	Turistlarni ichki soni (mingta tashrif)	14000	100,0	17230	123,1	25 010	178,6
4.	Joylashtirishda mehmonxona vositalari soni (dona)	910	100,0	1 609	176,8	2 994	329,0
5.	Joylashtirishda xonalari va vositalari soni (ming)	22,0	100,0	33,7	153,2	60,9	276,8
7.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	47,8	100,0	73,6	154,0	132,4	277,0
8.	Turoperatorlar soni (nafar)	957	100,0	1 158	121,0	1 676	175,1

[100] O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Bu bir vaqtning o‘zida bir kunda shuncha mehmonni kutish imkoniyatimiz mavjudligidan dalolat beradi. Ziyorat turizmi rivojlanadigan bo‘lsa, musulmon olamidan keladigan sayyohlar (ziyoratchilar) ancha ko‘p bo‘lishligi prognoz qilinmoqda. Shu tufayli, mehmonxonalarni joylashtirish vositalarini qurishni jadallashtirish lozim bo‘ladi.[101] Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar va magistrlar sonini prognoz qilish turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Biz birinchi navbatda o‘zgaruvchining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini tahlil qildik (3.7-rasm).



3.7-rasm. Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni[102]

Ushbu rasmda ko‘rinib turibdiki, turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavr talabalari soni o‘sish tezligi 2011-yildan 2014-yilgacha tez o‘sib borgan, ammo 2015-yilga borib biroz kamaygan va 2021-yilgacha eksponensial o‘sib borgan. Biz turizmning hozirgi darajasida turizm sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarga talab keyingi besh yilda o‘sib borishi va shu sababli turizm yo‘nalishida tahsil

[101] 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

[102] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

oluvchi talabalar soni yuqori darajada saqlanib qoladi degan farazga asoslandik. Shundan kelib chiqib, biz turizm sohasida bakalavrlar sonini eksponensial trend orqali hisobladik. Bunda eksponensial trend liniyasi quyidagi ko‘rinishga keldi, ya’ni:

$$Y_{bakalavr} = 175{,}52e^{0{,}2084t}$$, bu yerda $t -$ vaqt.

Yuqoridagi formula asosida 3.8-jadvalda prognoz qiymatlari shakllantirildi. Bunda, albatta 2018-yilda tashkil etilgan Samarqand Ipak yo‘li xalqaro turizm universiteti respublikaning yetakchi universitetiga aylanishi va turizm infratuzilmasining rivojlanishi natijasida sohada malakali kadrlarga ehtiyoj keyingi 5 yilda o‘sib boradi deb hisobladik. Shu bilan birga, respublikaning boshqa universitet va institutlarida xususan, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universitetlari kabi oliygohlarda ham turizm yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar soni ortishi kutilmoqda.

3.8-jadval

Turizm sohasida ta‘lim olayotgan bakalavr talabalar soni prognozi[103]

Yillar	2021 -yil	2022 -yil	2023 -yil	2024 -yil	2025 -yil	2026 -yil
Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni	2045	2260	2350	2515	3087	3789

[103] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bunga asosiy sabab sifatida hududlarda turizm infratuzilmasining qurilishi va modernizatsiya qilinishi deb aytish mumkin. Prognoz natijalari grafik ko‘rinishda keltirilgan (3.8-rasm).



3.8-rasm. Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar soni prognozi[104]

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, 2022-yildan 2026-yilgacha respublikada turizm sohasida tahsil olayotgan bakalavrlar soni ikki barobar o‘sishi kutilmoqda. Bakalavrlar sonining keyingi yillarda jadal sur’atlar bilan o‘sishiga yangi shakllanayotgan va yirik investitsion loyihalar asosida yaratilayotgan dam olish komplekslarining qurib bitkazilishi va shu bois mehnat bozorida malakali kadrlarga talab shakllangan tanqislik sabab bo‘ladi degan farazni ilgari surish mumkin. Chunki zamonaviy infratuzilmaning samarali faoliyat olib borishida turistlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsata oladigan xorijiy tillarni mukammal egallagan kadrlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shundan kelib chiqib, bakalavrlar soni 2026-yilga borib 2022-yilga nisbatan ikki barobar o‘sishi mumkinligi imkonini bergan.

Turizm sohasida tahsil olayotgan magistrlar soni dinamikasini o‘rganib, bakalavrlarni soniga muvofiq tarzda ekponensial trend bilan o‘sadi degan xulosaga keldik va shundan kelib chiqib quyidagi eksponensial trend formulasidan foydalanildi.

$$Y_{magistr} = 5{,}48e^{0{,}2748t}, \text{ bu yerda } t - \text{ vaqt.}$$

[104] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu formalada $Y_{magistr}$ – turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan magistrlar sonini bildiradi. Magistrlar soni prognoz qiymatlari keltirilgan (3.9-jadval).

3.9- jadval

Turizm sohasida tahsil olayotgan magistrlar soni 2023-2026 yillar prognozi parametri[105]

Yillar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil
Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan magistrlar soni	153	113	148	195	257	338

3.9 - jadvaldan ko‘rinib turibdiki, magistrlar soni 2021 yilda qisman pasaygan bo‘lsada, 2021-yildan 2026-yilgacha yuqori o‘sish ko‘rsatkichlarini namoyon etadi.

Tadqiqotimizda turizm yo‘nalishida ta’lim oladigan magistrlar soni prognoz natijalarini grafik shaklida tasvirladik (3.9-rasm).



3.9-rasm. Turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan magistrlar soni dinamikasi[106]

[105] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

[106] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bunda bizning fikrimizcha, 2026-yilga borib respublikada turizm sohasida yirik infratuzilma ob'ektlarining qurilishi sababli turizm sohasida malakali mutaxassislarga talabning o‘sishi natijasida magistrlar soni 2026-yilga borib 2021-yilga nisbatan 220 % ga o‘sadi deb bashorat qilishimiz mumkin. Prognozga ko`ra asosida turizmning O‘zbekiston iqtisodiyotida tobora muhim o‘rin egallab borishi bilan ushbu sohada tadqiqotlar olib borishga ehtiyojning oshishiga olib keladi degan fikrdamiz. Magistraturaga tegishli mutaxassislarining ko‘pchiligida tadqiqot olib borishi metodologiyasiga ko‘p soatlar ajratilganini hisobga oladigan bo‘lsak, biz taklif qilayotgan faraz o‘rinli ekanligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot yuzasidan xulosa qiladigan bo‘lsak bizningcha, oliy ta'lim islohotlariga muvofiq mamlakat rivojlanishining yangi bosqichida integratsion komplekslarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shartlardan biri - bu ma'naviy va axloqiy jihatdan talaba yoshlarni tarbiyalash.

Buning uchun quyidagilarga diqqatli bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

birinchidan, o‘zbek xalqi mentaliteti va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, ilmiy nazariy, falsafiy va iqtisodiy asoslarini, an'analarini chuqur biladigan, zamon talablarini tushunadigan javob bera oladigan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash lozim;

ikkinchidan, yangi O‘zbekiston rivojlanish davrida professional faoliyatni yuqori darajada amalga oshirishga qodir raqobatbardosh mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlash ham o‘ta muhim ahamiyatga ega;

uchinchidan, talaba yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, xalqlar do‘stligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, dunyoqarashi keng va mustaqil fikrlashga ega bo‘lishini ta'minlash;

to‘rtinchidan, bo‘lajak mutaxassislar o‘rtasida buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi, buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi, ona yurtimizning dunyodagi o‘rni va ahamiyati, uning Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari bilan aloqalari

to‘g‘risida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish va jahon hamjamiyati, shuningdek, ilmiy muammolar, uning rivojlanish istiqbollari bo‘yicha davra suhbatlarini o‘tkazish;

beshinchidan, zamonaviy mutaxassis tayyorlashga to‘liq mos keladigan yangi avlod o‘quv-uslubiy adabiyotini yaratish, turli mavzular va yo‘nalishlar bo‘yicha darsliklarni takomillashtirish va nashr etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni tayyorlash;

oltinchidan, Internetning jahon axborot tarmog‘ida O‘zbekiston tarixi va madaniyatining munosib o‘rnini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash, oliy texnik ta’lim, shuningdek, yangi avlod uchun kompyuter dasturlarini yaratish hisoblanadi.

Umuman olganda, bizning tadqiqotimiz natijasida turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar va magistrlar soniga ta’sir etuvchi omillar sifatida mehmonxonalar soni, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar soni omillar tanlandi. Tahlillar natijasida bakalavrlar soniga turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etishi, magistrlar soniga esa oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar sonining ta’siri statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bunda boshqa omillarning ta’siri sezilarli darajada emasligi regressiya tahlili jarayonida o‘z isbotini topdi.

Turizm yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavrlar sonining prognozini biz ushbu o‘zgaruvchining vaqt qatorini tahlil qilish natijasida eksponensial trend bilan o‘sadi deb hisobladik va 2020-2026 yillar uchun o‘zimizning prognozimizni ishlab chiqdik. Bizning fikrimizcha, 2026-yilga borib bakalavrlar soni 2022-yilga nisbatan ikki barobar o‘sishi kutilmoqda, biz tahlil qilgan oliy ta’lim muassalarida xuddi shu kabi magistrlar soni ham 2026-yilga borib ikki marta ortishi ko‘rsatkichini qayd etishi prognoz qilindi. Biz taklif prognoz respublikada amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar doirasida turizm infratuzilmasining qurilib bitkazilishi natijasida malakali kadrlarga talabning keskin ortishi va shu sababli turizm

yo‘nalishiga beriladigan kvotalarning keskin ortishi bilan kechadi degan fikrga asoslanadi.

III Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

O‘zbekistonda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizimini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar berildi:

1. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda tadqiq etish natijasida O‘zbekiston sharoitida hududiy turistik klaster modelini shakllantirishning qator konseptual yo‘nalishlari tavsiya etildi. Xususan, taklif etilayotgan turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash klaster modeli asosida tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi.

2. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni turistik xizmatlar bozorida mahsulotni rivojlanishning faoliyatiga ta’sir etuvchi omil hisoblanishini, bugungi kunda har qanday turistik firmaning asosiy maqsadi raqobat sharoitida iste’molchining o‘z xizmat turlariga jalb etishni taqoza qiladi.

3. Ishda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hududiy turistik klasterini shakllantirish va rivojlantirish modeli ishlab chiqilishi asosida mavjud mehnat resurslardan samarali foydalangan holda turizm sohasini rivojlantirish natijasida iste’molchilar sonini izchil ravishda oshirib, mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga katta hissa qo‘shishi mumkin ekanligi aniqlandi.

4. Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’minlash mexanizmi pirovardida turizm sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

5. Tadqiqotimizning natijalari mamlakatimizda yangi turistik maskanlardan “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlari YUNESKOning ro‘yxatida bo‘lishiga qaramasdan turizm sohasida juda

kam foydalanilayotganligini ko‘rsatdi. Ushbu obyektlardan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda ham keng foydalanish mumkin. Bunday rejalarni intensiv amalga oshirish uchun ushbu obyektlarga turistik infratuzilmani shakllantirishda xususiy investisiyalar va hissadorlik mablag’larini jalb qilish samarali natijalarni berishi mumkin.

IV BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING TASHKILIY-

IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

4.1. O‘zbekistonda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda xorij davlatlarining zamonaviy ta’limlardagi tajribalarini, modellarini va texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari

Hozirgi vaqitda turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari qatoriga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qabul qilgan farmonida “turizm tarmog’i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish” masalasi o‘rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi. Hozirgi globallashuv, bozor iqtisodiyoti, ayniqsa pandemiya sharoitida mamlakat iqtisodiyotini va nufuzini yuksaltirish, xalqimiz salomatligini saqlab qolish va farovonligini oshirish, aholi bandligini va yoshlarimizning kelajagini ta’minlash davlatimizning har qachongidek muhim maqsadidir. Mazkur maqsadni amalga oshirish yo‘lida jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida turizm sohasini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Holbuki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida turizm sohasini taraqqiy ettirish milliy daromad shakllanishining muhim manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki, turizm sohasi qisqa davrda eng tez rivojlanayotgan va daromadli sohaga aylandi. Shunga ko‘ra, ko‘pgina mamlakatlar bu sohani yanada rivojlantirish, tegishli infrastrukturani jahon talablari darajasiga ko‘tarishga harakat qilishmoqda.

Buyuk Ipak yo‘lining markazlaridan birida joylashib, tarixiy obidalarining ko‘pligi jihatidan jahonda yetakchi o‘rinlardan birini

ostidagi muzey” deya e’tirof etilgan jonajon O‘zbekiston Respublikasida ham bu sohani taraqqiy ettirish bo‘yicha keng

Turizm sohasi davlatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlik munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va taraqqiy ettirishda muhim o‘rin egallaydi. Butunjahon turistik tashkilotining statististik ma’lumotlari tahliliga ko‘ra “sayyoramizdagi ishlab chiqarish-asining 10 foizi turizm sohasining hissasiga to‘g‘ri keladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2022-yilga borib, xalqaro turistik sayohatlardan dollarini tashkil qilishi prognoz qilinmoqda” deb ta’kidlangan, bu ‘rsatkichlar o‘z navbatida, butun dunyoda turizm salohiyatidan yanada samarali va mukammal foydalanishga harakat qilinayotganini bildirsada, hozirgi davrda butun dunyoda harakatlanayotgan koronavirus pandemiyasi davrida bu ko‘rsatkichlar keskin kamaydi. mo dunyo bo‘yicha 2019-yil dekabr holatida ish bilan ta’minlanganlarning 10 foizini turizm sohasiga xizmat qiluvchilar tashkil etganligini e’tiborga olinsa, jahonning pandemiya sharoitidan tezroq chiqib ketishi naqadar muhimligini yana bir bor e’tirof

Darxaqiqat mamlakatni modernizasiyalash bosqichida turizm va mehmondo’stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo‘yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo‘lib turibdi. Shularni hisobga olib, hozirgi vaqtda Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatoridagi barcha ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarining davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o‘quv rejalarini xalqaro tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqish lozim bo‘lmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy turistik tashkilot va korxonalar yangi axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari va xorijiy tillardan bemalol foydalanuvchi, zamonaviy texnika bilan ta’minlangan yuqori texnologiyali xizmat ko‘rsatish soxasidan iborat.

Turizm tarmog’i uchun yuqori malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10 yanvardagi 3-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g’risida”gi 2015-yil 15 yanvardagi №12 sonli buyrug‘iga asosan “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”dagi “Xizmatlar sohasi” ta’lim sohasi bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda asosiy kadrlar buyurtmachi va iste’molchisi bo‘lgan vazirlik, idora, korxona va tashkilotlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari, turdosh oliy ta’lim muassasalari bilan kelishilgan holda davlat ta’lim standarti, tegishli bakalavr, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o‘quv rejalari ishlab chiqildi.

ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalarini xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda yanada takomillashtirish soha bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini modernizasiyalash dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab madaniyatga asoslangan murakkab jarayon. O‘tgan asr 90-yillarining ‘

borayotgan bo‘lib, bugun ushbu soha dunyo aholisining ko‘plab qismini o‘z doirasiga birlashtirdi.

Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar soni yildan-yilga oshayotgan ekan, ularga sifatli xizmat ko‘rsatuvchi kadrlar soni va salmog‘ini ham oshirishimiz lozim. Bu kadrlar, birinchidan, oliy va o‘rtamaxsus ma’lumotga ega bo‘libgina qolmasdan, bilimli, mehnatsevar, tashabbuskor, ma’naviyatli, xushmuomala, mas’uliyatli, bir so‘z bilan aytganda, raqobatbardosh yuqori malakali kadr yoki kichik mutaxassis bo‘lishi lozim. Ularning asosiy maqsadi turistlarning psixologiyasini o‘rganish, ularga mamlakatimizning

diqqatga sazovor joylarini ko‘rsatish, ularning nima xohlayotganliklari, qiziqishi, tashrif davrini qamrab olgan rejalarini tuzish, mamlakat, shahar va hududning jozibadorligini oshirish, ularga chiroyli va e’tiborni tortadigan sovg‘alar taqdim etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga ko‘maklashish, turistlarning yashash, ovqatlanish va ekskursiya qilish sharoitlarini yaxshilash, bir so‘z bilan aytganda, turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatishdan iborat. Bunday salohiyatga va xususiyatlarga ega bo‘ladigan kadrlarni tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi muassasalarida, shuningdek, respublikamiz talabalari tahsil olayotgan xorijiy OTMlarda amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlarimiz natijasi asosida ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda, ayniqsa, 2017-2020 yillarda yangilanayotgan O‘zbekiston Respublikasida yurtimiz iqtisodiyoti, uning qudrati va nufuzini oshirish, xalqimiz farovonligi hamda yoshlarimiz kelajagini ta’minlashga xizmat qilayotgan xalqaro va ichki turizm sohasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezidentimiz Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur me’yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, turizm sohasini taraqqiy ettirish, mamlakatda turistlar soni va salmog‘ini yuksaltirish, ularga xizmat qiluvchi malakali va raqobatbardosh kadrlar sonini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni amalga oshirishni ta’minlash zarur deb hisoblaymiz:

Ommaviy axborot vositalari, Internet, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi va ichki turistlarimizga jozibali tarqatma materiallar hamda boshqa turli reklama manbalari asosida O‘zbekiston Respublikasining turistik jozibadorligini oshirish kerak. Bunda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida: erishilgan natijalar va ko‘zlangan marralar” ruknida turli qiziqarli va quvonarli holatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi fotoalbomlar, turistlar uchun qo‘llanmalar tayyorlab ularni eng nufuzli tillarda tarjima qilib, turistik firmalarga bepul tarqatish maqsadga muvofiq. Bundan

tashqari “Yangi O‘zbekiston 2016-2020 yillar” rukni bo‘yicha ham turli jamlanmalar va fotoalbomlar tayyorlash muhimdir;

Dunyoning barcha mamlakatlariga va shu mamlakatlar hududidan “O‘zbekiston temir yo‘llari” va “O‘zbekiston havo yo‘llari”ning hamda avtoyo‘lovchi va turistlar chiptalariga onlayn buyurtma berish va sotib olish tizimini soddalashtirish lozim;

Respublikamizda turizm va uning yo‘nalishlaridagi mutaxassisliklar ta’lim jarayonini yanada kuchaytirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayonida turli xorijiy ta’lim tizimlaridan, texnologiyalardan foydalanish va albatta yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Chunki ushbu mexanizm turistik xizmat sohasida bir qancha nazariy muammolar bilan birga amaliy masalalar borasida ham mavjud muammolarni hal etishda va yechimini topishda asosiy dastak funksiyasini bajarishi mumkin.

Bugungi taraqqiyot, globallashuv davrida mamlakatlar, odamlar uzviy bog‘langan. Dunyoning istalgan o‘lkasi bir qadamdek gap. Shu bois turizm eng daromadli, istiqbolli sohalardan biriga aylandi. Mutaxassislar ta’biricha: turizm – tugamaydigan neft.

Mamlakatimiz azaldan o‘zining boy tarixiy, me’moriy obidalari, buyuk allomalari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari aholisini ham o‘ziga jalb etib kelmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, turizm sohasi yuqori sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Turizm bu ko‘p tarmoqli biznes bo‘lib, dam olishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlarning butun majmuasini qamrab oladi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o‘sish sur’ati 8 %-10 % gacha boradi. Turizmning zamonaviy sanoati jahon iqtisodiyotining eng yuqori daromadli va jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Xorijda dam olish uchun chiqishni hohlaganlar soni har yili 20-22 % ga ko‘paymoqda. Bundan tashqari butun olamda bizning mamlakatimizga sayohat qilmoqchi bo‘lgan xorijiy turistlarning soni yildan-yilga oshib

bormoqda. Buning tasdig‘i sifatida Samarqand shahri 2014-yilda AQSh ning mashhur Internet nashri -“The Huffington Post” tomonidan e’lon qilingan reytingga muvofiq sayyoramizning sayyohlar borib ko‘rishi lozim bo‘lgan 50 ta eng go‘zal shaharlari qatoridan o‘rin oldi. E’tiborlisi, MDH davlatlari shaharlaridan ushbu ro‘yxatga faqat Samarqand shahri kiritilgan.[107]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 21 aprelidagi qaroriga[108] asosan Oliy ta’lim tizimida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmagani ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Turistik xizmat ko‘rsatish sohasida olib borayotgan tadqiqotlarimiz bir qator muammolarni mavjudlini ko‘rsatmoqda. Masalan birgina mehmonxona turistik xizmatlari, qishloq turizmi turistik xizmatlari yo‘nalishlarida gid xizmatlarini takomillashtirishda va samaradorligini oshirish uchun xorijiy tillarni o‘rganish metodikasini takomillashtirish, hamda ichki imkoniyatlarni axtarib topadigan, ularni amaliyotga safarbar kiladigan, uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblab ta’sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qiladigan ilmiy yo‘nalishlar va ulardan kelib chiqadigan amaliy tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va mos ravishda ushbu masalalarning iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmaganligi turizm sohasini strategik rivojlantirishda o‘tkir to‘g‘onoq hosil qiluvchi muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolarga biz turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash o‘quv jarayonida kelgusida duch kelishimiz tabiiydir. Muammolarni bartaraf etishni samara beradigan mexanizmlaridan biri bu -yuqori malakali kadrlar tayyorlash o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish deb hisoblaymiz.

[107] Дунёда-элликтадан бири //XXI аср.2014 й., 24-июль., №29(557).
[108] uza.uz – Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги сайтидан олинди. 2017 й., 20 апрель.

Chunki ushbu mexanizm turistik xizmat sohasida bir qancha nazariy muammolar bilan birga amaliy masalalar borasida ham mavjud muammolarni hal etishda va yechimini topishda asosiy dastak funksiyasini bajarishi mumkin.

Turizm o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish va Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida o‘qitishni yanada takomillashtirish maqsadida turli xorijiy ta’lim tizimlaridan jumladan “Dual” tizimidan foydalanish ijobiy samarani beradi. Dual ta’lim tizimi bu ta’lim tizimining shunday turiki, fanning nazariy qismi oliygohning o’zida, amaliyot qismi esa ma’lum korxonalarda olib boriladi. Bunday shakldagi ta’lim tizimi ilk marotaba Germaniya[109] oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanila boshlangan va hozirgi kunda o‘zining samarasini bergan ta’lim tizimlaridan hisoblanadi. Dual ta’lim tizimini hozirda ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar Finlandiya, Shvesariya, Shvesiya, Daniya[110] oliygohlarida qo‘llab kelinmoqda.

Dual tizimning innovatsionligi quyidagicha:

- o‘quv jarayonini tashkil qilishdagi o‘zgarishlar (sinfdagi darslar kamayadi, ishlab chiqarish amaliyoti hajmi o‘quv dasturining 60-70 foizigacha ko‘payadi);
- ishlab chiqarish amaliyoti individual yondashuvga asoslangan va real ishlab chiqarish sharoitlariga imkon qadar yaqinroq bo‘ladi;
- korxona tomonidan dual moliyalashtirish choralari ko‘riladi;
- ishlab chiqarishda mentorlik institutini rivojlantiriladi.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish talablariga javob beradigan ishchilarni tayyorlash orqali hududlarning investisiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish vositalaridan biri bu dual ta’lm tizimi bo‘lib, uning afzalligi - bu mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv va ishlab chiqarish sohalarining muvofiqlashtirilgan o‘zaro aloqasi hamda bitiruvchilarni yuqori darajada ish bilan ta’minlashdir.

Dual “ikkilik”, “ikki tomonlama” “bitta tashkiliy yaxlitlik” ma’nolarini anglatadi.

[109] https//ru.wikipedia.org/wiki/dualnoe obrazovanie.
[110] https//www.deutschland.de

Dual ta’lim tizimi - bu o‘quvchi o‘quv muassasasida nazariy bilimlarni, ish joyidagi tashkilotda amaliy ko‘nikmalarni oladigan mashg‘ulot turi.

Dual o‘qitish modeli professional va oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladi va mutaxassislar bilan qiziqqan tijorat tashkilotlari va hukumat idoralari tomonidan birgalikda moliyalashtiriladi.

Dual ta’lim zamonaviy professional ta’limning ta’lim standartlari asosida kompetensiyaviy yondashuvining asosiy tamoyillariga (nazariya va amaliyotning birligi, o‘quv jarayonida fanlararo kompleks yondashuv, ko‘nikma va bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llashga e’tibor) to‘liq javob beradi.

Ushbu kasbiy ta’limi shakli ijtimoiy sheriklikning mahsuli sifatida paydo bo‘lib, u mehnat bozori talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasa va ish beruvchilar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik mexanizmidir. Dual ta’lim - bu professional ta’limda nazariy qism ta’lim muassasasi (o‘qish vaqtining 30-40%) bazasida, ishlab chiqarish korxonasida, ish joyidagi mashg’ulotning amaliy qismi (o‘quv vaqtining 60-70%) olib boriladi. Dual ta’limning asosiy konsepsiyasi o‘quv va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish orqali kadrlar tayyorlashda amaliy yo‘nalishni kuchaytirishga asoslangan.

Dual ta’lim - bu kasbga yo‘naltirishni tashkil etish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari shakllantirish (prognoz qilish), ta’lim dasturlarini modernizasiya qilish, mutaxassislarni korxonalar va ta’lim muassasalarda tayyorlash, shuningdek ijro etuvchi hokimiyat organlari, biznes uyushmalari, ish beruvchilar hamda manfaatdor tomonlarning teng javobgarligini o‘z ichiga olgan infratuzilma hisoblanadi va kadrlarni sifatli tayyorlashni nazarda tutadi. Dual ta’lim tizimi ma’lum bir ish joyi uchun o‘qitish dasturlarini malakali kadrlarga qiziquvchi tijorat korxonalari va mintaqada iqtisodiyotni rivojlantirish va turmush darajasini yaxshilashdan manfaatdor bo‘lgan mintaqaviy hokimiyat tomonidan birgalikda moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi.

Dual ta’limni tashkil etish va amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich - professional ta’lim muassasa va korxona o‘rtasida shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatish:

- ishchi guruh muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish;

- dual ta’limni tashkil etish va amalga oshirish uchun me’yoriy-huquqiy bazani yaratish;

- kasbiy standartlar va lavozim tavsiflarida qayd etilgan Ta’lim standarti va ish beruvchining talablari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik - dual kompetensiyalarni taqsimlash;

- ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda ta’lim dasturlari tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish.

2-bosqich - kasbiy ta’lim tashkiloti va korxona o‘rtasida dual ta’limni amalga oshirish uchun mas’uliyat sohasini taqsimlash:

- nazariya va amaliyotning o‘zgarishini rejalashtirish;

- korxonada ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ish turlari ro‘yxatini muvofiqlashtirish;

- dual ta’limni o‘tkazish uchun moddiy texnik bazani tayyorlash yangilash.

3-bosqich - dual ta’lim jarayonining elementlarini loyihalash:

- amaliy yo‘nalishni hisobga olgan holda ish dasturlari tarkibini sozlash;

- nazorat va baholash vositalarini ishlab chiqish (topshiriqlarning mazmuni va baholash mezonlari);

- korxonadan murabbiylarni tayyorlash va o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish;

- dual ta’limni hisobga olgan holda ish dasturlarini o‘quv-uslubiy ta’minot to‘plamlarini ishlab chiqish.

4-bosqich - dual o‘qitish jarayonini aprobasiya qilish va o‘quv-uslubiy ta’minotni sozlash:

- dual ta’lim jarayonini tashkil etish;

- samarali amaliy yo‘naltirilgan ta’limga yo‘naltirilgan pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarini aprobasiya qilish;

- dual ta’limni amalga oshirishda qiyinchiliklarni aniqlash va tahlil qilish, tuzatishlar kiritish.

Dual tizim mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta’minlaydigan samarali va moslashuvchan mexanizmdir. Shuning uchun ushbu jarayonga katta e’tibor qaratilmoqda.

Germaniya dunyoda dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha tan olingan yetakchi hisoblanadi, bu davlatda kasb-hunar ta’limi tizimi rivojlangan mentorlik instituti, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish va kadrlar tayyorlashda biznesning faol ishtiroki bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakat tajribasi butun Yevropa Ittifoqi uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Dual ta’limning quyidagi afzalliklari va kamchiliklarini ajratish mumkin.

Dual ta’limning afzalliklari:

1. Amaliy qism nafaqat ustaxonalarda va ta’lim muassasalarining o’quv maydonchalarida, balki korxonalarda ham amalga oshiriladi;

2. Ishchi dasturlarining mazmuni ta’lim muassasa va ish beruvchilar o’rtasida kelishiladi;

3. Ta’lim muassasa va korxona o‘rtasida yaqin munosabatlar paydo bo‘lishi va rivojlanishi mumkin;

4. Bitiruvchi ishga joylashganda, olingan bilimlarni darhol qo‘llashi mumkin;

5. Ta’lim muassasada va korxonada o‘qitishning doimiy ravishda o’zgarib turishi yaxshi motivasiyaga yordam beradi va ishlab chiqarish jarayoni qat’iy uzilib qolmaydi;

6. Kasbni aniq tavsiflari, shu bilan bir qatorda tayyorgarlikning bir xil darajasini ta’minlaydi.

Dual ta’limning kamchiliklari:

1. Korxonada o‘qitish motivasiyasi bilan ta’lim sifati pasayishi mumkin;

2. Ish dasturlari har doim ham ishlab chiqarishda bajariladigan ishlarning mavsumiy ketma-ketligiga mos kelavermaydi;

3. Ta’lim muassasa har doim ham korxonalar uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini o‘z vaqtida yetkazib bera olmasligi mumkin;

4. Korxonalarning o‘qitishga tayyorligi yetarli emas-natijada ishlab chiqarishda o‘quv joylari yo‘q;

5. Korxonalar o‘z mahsulotlariga yuqori narxlar orqali ta’lim olish uchun (asbob-uskunalarning yetishmasligi, moliyaviy yetishmasligi va boshqalar) pul ishlashga majbur.

Dual ta’lim ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli hisoblanadi.

Ishlab chiqarish uchun dual ta’lim bu kadrlarni o‘zi uchun “buyurtma berish uchun” tayyorlash, ularning barcha talablariga maksimal darajada mos kelishini ta’minlash, ishchilarni topish va tanlash, ularni qayta tayyorlash va moslashtirish xarajatlaridan tejash imkoniyatiga ega bo‘lishidir. Bundan tashqari, eng yaxshi bitiruvchilarni tanlash imkoniyati mavjud, chunki amaliy mashg‘ulotlar davomida ularning kuchli va zaif tomonlari aniq bo‘lib qoladi. O‘z navbatida, bu yondashuv o‘quvchilarni namoyish qilish uchun emas, balki o‘rganishga undaydi. Yosh mutaxassislar zudlik bilan to‘la fidoyilik va mahsuldorlik bilan ishlashlari mumkin, ular korxona hayotini yaxshi bilishadi va o‘zlarini “o‘zimiz” deb his qiladilar. Bularning barchasi birgalikda kadrlarni saqlab qolish va korxonalar uchun muhim bo‘lgan tovar aylanmasini kamaytirishga yordam beradi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturda belgilangan vazifalardan tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqishda, Butunjahon turistik tashkilotining (BMT) TedQual sertifikatlashtirish tizimini o‘rganish foydadan holi bo‘lmaydi.

Butunjahon turistik tashkiloti (Madrid, Ispaniya) va uning “Tempus” turistik ta’limining sifat instituti (Andorra) turistik ta’limni tashkil etish qoidalariga sifat va samaradorlikni joriy etish maqsadida TedQual (TedKvol — turistik ta’lim sifati) sertifikatlashtirish tizimini joriy etdilar. TedQual tizimi ISO standartlariga mos ravishda tartibga solinadi.

TedQual tizimini batafsil ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, TedQual sertifikatlashtirish tizimi dunyoning barcha davlatlaridagi davlat yoki xususiy, barcha o‘quv muassasalari uchun ochiq hisoblanadigan turistik

ta’limning sifat dasturini ta’minlash tizimidir, o‘z manfaatlarini belgilangan jarayon orqali BTTda namoyish qiluvchi o‘quv muassasalari talabnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirishga da’vogarlik qiluvchi turistik ta’lim dasturlari akademik daraja va ta’lim davomiyligidan qat’iy nazar belgilangan sifat standartlariga mos kelishi shart bo‘ladi.

ISO 9001:2000 xalqaro standartlaridan farqli ravishda WTO TedQual malakaviy turistik ta’lim sohasida tashkilotlarning ixtisoslashuviga mos keladigan faoliyat ko‘rsatuvchi sifat menejmenti tizimi (SMT)ni takomillashtirish uchun mo’ljallangan. Tadqiqotlarimizning natijari WTO TedQual sertifikatlashtirish tizimi talablarining mazmunidan shu narsa kelib chiqadiki tashkilot jamoasi umumqabul qilingan xalqaro sertifikatlashtirish tizimida sifat tizimi terminlari, tashkilotning jarayonli modelini tuzishning zamonaviy tamoyillari, tashkilotdagi hujjat aylanuvini shakllantirishga bo‘lgan talablar hamda SMK faoliyatiga ko‘maklashish va uni takomillashtirish jarayonlarida o‘z o‘zini boshqarish talablari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi kerak ekanligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi omillardan tashqari mintaqaning turistik resurslari samaradorligini aniqlashda quyidagi omillarni tahlil etish lozim deb hisoblaymiz (1.1-rasm).



1.1-rasm. TedQual tizimining xususiyatlari[111]

TedQual tizimi oliy ta’lim muassasasida aniklangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun zaruriy chora tadbirlarni qabul qilish hamda vaziyatni real baholashga imkon beruvchi qator ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish va hamda ularni joriy etishni tavsiya etadi. Birinchi ko‘rsatkich quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- oliy o‘quv yurtini o‘quv yilining birinchi yilida tark etuvchi talabalar foizi, talabalar safidan chiqarilish sababini aniqlash;
- o‘quv mashg’ulotlariga kelmaydigan talabalar foizi, hamda ularning sabablarini aniqlash;
- imtihonlardagi talablar ta’lim darajasiga mosligini aniqlashga imkon beruvchi turli fanlar bo‘yicha talabalarning imtihonlardan oladigan baholarining tahlili;
- shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabalarning to‘lov summasini to‘lamagan talabalar soni (to‘lov qandaydir davriylikda

[111] Muallif ishlanmalari asosida tuzildi.

amalga oshirilish sharti bilan), bu ko‘rsatkich talabalarning ta’lim xizmatlari darajasidan qoniqmaganligidan dalolat beradi;

- ta’limni tugatgandan so‘ng ham ta’lim muassasasi bilan aloqalarni uzmaydigan talabalar soni, bu esa o‘z navbatida olingan bilimlardan bitiruvchining qonikqanligidan dalolat beradi;

- bitiruvchilarning tavsiyalariga qo‘ra o‘qishga kirgan talabalar soni.

Ta’lim tizimidagi samaradorlikning ikkinchi ko‘rsatkichi bo‘lib bitiruvchilarning kasbiy muhitga moslashishi hisoblanadi. Mazkur jarayonning maqsadi ta’lim mahsulotining ish beruvchi (turizm bozori) talablariga mosligini aniklash bo‘lib. yakuniy natijada bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashga imkon beradi. Talabaning mutaxassisligini tanlashiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uning muvafaqiyatli ishga joylashishi hisoblanadi. Bunda eng muhimi yuqoridagi jarayon qanchalik tez kechishi hamda u ijtimoiy va xizmat pog‘onasiga qanchalik tez ko‘tarilishi muhimdir. Tes oliy o‘quv yurti bitiruvchilarning kasbiy va xizmat pogonalarida o‘sishini kuzatishni hamda ularni qayd qilishni talab etadi, mazkur yo‘nalishni o‘rganishga imkon beruvchi qator sifat ko‘rsatkichlzrini shakllanishini tavsiya etadi. Jumladan:

- o‘qishni tugatganlarining birinchi yilidayoq turizm industriyasiga ishga joylashgan bitiruvchilarning foizi, bu esa ularning olgan malakalari soha talablariga javob berishini belgilashga imkon beradi;

- o‘zlarining mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashgan bitiruvchilar foizi, bu esa ularning tayyorgarlik darajasi soha talablariga mos kelishini belgilashga imkon beradi;

-oliy o‘quv yurtining hatti harakatlari yoki mustaqil tarzda ishga joylashgan bitiruvchilar soni. Bitiruvchilarning talab etilishi muassasa nufuzini yaratib uning darajasini aniqlashga imkon beradi;

- ishga joylashtirish bo‘limlari yoki ta’lim muassasasida shunga o‘xshash bo‘linmalar amal qilsa shular orqali ishga joylashgan talabalar soni.

Uchinchi ko‘rsatkich bu akademik o‘quv hujjatlarining tashkil etilishidir. Talaba uchun akademik hujjatlashtirishni to‘g‘ri rasmiylashtirish dastur doirasida ta’lim berishning huquqiy kafolatidir. Odatda hujjatlarni rasmiylashtirish namunalari har bir ta’lim tizimi uchun belgilangan huquqiy me’yorlarga mos ravishda belgilanadi. birok kator umumiy tavsiflar amal qiladi: bajarish muddatini hamda javobgar shaxslarni belgilash talab etiladi; qonuniy me’rlarga mos ravishda talabalarning shaxsiy xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va me’zonlari qatiy belgilanadi; takdim etilayotgan ma’lumotlar maxfiyligiga rioya etiladi; mazkur xizmatda faoliyat ko‘rsatayotgan xizmatchilar uchun hujjatlarning ochiqligi tartibga solinadi.

TedQual sertifikatlarida quyidagilar tasdiqlanadi:

- akademiya o‘quv rejalari Butunjahon turistik tashkiloti standartlariga mos keladi. turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlash tizimining o‘zi esa yetarli darajadagi sifat darajasida amalga oshiriladi;
- o‘quv muassasasi Themis Foundation - BTT ta’sis etgan maxsus institut belgilagan talablarga mos keladi, hamda xalqaro mikyosda tan olingan o‘z obro‘yiga ega;
- o‘quv muassasasi ta’lim xizmatlarining xalqaro bozorida mutaxassislar tayyorlash dasturi sifati bilan tan olinganligi;
- o‘quv muassasasi turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlovchi dunyodagi yanada nufuzli. o‘quv muassasasini tashkil etuvchi, Butunjaxon. turistik tashkiloti qoshidagi ta’lim birlashmasi tarkibiga kirish huquqini oladi.

tizimni joriy qilish oliy ta’lim muassasasida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va zaruriy chora tadbirlarni qabul kilish xamda vaziyatni real baholashga imkon beruvchi qator ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

4.2. O‘zbekistonda turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda investisiya va innovatsiyalardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari

O‘zbekistonda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishda birinchi navbatda xalqaro ekoturizm bozorini tahlil qilish, xalqaro ekoturizm rivojidagi ilg‘or yo‘nalishlarni o‘rganish, milliy ekoturizm mahsulotlarini ishlab chiqish va ekoturistik xizmatlarni xalqaro talab darajalarida tashkil qilish va ko‘rsatishni mukammal o‘zlashtirish talab qilinadi. Bu talablarni o‘rgangan va mukammal o‘zlashtirganlar mamlakatimizda ekologik turizmni tashkil qilish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o‘tkazishi va kutilgan natijalarga olishi mumkin. Buning uchun vatanimizda ekologik turizm turi bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashimiz lozim. Ammo hozirgacha bu dolzarb masala ochiqligicha qolmoqda. Vatanimizdagi oliy ta’limda ekologik turizm mutaxassisligi tayyorlanayotgan emas. Hozirda turizm ta’limida bakalavr va magistrlarni tayyorlayotgan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urgench davlat universiteti, Qarshi Davlat Universiteti va Samarqand iqtisodiyot va servis institutidagi 5610200 - Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish, 5610300 - Turizm(xalqaro va ichki turizm) ta’lim yo‘nalishida - Ekologik turizm fani o‘qitilmoqda. Lekin, birgina shu fanni o‘qitish bilan ekologik turizmga malakali, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash mushkulligi hammamizga ma’lum. Ekologik turizmni mamlakatimizda rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarda, yaratilayotgan uslubiy, o‘quv qo‘llanmalarda turizm kuchli rivojlanayotgan davlatlarning rivojlanish raqamlari keltirilmoqda. Bu raqamlar tahlil qilinib yaratish mexanizmlari aniq bo‘lmagan tavsiyalar yaratilmoqda. Bu tavsiyalarni turizmdagi tadbirkorlar amaliyotga joriy qilaolmasligi ham hammamiz uchun tushunarli savol. Ekologik turizm kuchli rivojlangan xorij davlatlaridagi zamonaviy ekoturizm texnologiyalarini va ilg‘or tajribalarini yetuk malakali ekoturizm mutaxassislarigina vatanimizning ekologik turizmiga kiritishi mumkin. Ekologik turizmga yuqori malakali kadrlar turizm jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning turizmni tashkil qilishi va turizm xizmatlarini ko‘rsatishi tajribalarini birinchi navbatlarda o‘rganishi va ularning turizmdagi samarali faoliyatlarini, ixtisoslashuvini,

kadrlar tayyorlashini, ilg‘or texnologiyalarini milliy turizmga tadbiq qilishini jiddiy o‘rgnishi kerak edi. Hozirgi turizm ta’limidagi ikki yo‘nalishda tayyorlanayotgan kadrlar birgina ekologik turizm fanini o‘rganish bilan qayd qilingan muammolarni hal qilaolmasligi ko‘zga ko‘rinib turgan haqiqat.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 2 dekabrdagi PF-4861 sonli Farmonida:

- Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniytarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini ....*ekologik turizmni*....ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan[112].

Farmonida ekoturizmni rivojlantirish alohida ta’kidlanganligi ham, ekoturizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarni boshlashimizning vaqti keldi. Ekoturizmni rivojlantirishdagi ko‘plab muammolar ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda. Rivojlanishini boshlagan har qanday soha o‘z taraqqiyotiga, istiqboliga bosqichma-bosqich yetib boradi albatda. Birinchi navbatda ana shu bosqichlardagi muammolarni bajarilish darajalari va ketma-ketligini aniqlash talab qilinadi. Hozirga kelib, Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishda yechimlari jiddiy bo‘lgan muammolari ham yuzaga chiqmoqda. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z yechimini kutib turgani, ekoturizm uchun milliy malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Xalqaro ekoturizm rivojida Yevropa davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh, Kanada, Karib havzasidagi kichik davlatlar, Malayziya, Hindiston, Xitoy davlatlari eng oldingi o‘rinlarni egallab

[112] Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2016 йил 2-декабрдаги ПФ-4861 сонли Фармони.

kelmoqda. Ekologik turizmga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning qanchalik muhimligini xorijiy ikkita davlat misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ekoturizm yildan-yilga rivojlanayotgan Yevropa davlatlarining turizmini tahlil qilganimizda, ulardagi turistik firmalarning va turistik tashkilotlarning turizmning sohalariga, turizmning turlarini rivojlantirishga ixtisoslashganligini ko‘ramiz.

Avstraliya ekoturizmni uning tamoyillariga asoslanib tashkil qilgan va jahonda ekoturizmni ilmiy-amaliy qoidalariga asosan rivojlantirayotgan lider davlat hisoblanadi. Bu davlat ekologik turizmni o‘z davlatining hududlarida tashkil qilganda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat dasturlarini ishlab chiqadi va hududning tabiiy resurslarini hisobga olgan holda ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Avstraliya hukumatining ekologik turizmga yuqori malakali kadrlar tayyorlash - Dasturi quyidagi ta’lim yo‘nalishlari va ekologik turizmni tashkil qilish tadbirlari qamrab olgan:

Yuqori malakali ekoturizm mutaxassislarini tayyorlash;

Ekoturizmga gid-ekskursiyachilar tayyorlash;

Mahalliy halqni ekoturizmga jalb qilish;

Tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishni ekoturizm orqali amalga oshirish;

Ekologik turni, ekoturistik xizmatlarni, ekoturistik mahsulotlarni nazorat qilish;

Hududiy ekologik turizmni rivojlantirish rejasini ishlab chiqish;

Atrof muhitga turizmning va ekologik turizmning ta’sirini monitoring qilish;

Ekologik turizmda lisenziya va akkreditasiya tiziminingishlabchiqish.

Eng muhimi shundaki, ekologik turizmni tashkil qilishda mahalliy aborigen aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to‘liq ularga topshiriladi(mahalliy aholini ish bilan ta’minlash). Ikkinchidan,

mamlakatdagi shtatlar ma’muriyatining taklif va tavsiyalarini ham to‘liq hisobga olinadi.

Avstraliyada ekologik turizm mutaxassislarini (kadrlarni) tayyorlash quyidagicha:

1. “Australian Eco Adventures” turoperator-Butun Avstraliya ekoturizmi bo‘yicha.

2. “Nature& Adventure” - turoperator- Avstraliyaning janubiy-sharqida dam olish va ekologik turizm bo‘yicha(qȳshimcha- kitlarni ko‘rsatish).

3. “Kirrama Wildlife Toures” -turoperator- Shimoliy Avstraliyada kitlar va qushlarni kȳrsatish turlari bo‘yicha gid-ekskursiyachilar.

4. “Chambers Wildlife Rainforest Lodle”- Kvinislend shtatidagi tropik o‘rmonlaridagi ekzotik mehmonxonada dam olish, tropik hayvonlarni ko‘rsatish va tropik o‘rmonlar uchun gid-ekskursiyachilar.

5.“Wait–A-While Environmetal Toures”-Avstraliyaning tabiiy mintaqalari bo‘yicha gid-ekskursiyachilar.

6. “One World Travel”-turoperatorlarini tayyorlash-Avstraliya bo‘yicha va Avstraliyadan tashqarida barqaror ekoturizm va madaniy dam olish turlari;

7. “Western Geographic Ecotours”-turoperatorlarini tayyorlash.

Xalqaro ekoturizm bozorida eng ommaviylashgan 9 ta ekoturistik marshrut reytingi bo‘yicha Avstraliya so‘ngi o‘n yillikda birinchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Avstraliyada ekoturizm bilan 9 ta milliy kompaniya shug’ullanadi. Birgina - Australian Eco Adventuresi milliy ekoturizm kompaniyasining 75 ta turmahsuloti (ekoturistik marshruti) xalqaro ekoturizm bozorida sotiladi. Bu kompaniyaning kitlarni kuzatish va tomosha qilish ekoturini xalqaro ekoturistlar navbat kutib olishadi. Avstraliya kengurisi bo‘yicha 3 ta Milliy ekoturistik kompaniyalar ham faqat xalqaro ekoturistlarni kutib olishga ixtisoslashgan[113].

Germaniyada 122 ta turistik firmalar faqat ekoturizmni rivojlantirishga ixtisoslashgan. Ushbu turistik firmalarning

[113] Александрова А.Ю., Туризм географияси. Учебник, Москва, КНОРус, 2010.-592 с.

Germaniyadagi ish faoliyatlari quyidagicha: 50% turistik firmalar dunyo bo‘yicha ekologik turlarni ishlab chiqadi va xalqaro ekoturistik bozorga chiqaradi (xalqaro ekoturistik xizmatlarni ham o‘zlari tashkil qiladi);

ekoturizm operatorlari Yevropa davlatlari bo‘yicha ekologik turlarni ishlab chiqadi va Yevropa davlatlariga chiqaradi (ekoturistik xizmatlarni ham o‘zlari tashkil qiladi); ekoturizm operatorlari Germaniyaning tabiati va biologik xilma-xil resurslariga ekoturlarni ishlab chiqadi va ekoturistik xizmatlarni tashkil qiladi; 44 ta turoperatorlar xalqaro miqyosdagi ekotur operatorlari hisoblanadi. Bu turoperatorlarni AQSh, Kanada, Hindiston, Afrika davlatlari va Avstraliyaliklar juda yaxshi bilishadi. Ekologik turlarga maxsus tayyorgarlik bo‘yicha davlat attestasiya imtihonlarini topshirgan gid-ekskursiyachilar taklif qilinadi. Germaniyaliklarning ekologik turlarni taklif qilishida ekoturistik resurslardan maksimum foydalanish ekoturistik mahsulotlarini ishlab chiqishadi. Bu ekoturistik mahsulotlarni yaratishda ekoturistik operatorlar ekoturistlarni qiziqtiradigan asosiy ekoturistik obyektlar atroflaridagi barcha turistik obyektlarni juda yaxshi o‘rganishadi. Shu usulda ular ekoturistlarning ekoturlarda belgilangan vaqtlarini uzaytirishadi[114].

Keltirilgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, mamlakatda ekologik turizmni ekologik turizm bo‘yicha tayyorlangan mutaxassis kadrlar tashkil qiladi va rivojlantiradi. Chunki faqat ekologik turizmni mukammal bilgan turoperator kadrlar jozibali, mazmunli va qiziqtiruvchi ekologik tur mahsulotlarini yarata oladi, ular o‘zlari yaratgan ekologik tur mahsulotlarini ichki va xalqaro ekologik turizm bozorida reklama qilaoladilar.

4.3. Inson omilini rivojlantirishda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashda investisiyalarni ahamiyati

[114] . Хаитбоев Р., Экологик туризм. Ўқув қўлланма, “Баркамолфайз медиа”, Тошкент,2018.-248 б.

‘langan. Tabiiyki, mehnat resurslari qancha ko‘p bo‘lsa hamda uning

chiqariladigan yalpi ichki mahsulot hajmi va sifati ham shuncha yuqori bo‘lishi mumkin. Bu imkoniyatlar ishlab chiqarishning real natijalarida o‘z ifodasini topishi, ya’ni iqtisodiy o‘sish sodir bo‘lishi uchun, mehnat resurslarida mujassamlashgan sifatli ishchi kuchi ijtimoiy ishlab chiqarishda to‘la ishtirok etishi va iqtisodiyotda band bo‘lgan har bir subyekt o‘zidagi mehnat salohiyatini to‘la safarbar etishi lozim. Aks holda mehnat resurslari, ularning soni (qancha ko‘p bo‘lmasin), sifati (qancha yuqori bo‘lmasin) mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, boyib ketishi, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

O‘tgan asrning 70-yillarida G‘arb mamlakatlarida paydo bo‘lgan inson omili degan tushuncha insonda jismoniy va ijodiy qobiliyatini, bilimini, malaka va mehnatdagi faolligini shakllantirish hamda, ushbu sifatlarni ishlab chiqarish jarayonida ro‘yobga chiqarib yuqori natijalarga erishish uchun ma’lum miqdorda sarf xarajatlarni

O‘zbekistonda mustaqillikka erishgandan so‘nggi uttiz ikki yil davomida inson omilini rivojlantirish borasida xususan ta’lim, sog’liqni saqlash va boshqa sohalarda amaliy ishlar olib borildi. Ayniqsa ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar qabul qilindi, hamda ular asosida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida har yili ta’lim sohasi uchun ajratiladigan mablag’lar YaIMning 10-12% tashkil etadi, bu YUNESKO talablariga nisbatan (5-6%) ikki barobar ko‘p investisiyani

Jadal iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish mehnat resurslarining darajasini oshirishni eng muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo’ymokda. Chunki, hozirgi davrda mehnat bozorining asosiy subyekti[115]

samarali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash mamlakat aholisi katta yoshdagilarining 40.0-60.0 foizi oliy ma’lumotli, ular tarkibida

[115] Нусратуллин В.К. Неравновесная экономика. 2-е изд., доп. - М., 2006. С.361.

2.0-5.0 foizi ilmiy xodimlar bo’lishini talab etadi. Buni rivojlangan mamlakatlarida har 1000 nafar xodim hisobiga 5.36 olim to‘g‘ri keladi.

Mazkur O‘zbekiston Respublikasida turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatli o‘rnini anglagan holda, ushbu tarmoqni malakali kadrlar bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor beriladi.

Keyingi yillar davomida bozor iqtisodiyoti sharoitida respublika turistik korxonalarida xizmat ko‘satish yildan yilga oshib bormoqda. Ammo bozor iqtisodiyoti tizimi ya’ni kuchli raqobat mavjud bo‘lib turgan bir sharoitda bunday natijalarga inson omilini rivojlantirish hisobigami yoki ekstensiv yondoshuvlar evazigami - degan savol tug‘ilishi tabiiydir.[116]

Tish muammosining holati uning natijaviy ko‘rsatkichining tarkibiy foydalanish mulk shaklidan qat’iy nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subektlar uchun o‘ta muhimdir. Yapon millatining so‘nggi qirq yillik tajribasi mehnat qancha samarali bo‘lsa, iqtisodiy ko‘rsatkichlar shuncha yuqori bo‘lishidan dalolat bermoqda. Shu tufayli ushbu guruh ko‘rsatkichlarini alohida baholash va tahlil qilish lozim deb

Turizm sohasida natija ko‘rsatkichlari har xil ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanishi mumkin. Bunda barcha sohaga umumiy bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish ma’qul. Bunday ko‘rsatkichlarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Turistik korxonasida mehnat potensialining natijaviyligi;
2. Turistik korxonasida mehnat potensialining rentabelligi;
3. Turistik korxonasida mehnat potensialining daromadliligi.

‘rsatkichlardan biri. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati aynan shu ko‘rsatkich miqdoriga bog‘liq. Mehnat unumdorligi ma’lum vaqtda

[116] Gamington W.J. How Big is the Braun Dian? INF. Working Paper 98/02, Washigton, 1998.

(kun, oy, chorak, yil) bir xodim tomonidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi bilan o‘lchanadi. Bu ko‘rsatkich natijani xodimlarning o‘

$$\boldsymbol{Mehnat\ unumdorligi} = \frac{\boldsymbol{Turistik\ \ korxonada\ \ natijasi}\ (\boldsymbol{Q})}{\boldsymbol{Xodimlar\ soni}\ \ (\boldsymbol{X})}$$

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, mehnat unumdorligiga ikki omil ta’sir qilmoqda. Ularning natija o‘zgarishiga ta’sirini aniqlash uchun bir qancha usullardan foydalanish mumkin.

Xulosa o‘rnida umumiy ma’noda shuni ta’kid etish lozim inson omilini rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog‘lom, munosib turmush kechirishlari, ma’lumotli bo‘lishlari uchun zarur vositalardan foydalanishlari imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyatlarni odamlarning o‘zlari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni insonga uning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda o’zini x

a

t

d

a

g

i

y

i

l

i

k

s

o

n

g

a

Insonni omilini rivojlantirish tushunchasi uning qobiliyati va imkoniyatlarini shunchaki shakllantirishga qaraganda ancha kengroqdir. U shuningdek, bu imkoniyatlardan mehnat jarayonida, dam olish va ijtimoiy faoliyatda foydalanishni ham nazarda tutadi. Imkoniyatlarni shakllantirish va ularni ishga solish o‘rtasida mutanosiblik bo‘lmas ekan, inson salohiyatidan foydalanilmay qolinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib davlatning farovonligi faqat daromad darajasiga emas, balki bu daromaddan qanday foydalanilishiga ham bog‘liqdir. Daromadlar mo‘may bo‘lishining o‘zi insonni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Shunday ekan, inson omilini rivojlantirishning ikki xususiyati imkoniyatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni farqlash kerak. Insonni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlabgina qolmasdan, uning natijalarini adolatli taqsimlashni ham nazarda tutadi.

VI Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

1.Germaniyadagi malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini O‘zbekistondagi barcha nodavlat va notijorat o‘quv kurslari va malaka oshirish hamda qayta tayyorlash institutlarining tarkibiy birlashmasiga o‘xshatishimiz mumkin. Germaniya malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimining modelini aynan mavjud holida O‘zbekistonda turizm sohasini oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida iqtisodiyot, moliya yo‘nalishlarida va biznes-maktablarida qo‘llash mumkin.

2.Turizm sohasida investision faoliyatni innovasion asosda rivojlantirishda davlat-xususiy sherikligini yo‘lga quyish va takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ta’lim sohasi hisoblanadi. Chunki bunday hamkorlik turizmni yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

3.Marketing faoliyati respublika davlat organlari o‘rnatgan me’yorlar asosida faoliyat yurituvchi turizmni boshqarishning mintaqaviy hamda respublika darajalarida, ijtimoiy tashkilotlarda va turbiznesda amalga oshiriladi. Davlat-xususiy sherikchiligi tuzilmasi barcha ishtirokchilarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

4.Rivojlanish aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga birinchi darajali ahamiyat berilishini, ular imkoniyatlarini kengaytirishni, ularning o‘z turmushlariga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Bunda investisiyalarni jalb etish insonlar manfaatini ko‘zlaydi, ular uchun ish joylarni ko‘paytirishga, jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. Iqtisodiy adabiyotlarda “yuqori malakali kadr” kategoriyasiga oid ta’riflar va tushunchalarni o‘rganib, “yuqori malakali turistik kadrning xususiyatlari”, “turizm sohasida yuqori malakali kadrlar”, “turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” tushunchalarining takomillashgan muallflik ta’riflari ishlab chiqildi.

2. Tadqiqot natijasida turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari oliy ta’lim xizmatlari va bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda huquqiy-me’yoriy mexanizm imkoniyatlaridan foydalangan holda takomillashtirildi.

3. Turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlashda turistik korxonalar bilan davlat, ta’lim tashkilotlari, mehnat bozori, innovatsion markazlar, jamoat tashkilotlari o‘zaro hududiy integratsiyasi modeli ishlab chiqildi. Bu Samarqand viloyatida turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning hududiy turistik-klaster modeli sifatida amaliyotga joriy etildi.

4. Turizm sohasining yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ta’sir etuvcht omillarni ichki va xorijiy turistlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, zanjirli almashtirish va indeks usullarini qo‘llagan holda aniqlash tartibi ilk bor ishlab chiqildi. Tahlillar natijasida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo‘llari ko‘rsatib berildi.

5. O‘zbekiston Respublikasida yangi turizm industriyasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish natijalaridan kelib chiqib yuqori malakali kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talab o‘zgarishining 2026-yilgacha prognoz parametrlari ishlab chiqildi va taklif etildi.

6. Ekonometrik modellarni qo‘llash asosida turizm sohasida magistratura mutaxassisliklari hamda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarini bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga 2022-2026-yillarni qamrab olgan prognozidan kelib chiqib bandlikni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Ushbu zaruriyatidan kelib chiqib, keyingi besh yil davomida yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosini hal

etishga qaratilgan o‘ziga xos xususiyatlar va tamoyillar ishlab chiqish zarurligi ham asoslangan.

7.Oliy ta’lim va turizm xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini davlat xususiy sherikchilik munosabatlarini shartnoma, investitsiya va hissadorlik strategik rejalari asosida takomillashtirgan va yuqori malakali kadrlar tayyorlashda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish taklif etildi.

8. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha mehnat bozori buyurtmalarni shakllantirish, bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish, malakali mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta’minlashda iqtisodiyot tarmoqlarining ishtiroki ham talabga javob berish lozimligidan kelib chiqib, ish beruvchilar tomonidan oliy ta’lim dasturlari o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga mos kelishini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlarni samarali tashkil etish va oliy ta’lim - fan-ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashuvini ta’minlash zarurligi asoslangan.

9. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda turistik korxonalar va davlat tashkilotlari integratsiyasi asosida ta’lim tashkilotlari, mehnat bozori talabi, innovatsion markazlar, jamoa tashkilotlari, kasaba uyushmalarining o‘zaro hududiy turistik-klaster modelini taklif etish zarur.

10. Tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib, ikki turistik obyekt “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlari sifatida turistik marshrutlarga kiritilishi yuqori samara beradi deb hisoblaymiz. Ushbu tadbirlar hududlarda turistik faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratish bilan birga, yangi turistik tashkilotlarni tashkil etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishga olib keladi, hhamda qishloq joylarda kambag‘allikni qisqartirishga amaliy yordam beradi. Bu yangi turmahsulotlarni joriy qilish imkoniyatlarini ham yaratadi. Bularning barchasiga erishish uchun ushbu hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. NORMATIV - HUQUQIY HUJJATLAR VA METODOLOGIK AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2023.-75b.

1.1.2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2019-yil 30-dekabr. - T.: 2019.

1.1.3. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 10-may. -T.: 2019.

1.1.4. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-549-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 18 iyul. – T.: 2019.

1.1.5. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-630-sonli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 24-yil. -T.: 2020.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1.2.1. O‘zbekiston Respublikasi 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165 sonli Farmoni.

1.2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi fevraldagi “turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-52-sonli Farmoni.

1.2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

1.2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli Farmoni.

1.2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabridagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini

innovatsion rivojlantirishning strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

1.2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861 Farmoni.

1.2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining turizmni rivojlantirish bo‘yicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3510-sonli Qarori.

1.2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli Qarori. 2022.

1.2.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-maydagi “Ichki turizmni diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2871-sonli Qarori.

1.2.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrdagi Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni “Samarqand -yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli Qarori.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalari

1.3.1. Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // 2022-yil 21-dekabr, https://www.xabar.uz/

1.3.2. Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a’zolariga 2020-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2021-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomasi. // uza.uz.

1.3.3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining

24 yilligida bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruza. - T.: O‘zbekiston, 2017.

1.3.4. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016-yil 8-sentabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari to‘plami. I-jild. - T.: O‘zbekiston, 2017.- 592 b.

1.3.5. Sh.M.Mirziyoyev, Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash-xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining VIII c’ezdidagi ma’ruza. 2016-yil 19-oktabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev asarlari to‘plami. I-jild.- T.: O‘zbekiston, 2017. - 592 b.

1.3.6. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari to‘plami. I-jild. - T.: O‘zbekiston, 2017.- 592 b.

1.3.7. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.- T.: O‘zbekiston,2017-592 b.

1.3.8. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.- 464 b.

1.4. Monografiyalar, kitoblar va risolalar

1.4.1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. // Monografiya. - T.: Iqtisodiyot, 2015. – 30. b.

1.4.2. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма.- М.: Финансы статистика, 2007. - 176 с.

1.4.3. Боголюбов В.С. Экономика туризма: учебник для студентов учреждений высшего профессионального образования, обучающихся по направлению подготовки “Туризм” / В.С.Боголюбов, В.П.Орловская.- 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Академия, 2013. -190 с.

1.4.4. Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма.- М.: Академия, 2013.–192 с.

1.4.5. Болтабоев М.Р “Туризм назария ва амалиёт” фанидан электрон дарслик яратиш технологияси: услубий қўлланма.- Сам.: СамИСИ, 2016.-96 б.

1.4.6. Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. - Т.: Фан ва технология, 2018.- 400 б.

1.4.7. Зорин И.В. Теоретические основы профессионального туристского образования: монография. - М.: Сов.спорт, 2001.- 264 с.

1.4.8. Зорин И.В., Каверина Т.П., Квартальнов В.А. Туризм как вид деятельности // Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2005. – 288 с.

1.4.9. Квартальнов В.А. Стратегический менеджмент в туризме - М.: Финансы статистика, 2000.-496 с.

1.4.10. Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма: Учебник. –М.: КНОРУС, 2015.− 530 с.

1.4.11. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: учебник / К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю, Ш.М. Флинн; пер. с англ. -19-е изд. - Москва.: Инфра-М., 2018. - 1028 с.

1.4.12. Muhammedov M.M. va boshq. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. -Sam.: Zarafshon, - 2017. - 300 b.

1.4.13. Putrik Y.S. Istoriya turizma: Uchebnik – M.: Federalnoe agentstvo po turizmu, 2014.-256 s.

1.4.14. Tuxliyev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot.-T.: Fan va texnologiyalar, 2018. – 400 b.

1.4.15. Tuxliyev I.S. Turizm asoslari. Darslik. -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.- 332 b.

1.4.16. G‘ulomov S.S., Ochilov I.S., Ganixodjayev S.O. O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish va barqaror rivojlanish omillari. Bilimga tayangan innovatsion iqtisodiyot -T.: Fan va texnologiya, 2016. – 136 b.;

1.4.17. Po‘latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A. va boshq. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti) O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiya , 2018.- 296 b.

1.4.18. Salimov O.U. “Xalqning yuragiga yo‘l” Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 2022. - 784 b.

1.5. Ko‘p tomli kitoblar

1.5.1. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма: справочник. - М.: Финансы и статистика, 2014.-368 с.

1.5.2. Карпова Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью: учебное пособие в 2-х частях. Ч.1.– СПб.: Изд-во СПб ГУЭФ, 2011.- 268 с.

1.5.3. Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. Менежмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: ГНИ “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. – 368 с.

1.5.4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild.-T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. - 606 b.

1.5.5. Po‘latov M.E., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E., Usmanov Z.. Turiz va mehmonxona xizmatlari iqtisodiyoti. Darslik-Samarqand, 2021. “Fan bologi” nashriyoti 334 b.

1.5.6.Tuxliyev I.S., Po‘latov M.E., Berdimurodov A.Sh. Turizm atamalarining izohli lug‘ati. - Samarqand. SamISI, 2021. 252 b.

1.6. Statistika to‘plamlari

1.8.1. O‘zbekiston raqamlarda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik to‘plami. -T., 2021-2022.

1.8.2. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami. 2010-2016. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – T.: 2017.

1.8.3. O‘zbekistonda yillik demografik yillik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi to‘plami. T.: 2010, 2015, 2018, 2020, 2022, 2023.

1.8.4.O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. O‘zbekiston Respublikasi davlatstatistika qo‘mitasi to‘plami.T.:2010, 2015, 2018, 2020,2021, 2022, 2023.

1.8.5. O‘zbekiston raqamlarda.O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi to‘plami. T.: 2010, 2015, 2020, 2021, 2022, 2023.

1.8.6. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi to‘plami. T.: 2010, 2015, 2020, 2021, 2022.

1.8.7. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi to‘plami. T.: 2010, 2015, 2020 O‘zbekiston moliyasi. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi to‘plami. T.: 2010, 2015, 2020, 2021, 2022.

1.7. Internet manbalari

1.9.1.https://wttc.org/Research/Economic-Impact-Iqtisodiy ta’sirni o‘rganuvchi tadqiqotlar tashkilotining rasmiy sayti.

1.9.2. https://www.unwto.org - Birlashgan millatlar tashkilotining jahon sayyohlik tashkiloti.

1.9.3. https://data.worldbank.org/indicator - Jahon bankining rasmiy sayti.

1.9.4. https://www.ilo.org - Xalqaro mehnat tashkilotining rasmiy sayti.

1.9.5. https://www.wto.org - Xalqaro savdo tashkilotining rasmiy sayti.

1.9.6. https://uzbektourism.uz - O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining rasmiy sayti.

1.9.7. https://www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

1.9.8. https://www.gks.ru - Rossiya Federatsiyasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

1.9.9. https://library.ziyonet.uz - Ziyonet kutubxonasining rasmiy sayti.

1.9.10. https://www.aaup.org - Amerika universitetlari professorlari Assotsiatsiyasining rasmiy sayti.

1.9.11. www.cer.uz -Iqtisodiy tadqiqotlar markazining rasmiy sayti.

1.9.12. https://www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi rasmiy sayti.

1.9.13. https://www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti.

RAXMATOV ADXAM ITOLMASOVICH

TURIZM SOHASIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH: MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

MONOGRAFIYA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: D. Hamrayev

Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 31-oktabrdagi 3-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

5288 **ISBN:** 978-9910-752-43-8

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Bosishga ruxsat etildi: 31.11. 2023 y.
© “STAP-SEL” MChJ. Nashriyoti, Samarqand 2023 y.

20.12.2023 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 10.12
Buyurtma № 0148A/23. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.